



Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2025, № 4

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'apor QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV
Karimova ZULFIZAR

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Ziyo ko'chasi,
5-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 *X.I.Ibraimov, D.Dj.Xodjimetova*
O'quv-tarbiya jarayonlarida loyihalash texnologiyasi
- 9 *R.X.Djurayev, M.A.Umaraliyeva*
Talabalarda ko'ngilli ijtimoiy metodik harakatlar asosida inklyziv va uydagi ta'lim samaradorligi
- 14 *G'.Oodirov*
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirish
- 19 *L.M.Qaraxanova*
Mahalla – farzandlar uchun uzluksiz tarbiya maskanidir!
- 25 *M.F.Xakimova, D.I.Abdukaxxorova*
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'qitishning samaradorligini oshirish
- 30 *R.Musurmonov*
Uzluksiz ta'lim sharoitida boshqaruv ilmini o'rganish – davr talabi
- 36 *B.X.Raximov*
Uzluksiz ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotchilik faoliyati – psixologik muammo sifatida
- 42 *N.Y.Tajiyeva*
Shaxsda muamala madaniyatini rivojlantirish sohasidagi tarixiy-milliy yondashuvlar uzviyligi
- 47 *D.M.Elmuratova, M.X.Boxodirova*
Ona tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishda o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda uzviylik tamoyli
- 52 *P.X.Djuyraev, Z.Karimova*
Модель сетевого взаимодействия как механизм формирования управленческих умений руководителей школы

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 58 *M.A.Nurmurodova*
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining 4K kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalarining o'rni

MA'NAVIY TARBIYA

- 63 *I.I.Tuychieva*
O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning mazmuni va mohiyati
- 68 *F.E.Bogiyev*
Umumiy o'rta ta'lim tizimida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashning konseptual asoslari
- 73 *A.B.Avlaev*
Maktab ta'limi jarayonida o'quvchilar tomonidan jamiyatda o'z-o'zini rivojlantirish
- 79 *F.X.Ibraimova*
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalash omillari
- 85 *D.I.Choriveva*
Qizlar tarbiyasining ma'naviy-axloqiy va milliy qadriyatlarini shakllantirishdagi roli

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 91 *S.A.Maxmudova*
Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish
- 95 *F.Y.Oodirova*
Talabalarning ijtimoiy-matodik ko'ngilli faoliyati orqali uy ta'limga jalb qilgan nogiron bolalarning rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish metodikasi
- 100 *S.B.Rajabov*
O'quvchining tadbirkorlik kompetensiyasi epistemologiya va etimologiya ko'zligida
- 106 *M.B.Abdufattoxova*
Yosh o'qituvchining malakasini oshirish jarayonida ustoz-shogirdlik tizimini samarali tashkil etishning tashkiliy-pedagogik shartlari



O'QUV-TARBIYA JARAYONLARIDA LOYIHALASH TEKNOLOGIYASI

X.I.IBRAIMOV,

Qori Niyoziy nomidagi TPMI direktori,
p.f.d, O'zRFA haqiqiy a'zosi, akademik

D.DJ.XODJIMETOVA,

Jizzax DPU, Rus adabiyoti va uni o'qitish
metodikasi kafedrası, f.f.n., dotsent

Pedagogik amaliyot davrida tarbiyaviy jarayondan tashqari mashg'ulotlarni tashkil eta olish ko'nikmasining shakllanganligi ham bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish, ularning ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlari va yutuqlarga erishishlari, ijodiy faoliyatlarining taqdirlanishi ularning kasbiy ijodiy rivojlanishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tarbiya texnologiyalari, tarbiyaviy jarayonlar, loyihalash texnologiyasi, o'quv jarayoni, zamonaviy ta'lim vositalari va usullari, bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatlari, kasbiy ijodiy rivojlanish.

The formation of the ability to organize activities outside the educational process during pedagogical practice is also important in the professional activities of future teachers. The organization of research activities of future teachers, their participation in scientific conferences and achievements, and the recognition of their creative activities are of particular importance in ensuring their professional and creative development.

Key words: educational technologies, educational processes, design technology, educational process, modern educational tools and methods, research activities of future teachers, professional and creative development.

Uzluksiz ta'lim tizimini o'quv, moddiy-texnik jihozlar bilan ta'minlash sohasida so'nggi o'n yillikda salmoqli ishlar amalga oshirildi, o'quv xonalari zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta'minlandi. Biroq oliy ta'lim muassasalarini bitirib kelgan yosh o'qituvchilarda mazkur jihozlar bilan ishlash, ta'lim jarayonida ulardan foydalanish, o'quvchilar bilan subyekt-subyekt darajasida muloqot o'rnatish, o'quv rejaları, o'quv dasturlari, tarbiyaviy jarayonlik va qo'llanmalarni tahlil qilish, tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashtirish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmaganligiga amaliyotni kuzatish natijasida ishonch hosil qildik.

Shu bilan bir qatorda, maktab ta'limi jarayonida o'qituvchilarning intellektual quvvatlari to'laligicha ro'yobga chiqarilmayotganligiga ham guvoh bo'lamiz. Buning natijasida mazkur quvvatlarning so'nib borish hollari ham kuzatiladi.



Shuningdek, o'quv rejasidagi o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilarning nazariy bilimlari yuqoriligi, biroq amaliy ko'nikmalari yetarli emasligi kuzatilmoqda. Ular o'z bilimlaridan hayotiy vaziyatlarda vujudga kelgan muammolarni yechishda foydalana olmayptilar. Shu maqsadda birinchi navbatda oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyorlash ularning kasbiy-shaxsiy rivojlanishlariga erishish muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilar ilmiy-metodik faoliyatining ahamiyati ularning o'z faoliyatiga innovatsion usullarni tatbiq eta olishlari, ta'lim-tarbiyaning dolzarb vazifalarini anglashlari, uning jarayonining konseptual asoslarini bilishlari hamda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash va tashkil eta olishlarida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchining ilmiy-metodik ishlari sifatini oshirish faqatgina yangi pedagogik bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish jarayoni emas, balki pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishlarida o'z ifodasini topadi. Mazkur texnologiyalar yordamida tarbiyaviy jarayonlarning sifatini ta'minlash mumkin. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar quydagi sifatlarni namoyon etishlari kerak:

1. O'z guruhlarida liderlik sifatlarini namoyon etishlari.
2. Pedagogik nuqtai nazrga ega bo'lishlari.
3. Muammolarga nisbatan sezgilik bilan munosabat bildirishlari.
4. Qo'yilgan muammolarga hozirjavoblik bilan yonlashishlari kabilar.

Birinchi navbatda bo'lajak o'qituvchilarda istiqboddagi pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish motivlari shakllanishi kerak. Buning uchun:

- a) bo'lajak o'qituvchilar o'z o'zlarini kasbiy jihatdan rivojlantirishlari;
- b) kasbiy pedagogik jihatdan mustaqil rivojlanish traektoriyasiga ega bo'lishlari;

v) o'z bilimlarini boyitish ustida mustaqil ishlashlari;

g) o'quvchi shaxsi, uning rivojlanishi haqidagi zamonaviy yondashuvlar, nazariy bilimlar va axborotlarga ega bo'lishlari kabilar.

Bo'lajak o'qituvchilar faoliyatining mazmuni esa, o'quv yili davomida o'zlari egallagan kasbiy bilimlarni refleksiylash asosida aniqlash, ularning faoliyatini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ijodkorlik darajasini quydagi mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq:

1. Bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga oid ko'nikmalarining namoyon bo'lishi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv pedagogik texnologiyalarni



o'zlashtirganligi.

3. Bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilgan pedagogik innovatsion texnologiyalarning xorijiy tajribalar bilan uyg'unlashganligi.

4. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarini kognitiv o'zlashtirish motivlarining shakllanganligi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorlikka oid xalqaro tajribalardan xabardorligi.

6. Bo'lajak o'qituvchilar orasida o'tkaziladigan turli tanlovlar, olimpiadalar va konferensiyalarda ishtirok etganliklari.

7. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyotdagi ishtiroklari darajasining ifodalanganligi kabilar.

Pedagogik amaliyot davrida tarbiyaviy jarayondan tashqari mashg'ulotlarni tashkil eta olish ko'nikmasining shakllanganligi ham bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish, ularning ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlari va yutuqlarga erishishlari, ijodiy faoliyatlarining taqdirlanishi ularning kasbiy ijodiy rivojlanishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishning turli yo'nalishlarida muvaffaqiyatlarga erishganligi uning faoliyat natijalarida o'z ifodasini topadi. Bo'lajak o'qituvchilarning fan olimpiadalariga ishtiroklarini ta'minlash uchun ularning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni turli to'garaklar, tanlovlar va viktorinalarga jalb etish orqali ularda kasbiy faoliyatning ijodiy jihatlari, tadqiqotchilik hamda loyihachilik ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining shakllanganligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tadqiqotlarga keng jalb qilinishlari.

2) Bo'lajak o'qituvchilar yangi imkoniyatlardan foydalangan holda o'quvchilarning faoliyatlarini loyihalashtirishlari va uning natijalarini baholay olishlari.

3) Bo'lajak o'qituvchilar innovatsion yondashuvlardan foydalanib ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda kutilgan samaradorlikka erishish maqsadida o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatlarini loyihalashtira olishlari.

4) Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash va tashkil etishlari kabilar.



Shu bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilar quyidagi ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari kerak:

1. O'zlashtirilgan pedagogik bilimlarini pedagogik amaliyot, turli tanlovlar, konferensiyalar jarayonida namoyon qilish.
2. O'zlashtirilgan kasbiy tajribalarni egallagan bilimlari bilan uyg'unlashtirish.
3. O'zining kasbiy bilimlarini mustaqil oshirish maqsadida izlanishlar asosida tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hamkorlikka kirishi faoliyatini egallaganliklari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatlari kengayadi, pedagogik amaliyot jarayonida tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlikka kirishadilar.
2. Tarbiyaviy jarayonlar loyihasida pedagogik hamkorlikni nazarda tutishga muvaffaq bo'ladilar.

Bo'lajak o'qituvchilarning turli ijodiy kechalar va tanlovlarda ishtirok etishlari natijasida kasbiy kompetensiyasiga ega bo'lishlari quyidagilarda o'z ifodasini topadi: bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida o'tkaziladigan anjumanlar, fan olimpiadalari va tanlov hamda viktorinalarda ishtirok etishlari natijasida ularning ijodiy imkoniyatlari kengayadi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlik sifatlarini tizimli tarzda shakllantirish uchunqulay pedagogik muhit yaratiladi. Jumladan, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchilarga insonparvarlik prinsipi asosida yondashish, tolerantlik sifatlarini namoyon etish, tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashda axloqiy prinsiplarni hisobga olish, o'z ijodiy faoliyatli natijalarini muntazam refleksiylash va takomillashtirish, pedagogik jamoaga adaptatsiya hosil qilish, o'zining kognitiv-pedagogik bilimlarini namoyon eta olish kabilar. Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy-kasbiy faoliyati natijalarini obyektiv baholash ularni o'z kasb mahoratini takomillashtirishga rag'batlantiradi.

Oliy pedagogik ta'lim tizimida pedagogik bilim va tajribalarni o'zlashtirish samaradorligini aniqlashga oid turli-tuman yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini aniqlash va uning darajasini baholash ularning ijodiy ishlari bilan bevosita bog'liq. Bunda bo'lajak o'qituvchilar tayyorlagan loyihalarning sifatiga e'tibor qaratiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ijodkorlik darajalarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: a) o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarni qayta ishlash; b) ularni tayyorlangan loyihalar mazmuniga singdirish tajribasiga ega bo'lish; v) o'zlashtirilgan bilimlarni



o‘zining ijodiy pedagogik faoliyatida qo‘llash kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan tarbiyaviy jarayonlarni samarali loyihalashtirish va tashkil etishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad – o‘quvchilarni uzluksiz tarzda intellektual, ma‘naviy-axloqiy, huquqiy-fuqarolik, jismoniy-estetik rivojlan-tirish uchun pedagogik asos yaratishdan iborat. O‘qituvchilar tarbiyaviy jarayonlarda o‘quvchilar bilan birgalikda ishlashi, mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatishi, ularda rivojlanish motivlarini shakllantirish olishi talab etiladi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar oliy pedagogik ta‘lim jarayonida kreativ hamda tanqidiy fikrlash, o‘z faoliyatini riefleksiyalash, mas‘uliyatli qaror qabul qilish, o‘quvchilarga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lish, ular bilan hamkorlik o‘rnatish, empatiya, qiziquvchanlik kabi sifatlariga ega bo‘lishlari kerak.

Tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash faoliyatiga ijodiy yondashgan holda uning nazariy asoslarini tahlil qilish natijasida bo‘lajak o‘qituvchi uchun ushbu maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatni o‘zlashtirish alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash faoliyati o‘zining quyidagi tarkibiy qismlariga ega: professor-o‘qituvchilar, bo‘lajak o‘qituvchilar, bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlash, kognitiv xarakterdagi pedagogik jarayon mazmuni, tarbiyaviy jarayonlar, ijodiy xarakterdagi pedagogik jarayonni tashkil etish shakllari, usullari, metodlari va texnologiyalari o‘qitish vazifalarini amalga oshirish yo‘li sifatida pedagogik jarayonlar.

Tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash va tashkil etish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar ushbu jarayonning mazmuni, xarakterli xususiyatlarini bilib olishlari kerak. Bo‘lajak o‘qituvchi loyihaning yaratilish bosqichlari haqida aniqtasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Ular: pedagogik modellashtirish, loyihalash va konstruksiyalashdan iborat.

Pedagogik modellashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarga didaktik tizim va tarbiyaviy jarayonlar haqida aniq tasavvurga ega bo‘liyi imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi tomonidan yaratilgan tarbiyaviy jarayon modeli ushbu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni tasavvur qilish imkonini beradi.

Pedagogik jarayon loyihasi o‘zining pedagogik mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakteridagi pedagogik tafakkuri mahsuli bo‘lib, uning yordamida aniq pedagogik jarayonni tashkil etish imkoniyati vujudga keladi.

Konstruksiyalash bosqichida pedagogik jarayon loyihagini amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon mazmuni, maqsadi, metodlari, shakllari va vositalari oydinlashadi.



Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash ko'nikmasini shakllantirishda konstruktiv-loyihalash metodi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlanishda loyihaning tarkibiy qismlarini aniqlashga oid faoliyatni amalga oshiradilar. Bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishda ularning ijodiy layoqatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son «2022 - 2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.
2. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.
3. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., «Sahhof», 2023.392-bet.
4. Ота-она - мураббий [Матн] / Х.Ибраимов, М.Қуронов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; - Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. - 220 б.
5. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. «Pedagogika nazariyasi (darslik).» T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
6. Ibragimovich I. K. et al. Pedagogical abilities of a teacher, structure and development // 湖南大学学报 (自然科学版). - 2021. - Т. 48. - №. 12.
7. Ибрагимов Х. И. Педагогика и воспитание // Экономика и социум. - 2021. - №. 1-1 (80). - С. 608-611.



TALABALARDA KO'NGILLI IJTIMOYIY METODIK HARAQATLAR ASOSIDA INKLYUZIV VA UYDAGI TA'LIM SAMARADORLIGI

R.X. DJURAYEV,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti bo'lim mudiri,
pedagogika fanlari doktori, akademik, loyiha rahbari

M.A. UMARALIYEVA,

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti bo'lim mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent(PhD)

Maqolada inklyuziv ta'limning imqoniyatlari va uy ta'limining samaradorligini oshirishda talabalarning ko'ngilli ijtimoiy metodik haraqlarining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, uy ta'limni tashkil etish metodikasi berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, uy ta'limi, ko'ngilli talabalar, metodika, ijtimoiy-pedagogik haraqlar.

В статье широко освещаются возможности инклюзивного образования и роль добровольных социальных методических действий учащихся в повышении эффективности домашнего обучения. Также дана методика организационного домашнего обучения.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, домашнее обучение, студенты-волонтеры, методика, социально-педагогические действия.

The article extensively highlights the possibilities of inclusive education and the role of voluntary social methodological actions of students in improving the effectiveness of home schooling. The methodology of organizing and home education is also given.

Key words: Inclusive education, homeschooling, volunteer students, methodology, socio-pedagogical actions.

Ilmiy hamjamiyat jiddiy e'tibor qaratishi zarur bo'lgan muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklanganlarni teng, munosib ta'lim-tarbiya olishi hamma vaqt yaxshi, risoladagidek bo'lishi, alohida e'tiborda tutilishi, nazardan chetda qolmasligi lozim.

Ushbu muammo haqida Sharq mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G'azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar o'z zamonlarida oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to'g'risida yozilgan



ilmiy va ilmiy-pedagogik mushohadalari bizgacha yetib kelgan noyob asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, alohida e‘tiborga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta‘lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda ilm olishga, kasb-hunar o‘rganishga intilish kuchliligini ta‘kidlaydi. Sharq allomalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida ta‘lim-tarbiyaning ta‘siri haqidagi qarashlari ilmiy tahlili tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo‘lishi shubhasiz.

Inklyuziv ta‘limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, ushbu yo‘nalish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, inklyuziv ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorlik jihlatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylandi. Chunki inklyuziv ta‘lim texnologiyalari barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat‘i nazar ta‘lim jarayonida to‘laonli ishtirok etishini ta‘minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, alohida e‘tiborga, yordamga muhtoj bolalarning atrofdegilar bilan muloqotda bo‘lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, ta‘lim muassasalarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatga kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas‘uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar yaratadi.

Bizning fikrimizcha, inklyuziv ta‘lim – barcha ta‘lim oluvchilar uchun ularning ehtiyojlari, imkoniyatlarini e‘tiborga olgan holda ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishda teng imkoniyatlarni ta‘minlash.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, Yer shari aholisining 15 foizga yaqinining imkoniyati cheklangani va achinarlisi, bu ko‘rsatkichning muntazam o‘sib borayotgani har bir insonga o‘zini atrofdegilar bilan teng his qilishi hamda o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirishga undamoqda.

Ushbu muammo yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad – jismoniy holatidan qat‘i nazar, barcha insonlarga teng imkoniyatlar yaratishdir. Mamlakatimiz aholisining 40 foizini 18 yoshgacha, 65 foizini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni himoya qilish tizimini rivojlantirish darajasi jamiyatning insonparvarlik va uni ma‘naviy-axloqiy rivojlantirish darajasi, O‘zbekistonning huquqiy majburiyatlari va mamlakatimiz tomonidan imzolangan Xalqaro konvensiyalarni aks ettiradi. Yosh avlod haqida g‘amxo‘rlik muhim umuminsoniy qadriyatlardan biridir. Inklyuziv



ta'limni rivojlantirish bu boradagi ahamiyatli yo'nalishlardan biriga aylandi. Mazkur ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, bilim olish va rivojlanish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining samaradorligini belgilovchi eng asosiy mezon bo'lishi lozim.

Ko'pchilik uchun inklyuziv ta'lim bu umumta'lim maktabining oddiy sinfiga boshqa bollarning o'quv materiallarini, maktab dasturini o'zlashtirishlariga xalaqit beruvchi nogironligi yoki biror tashxisi bor bollarni joylashni nazarda tutishadi. Bu fikr inklyuziyaga butunlay teskari, to'g'ri kelmaydi, bu integrativ yondashuvning bir ko'rinishi xolos, bu ijobiy tomonga ishlamaydi ham. Integrativ yondashuvning g'oyasi, ta'lim tizimining talablariga, ta'limdan kutilayotgan natijalarga mos kelmay-digan, unga xalaqit beradigan bolalarni ta'lim tizimiga moslashtirishni nazarda tutadi. Ya'ni, shunday bolalarni psixologlar, defektologlar, logopedlar va b. yordamida o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Muammoni yechimini esa bollarimizda ko'ramiz, ular judayam faol, bir joyda o'tira olmaydi; judayam sust, o'zlashtira olmaydi; judayam aqli, zerikayapti; aqli raso emas, hech narsani tushunmayapti. Biz esa bollarimizni hozir ta'limda qabul qilingan umumiy standartlarga moslashtirishga harakat qilayapmiz. Umumiy standartlarga mos kelmaydiganlarni esa maxsus ta'lim muassasalariga yo'naltirayapmiz. Standartlar dogma emas!

Zamonaviy ta'lim – inklyuziyada barcha, dinidan, tilidan, madaniyatidan va sog'lig'idan qat'iy nazar birday, bir xil ta'lim muassasida o'qiydilar. Ta'lim tizimining vazifasi esa har bir bola – ta'lim oluvchining holatiga, darajasiga moslashishi zarur bo'ladi.

Xavotirsiz ayta olamiz, inklyuziya – ta'lim tizimida inqilobdir!

Milliy qonunchiligimiz imkoniyati cheklangan insonlarga ham o'z salohiyatini yuzaga chiqarishda teng huquq beradi. Konstitutsiyamizda esa ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Shunday bo'lsada, mamlakatimizda jismoniy imkoniyatlari cheklangani sababli umumta'lim maktablariga bormayotgan bolalar ham bor.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillaridan biri shundan iboratki, bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak va jamiyat inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim. Oddiy bolalarning ota-onalari farzandlari alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o'qishidan xavotirga tushadi. Shu sababli biz bunday bolalarning ota-onalari bilan ham ishlashimiz lozim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalar ota-onalariga ularning farzandlari ham jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini yetkazish, buni ularning ongiga singdirishimiz kerak. Zero, imkoniyati cheklangan insonlar ham katta yutuqlarga erishayotgani haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Buning uchun ularga o'z salohiyatini yuzaga chiqarish, ota-onalarga esa tanlash imkoniyatini berish zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, muayyan ta'lim ehtiyojlariga ega bola o'z tengqurlari orasida o'qisa, bu ko'proq samara beradi. Birinchidan, bolaning rivojlanishida, ikkinchidan, jamiyatni, bunday bolalar atrofidagi bolalarning



rivojlanishiga yordam beradi. Negaki, alohida ehtiyojli bolalar bilan birga o'qiydigan o'g'il-qizlarda ularga yordam berish, javobgarlik tuyg'usi shakllanadi, ko'pincha yaxshi sharoitlarda o'sib-ulg'ayayotgan bolalarga xos ayrim salbiy sifatlar yo'qoladi. Buning samarasida bolalar birgalikda ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlashni o'rganadi. Bir muhitda tarbiyalana-digan bolalar o'zlaridagi farqni sezmaydi, balki buni faqat ota-onalar sezadi, xolos. Shu bois bunday muloqot alohida ehtiyojli va boshqa bolalar, o'qituvchilar, jamiyat, mahalla, oilalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, ularning barchasida alohida ehtiyojli insonlarga nisbatan ijobiy munosabat rivojlanadi. Umuman olganda, rahm-shafqat, muruvvat kabi xislatlar xalqimizga azaldan xos bo'lib, buni bolalarga ham yoshligidan singdirish lozim. Bu borada inklyuziv ta'lim alohida o'rin tutadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik adabiyotlarda mualliflar uyda yakka tartibdagi ta'limni izohlashda «oila tarbiyasi», «uyda o'qitish», «99 uyda yakka ta'lim», «uydagi ta'lim» kabi turli xil sinonim tushunchalardan foydalanadilar.

Uyda ta'lim tarixi bo'yicha nashrlarning tahlili shuni ta'kidlashga imkon beradiki, Rossiyada uyda ta'lim o'z tarixiga ega, u 17-asrdan beri qo'llanila boshlandi va tan olinishidan ancha oldin keng tarqaldi. Uy o'qituvchilarining birinchi xabarchilari ruhoniylar va «harf ustalari» edi.

Uy sharoitida o'qitishga ta'lim tizimining muhim yo'nalishi sifatida qaraladi va bu oilaviy ta'limning ko'p asrlik tajribasida aks ettirilgan va bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonida shakllangan:

1-davr (VI-IX asrlar) – qadimgi slavyan qabilalari orasida mentorlik faoliyati elementlari paydo bo'lishi;

2-davr (X-XV asrlar) – knyazlar saroyida bolalarni uyda o'qitish va «savodxonlik ustalari» tomonidan oilaviy tarbiya;

3-davr (XVI-XVII asrlar) – kelajak taxt merosxo'rlarining saroyda shakllanishi;

4-davr (XVIII asr) – hokimiyatni rivojlantirish, mahalliy zodagonlar orasida oilaviy muhitda umumiy ta'lim;

5-davr (18-asr oxiri – 19-asrning birinchi choragi) – uy va din ta'limini va davlat ta'lim muassasalarida o'qitishning parallel rivojlanishi; gubernatorlar va uy murabbiylarining milliy kadrlarini tayyorlash;

6-davr (XIX asrning 30- yillari – XX asrning boshlari ..) – uy sharoitida ta'limni fuqarolik tarbiyasining bir turi sifatida rasmiy ravishda tan olish, bu ta'lim muassasalarida va davlat maktablari qoshidagi maktab-internatda o'qishga tenglashtiriladi; uyda o'qitishning istiqbollari va muammolarini pedagogik adabiyotda va matbuotda faol muhokama qilish;



7-davri (1962-yildan bugungi vaqtgacha) – nogiron yoki bemor bolalar uchun davlat ta'lim shakllaridan biri sifatida uy ta'limini rasmiy tan olish; ushbu faoliyatni me'yoriy jihatdan qo'llab-quvvatlash .

So'nggi o'n yilliklarda uy ta'limi muammosi mutaxassislarning jiddiy e'tiborini jalb qilmoqda. Uy sharoitida o'qitish masalalarini muhokama qilib, bir qator mualliflar uy ta'limini amalda tadbiq etilishi hali ham ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi degan xulosaga keldilar.

Bizning fikrimizcha uyda yakka tartibdagi ta'lim sifatini oshirish va uyda o'qiyotgan bolalar va o'spirinlarning ijtimoiylashuvi muammosini hal qilish uchun bu masalalar yechimi ishlab chiqilishi kerak. Innovatsion mashqlarni qo'llash orqali o'quvchilarning dars jarayonida qiziqishlari ortibgina qolmay, dars davomida o'rgangan bilimlarini kundalik hayotda ham qo'llay olish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'quvchining bilim, ko'nikma, malakalarini hamda kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion metodlardan foydalanish dars jarayonida o'quvchining faolligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz» - T.: O'zbekiston, 2017-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Xalq ta'limi Vazirligining 2015-yil 10-iyundagi 15 -mh- sonli qaroriga asosan tasdiqlangan «Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishlarini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom.
4. M.A.Umaralieva «Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining inklyuziv kompetentligini rivojlantirish tamoyillari», «Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» ilmiy-metodikjurnali.-Buxoro. 2023. №7. 303-310 b. 7 bet.
5. M.A.Umaralieva «O'zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini hal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat», «Xalq ta'limi» ilmiy-metodik jurnali . 1.T., 2023. 6-10b. 4 bet.
6. M.A.Umaralieva «Social policy for increasing women's activity in solving women's social problems in Uzbekistan», Fars international journal of education, social science humanities\ Journal ISSN: 2945-4492 SJIF 2022 = 6.786 peer reviewed journal. (Finlyandiya), 6bet.



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRISH

G‘.QODIROV,

Jizzax davlat universiteti

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor,

p.f.d(DSc), dotsent

Oliy pedagogik ta‘lim jarayonida evristik topshiriqlardan foydalanish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy pedagogik faoliyat tajribasi hosil bo‘ladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy faoliyatga xos bo‘lgan bilimlar hosil qilinadi va kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu esa bo‘lajak pedagogning istiqboldagi kasbiy faoliyati sifat va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *evristik ta‘lim, talabalarning kasbiy bilimlari va kompetensiyalarini rivojlantirish, evristik vositalarni qo‘llash, induktiv, deduktiv, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, innovatsion metodlar va mahsuldor topshiriqlar.*

As a result of the use of heuristic tasks in the process of higher pedagogical education, future teachers gain experience in social pedagogical activity. As a result, future teachers acquire knowledge specific to professional activity and form competencies. This serves to ensure the quality and effectiveness of the future teacher’s professional activity in the future.

Key words: *heuristic learning, development of students’ professional knowledge and competencies, use of heuristic tools, development of inductive, deductive, logical thinking skills, innovative methods and productive tasks.*

Bugungi kunda ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni evristik ta‘lim bilan qamrab olish, evristik izlanishlarni amalga oshirishga undash mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu maqsadga evristik vositalarni qo‘llash orqali talabalarning kasbiy bilimlari va kompetensiyalarini rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda evristik topshiriqlardan foydalanish model-larini takomillashtirish ta‘lim oluvchilar egallashi zarur bo‘lgan kompetensiyalarni guruhlashtirish, induktiv, deduktiv, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy loyihalar tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Barcha ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta‘lim-tarbiya tizimini rivojlan-tirish mutaxassisdan alohida bilim va kompetensiyalarni egallashini ta‘minlash, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda evristik izlanish xarakteridagi topshiriq-lardan foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, evristik topshiriqlar va metodlar yordamida ta‘lim oluvchilarni faollashtirish va intellektual



rivojlantirish, shuningdek evristika, evristik metodlarni qo'llash va evristik ta'lim muammolariga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega, shuning bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini evristik topshiriqlar yordamida imkoniyatlarini aniqlash, bu sohadagi nazariy yondashuvlarni umumlashtirish, evristik topshiriqlar yordamida talabalarni kasbiy faollashtirish, o'quv dasturlarini modernizatsiyalash, metodik ta'minotni takomillashtirish, o'quv modullarining funksional ahamiyatini oshirish, oliy pedagogik ta'lim jarayoniga evristik texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonini samarali natijalar beradigan innovatsion metodlar va mahsuldor topshiriqlarni qo'llagan holda tashkil etish talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quv topshiriqlari talaba shaxsining bilimlarni o'zlashtirish jarayonini jadallashtiradi. Mazkur bilimlarning kasbiy ko'nikmalar va kompetensiyalarga aylanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarning izlanuvchanligi, intellektual faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim va fan sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning bosh maqsadi bo'lajak kadrlarlarni yetuk, barkamol salohiyatli bo'lib kasb jamoasiga qo'shilishi dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan, Yangi tahrirda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» Qonunning 7-moddasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining natijaviyligi oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirib borish vazifasini qo'yadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda oliy ta'lim talabalarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi deb belgilab qo'yilgani ham mamlakatimiz ertasi bo'lgan bo'lajak kadrlarni axborot-texnologiyalaridan unumli foydalangan holda kasbiy salohiyatli va kompetensiyalarini rivojlantirish orqali yetuk kadrlar sifatida tarbiyalash masalasi bugungi kun talabidir.

Pedagoglarni tayyorlashga oid davlat siyosatida ularni izlanuvchanlikka undashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu sohada evristik topshiriqlar o'ziga xos o'rin tutadi. Pedagogika entsiklopediyasida evristik ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan: evristik ta'lim – ta'lim oluvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda foydalaniladigan evristik metodlarga asoslangan ta'lim. «Evristika» – grekcha so'z bo'lib, «izlayman», «topaman», «ochdim» ma'nolarini ifodalaydi.



Evristik ta'lim o'zining uzoq rivojlanish yo'liga ega. U o'zida evristik topshiriqlar, evristik metodlar, evristik savollar, texnologiyalar va suhbatlarni mujassamlashtiradi. Evristik ta'lim ilk bor o'zaro bir biri bilan bog'langan, ta'lim oluvchilarni ijodiy izlanishga undaydigan savollardan iborat bo'lgan. Bunday savollarga talabalar chuqur o'ylash, izlanish natijalariga tayangan holda javob qaytarganlar. Mutafakkirlar o'z pedagogik ta'limotlarida evristik suhbatlar va evristik savollarga alohida e'tibor qaratganlar. Bunda ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi mahsuldor izlanishlarga undovchi topshiriqlar alohida o'rin tutgan. Bunday topshiriqlar talabalarning bilimlarini amaliy topshiriqlarga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu usulni o'tmishda mutafakkir ajdodlarimiz, tasavvuf ta'limoti namoyondalari qo'llaganlar.

Keyinchalik esa o'qituvchilar, filologiya va matematika sohasida ta'lim beradigan pedagoglar va metodist olimlar qo'llashgan. Evristik topshiriqlardan talabalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, nostandart qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytirishga foydalanish nazarda tutilgan. Davrlar o'tishi bilan evristik topshiriqlar barcha fanlarni o'qitish jarayonida keng qo'llanilgan. Ular yordamida talabalarning ijodiy fikrlash faoliyati va ijtimoiy tajribasini kengaytirishga erishilgan. Evristik ta'lim muammolari bilan dastlab tahminan III-IV- asrlarda taniqli grek matematik olimi Papp Aleksandariyskiy shug'ullangan, keyinchalik esa XVII-asrda taniqli fransuz olimi Rene Dekart (1596-1650) shug'ullangan. Ularning ko'rsatishicha evristik usullar universal usul sifatida alohida ahamiyatga ega. Bir so'z bilan aytganda evristik ta'lim o'quv jarayonida evristik savollar yordamida ta'lim oluvchilarni evristik izlanuvchan faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish metodi hisoblanadi. Bu jarayonda talabalardan topqirlik, sinchkovlik, ijodkorlik, izlanuvchanlik, mantiqiy mushohada qilish, maqsadlar tizimi va tadrijiy taraqqiyotni anglab yetish talab qilinadi. Buning natijasida talabalarda faol ijodkorlikka yo'naltirilgan amaliy harakat mexanizmlari shakllantiriladi. Bunday harakat tufayli oliy pedagogik ta'lim jarayoni ijodiy xarakter kasb etib, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Ushbu vazifalarni yechish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy yondashuvlarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda evristik topshiriqlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur topshiriqlar pedagogik ta'lim mahsuldorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimdonlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik mustaqil qarorlar qabul qilish layoqatini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatni egallash jarayonini ilmiy asosda



tashkil etish bugungi kunda murakkab pedagogik vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi natijalarga erishishlari nazarda tutiladi.

1. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga xos bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish;

2. Kasbiy bilimlarni taqdim etish jarayonini innovatsion yondashuvlarga tayangan holda amaga oshirish;

3. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini egallashlarini jadallashtirish maqsadida evristik savol va topshiriqlardan foydalanish;

Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonining sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qilib, ularda hosil bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni rivojlanish imkonini beradi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyalarni puxta egallagan mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatish tajribasini o'zlashtirishlari nazarda tutiladi. Mavjud pedagogik amaliyotni chuqur tahlil qilganimizda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda evristik savol va topshiriqlardan yetaricha foydalanilmayotganligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Yu.K.Kulyutkin ning ta'biricha, evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak mutaxassis muammoning yangi, nostandart yechimlarini izlab topishga muvaffaq bo'ladi. O'zining kasbiy rejaları va dasturlarini tuzish layoqatiga ega bo'ladi. Natijada muammoning aniq yechimlarini izlab topish imkoniyati vujudga keladi.

Taniqli pedagog V.I.Andreev esa, evristik metodlar doirasida muayyan usullarni tushunish lozimligini ta'kidlaydi. Evristik topshiriqlarni bajarish natijasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy muammolarni yechishning muayyan bosqichlarida ijodiy izlanishni amalga oshirish, buning uchun maqbul strategiyalarni qo'llash, kasbiy muammolar ustida kichik tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalari shakllanadi va ular bosqichma-bosqich kompetensiyalarga aylanadi.

Professor-o'qituvchilar evristik savol va topshiriqlardan foydalanish jarayonida muayyan yondashuvlarga tayanishlari natijasida quyidagilarni amalga oshirishda samaradorlikka erishishlari nazarda tutiladi. Jumladan,

- bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy maqsadlarga erishishga undash;
- bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil bilim olishlarini tashkil etish;
- o'quv jarayonida evristik topshiriqlarni tizimli tarzda taqdim etish;
- evristik topshiriqlar yordamida ta'lim jarayonining mahsuldorligini ta'minlash;
- evristik topshiriqlarining ustuvorligini ta'minlash;
- o'quv vaziyatlarni evristik topshiriqlarni qo'llagan holda tashkil etish;



– evristik topshiriqlar yordamida kasbiy ko‘nikmalarni mustaqil refleksiylash kabilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Evristik topshiriqlar yordamida oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning ijodkorlik, mustaqillik ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish mustaqilligi, kasbiy bilimlarni egallash faolligini ta’minlashda evristik topshiriqlar katta ahamiyatga ega. Ushbu topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarni izlanish, faol harakat qilish ko‘nikmasini namoyon etishga undaydi. Chunki mustaqillik va mustaqil bilim olish bo‘lajak o‘qituvchining muhim sifatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqillikni tarkib toptirish zaruriyati mavjud. Buning natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar qo‘yilgan maqsad sari intilish, o‘zlarining kasbiy yutuqlarini ko‘paytirishga harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gordon J. Finding Enlightenment: Ramtha’s School of Ancient Wisdom. 1998, ISBN 1-885223-61-7, Beyond Words Publishing, p. 164. 33
2. Давлешин М.Г. Модульная технология обучения. - Т: ТГПУ, 2000. 107.
3. Safarova R.G. va b. O‘quvchi-yoshlarda «ommaviy madaniyat»ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. - Monografiya. - T.: «Tafakkur qanoti» nashriyoti, 2018 yil, 192 bet. 55
4. Xutorskoy A.V. Pedagogicheskie sredstva realizatsii evristicheskogo potentsiala obrazovaniya // Pedagogika. - 2009 - №3. - S.17-24. 93
5. Ananov B.G. Chelovek kak predmet poznavaniya - SPb.: Piter, 2001. - 288 s. 22.
6. Fominix, M.M. Pedagogicheskaya evristika kak metodologiya sovremenogo obucheniya /M.M. Fominix // Sotsializatsiya lichnosti v XXI veke: Materiali mejregionalnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, posvyashennoy 75-letiyu professora V.D. Semenova. - Yekaterinburg, iyun 2005. - 259 s 27



MAHALLA – FARZANDLAR UCHUN UZLUKSIZ TARBIYA MASKANIDIR!

L.M. QARAXONOVA,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI
bo'lim mudiri, p.f.d. (DSc), katta ilmiy xodim

Mazkur maqolada mahalla tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, uning farzand tarbiyasidagi muhim ahamiyatli belgilari tahlil etiladi. Mahalla insonning hayotida, turmush tarzida, taqdirida, eng muhimi tarbiyasida asosiy rollardan birini o'ynovchi katta kuch. Zero, inson hayotining bolalik va o'smirlilik, shuningdek, keksalik yillari aynan mahallada o'tadi.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, oqsoqol, tarbiya, bilim, tafakkur, tizim.

В данной статье анализируется понятие соседства, его особенности, а также его значение в воспитании детей. Махалля – это великая сила, играющая одну из главных ролей в жизни человека, его образе жизни, судьбе и, самое главное, в воспитании. Ведь именно в махалле проходят детство, юность и старость.

Ключевые слова: Семья, махалля, старейшина, воспитание, знание, мышление, система.

This article analyzes the concept of a mahalla and its specific features, as well as its important features in the upbringing of children. The mahalla is a great force that plays one of the main roles in a person's life, lifestyle, fate, and most importantly, upbringing. After all, childhood and adolescence, as well as old age, are spent precisely in the neighborhood.

Key words: family, mahalla, elder, upbringing, knowledge, thinking, system.

«Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelayapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas'uliyat degani. Mahallalar – davlatimizning eng katta zaminidir».

Shavkat Mirziyoyev.

Har bir ota-ona o'z farzandini yaxshi, barkamol inson bo'lib yetishishini orzu qiladi. Lekin har bir ota-onaning ham o'z farzandlariga mehr-oqibati va tarbiyaviy munosabati bir xil bo'lavermas ekan. Ayrim ota-onalar bola tarbiyasi xususida juda beparvolik qiladilar. Ular uchun bu dunyodafaqat o'z shaxsiy yumushlari, moddiy mablag' to'plash yo'lidagi bordi-keldilari birinchi o'rindagi



vazifayu, oila a'zolarining axloqiy tarbiyalari bilan shug'ullanish ikkinchi darajali ish ko'rinadi. Shunday oilalarning holidan albatta mahalla doimo o'gohdir.

Har bir davrning o'ziga xos tabiati va sharofati bo'lganidek, fan va texnika jadal taraqqiy etib borayotgan bizning asrimizda ham yoshlar tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham o'sib borishida mahallaning roli beqiyosdir. Yosh avlodning ta'lim va tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish faqat hukumatimizning yoki maktablarning emas, balki har bir mahallaning va ota-onaning ham muqaddas burchlaridan hisoblanadi.

Mahalla – insonni jamiyat bilan birga yashashga o'rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos makondir. Dunyoda noyob, o'xshashi yo'q mahalla tizimi mustaqillik yillarida xalqimizga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi.

Mahallalar qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odatlar va an'analar shakllangan maskan bo'lib kelgan. Odamlarni bir-birovlariga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli qilib tarbiyalashda, tabiatan barchani birdek, qon-qarindoshdek qilib qo'yishda, o'ziga hos jamoani shakllantirishda mahalla juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi kunda mahallalar davlat boshqaruvining birinchi bo'g'inlari, asosiy ustunlari sifatida e'tirof etilayotgani ham bejiz emas.

Mahallada istiqomat qilayotgan har qaysi oila, har bir fuqaroning ma'naviy qiyofasi, shaxsiy fazilatlarini qo'shnilar yaxshi biladi. Ular, aksar hollarda, o'z qo'shnilariga haqqoniy baho beradilar. Kamchiliklari bo'lsa, ko'rsatib, ularni bartaraf qilishga ko'maklashadilar. Binobarin, mahallada yashayotgan har bir inson avvalo qo'shnilar hurmatiga sazovor bo'lishni niyat qilmog'i, yaxshi fazilatlari bilan ularning e'zoziga erishmog'i mantiqiydir. Buning asosiy yo'li esa qo'shnilar bilan ahil yashash, yaxshi xulqu muomala bilan ularning muhabbatini qozonishdan iboratdir.

Ota-onalarning vazifalari faqat farzandlarni dunyoga keltirishdan iborat emas. Ular o'z farzandlarini aqlli, ongli, jismonan sog'lom, jamiyatga, Vatanga foydali insonlar bo'lib yetishishlari uchun qayg'urishlari kerak. Ota-onalar bolaning tabiati, xulq-atvori shu oiladagi sharoitiga qarab shakllanishini yaxshi bilishi kerak.

Farzand barcha ma'naviy boylik, dunyoqarash va ahloq-odobni o'z oilasida o'rganadi. Qush uyasida ko'rganini qiladi, deymiz. Oilasida totuvlik, inoqlik ko'rmay, faqat janjal, to'polonning guvohi bo'lgan, yaxshi tarbiya o'rninga, so'kish, haqorat eshitgan bolalardan ahloqli, odobli inson bo'lishlarini kutish befoйда.



Shuning uchun mahalladagi har bir idrokli kishi yoshlarimizni har xil oqimlar yo'liga berilib ketmasligi uchun befarq bo'lmasligi lozim. Bu kabi zararli odatlardan yoshlarimizni saqlashimiz ularni nima bilan shug'ullanayotganini, kimlar bilan yurgani haqida mahalla, kuni-qi-shni juda katta e'tibor bilan qaramoqlari kerak bo'ladi. Ayniqsa ular bilan qiziqmasa yoshlarga nisbatan beparvo bo'linsa, ko'ngilsiz holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Mahalla, avvalo, sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahalla keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun hamma imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlar kamol topishida mahallaning o'rni beqiyos. Masalan, agar biror mahallada o'sgan qiz haqida boshqa bir odam noo'rinq gap aytganini o'sha qizning mahalladoshi eshitib qolsa, shu qizning sha'ni uchun kurashadi, uni oqlashga, begona odamni esa tartibga chaqirib qo'yishga harakat qiladi. Shu ma'noda mahalla hamjihatlik, ornomus, birodarlik kabi fazilatlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalla doirasidagi amalga oshiriladigan mafkuraviy targ'ibot ishlari an'anaviy bayram va tadbirlar, ayniqsa, muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish, ayollar nufuzini oshirish, har xil adolatsizlikning oldini olish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish, diniy muassasalar, machitlar bilan o'zaro aloqani yaxshilash, hamkorlikda tadbirlar uyushtirish, «oila dorilfununlari»da ota-onalar savodxonligi va turli avlod vakillari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish orqali o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Ko'pincha yigit-qizlarimizning muammolariga, orzu-istaklariga e'tibor bermaymiz. To'g'rirog'i, ularga faqat talab qo'yamizu, qiziqishlari bilan hisoblashmaymiz. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, har qaysi ota-ona, murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Farzand tarbiyasiga ana shu oddiy talabdan kelib chiqib yondashsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu maqsadda yoshlar muammolarini o'rganishga qaratilgan ijtimoiy tadqiqotlar, aniqrog'i, so'rovlar o'tkazishimiz kerak.

Mahallalarda, ta'lim muassasalarida ibratli xonadon vakillari, urush va mehnat faxriylari, yozuvchi va shoirlar ishtirokidagi uchrashuv va davra suhbatlarini muntazam ravishda o'tkazib turish zarur. Bunday tadbirlar qanchalik ko'paysa, ko'zlagan maqsadlarga tezroq yetishimiz mumkin.

Mahallada ta'sir vositalari sifatida tarbiyaviy, ma'naviy, mafkuraviy



ko'rgazmalar, turli ijtimoiy kurslar tashkil etish, oilalarda psixologik xizmatni yo'lga qo'yish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, otalar choyxonasidan yoshlarni tarbiyalash ishida keng foydalanish, matbuot orqali berilayotgan ma'lumotlarning psixolingvistik tahlilini amalga oshirish, ijtimoiy fikrning mahallalar bo'yicha monitoringini olib borishga ahamiyat berish lozim.

Shunda mahalla, birinchi navbatda, fuqarolarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashning haqiqiy ta'sirchan o'chog'iga aylanadi. Ikkiichidan, oilaga psixologik yordam ko'rsatish shaxobchalarining tashkil etilishi ham ijtimoiy uslublar vositasida oilalarda ro'y beradigan turli muammolarning yechimini topish imkonini beradi. Ularning asosiy vazifalaridan biri ota-onalar va farzandlar uchun milliy mafkura ruhidagi tadbirlar va maslahatlar majmuini ishlab chiqishdan iboratdir. Mafkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki, inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e'tiqod, imyon, vijdon, mas'uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radiotelevidenie, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o'rni e'tirof etgan holda, shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz keladigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko'ziga qarab turib aytiladigan bama'ni so'z va hissiyotlarning o'rni beqiyos.

Shuning uchun ham ota-ona bolasining yuzini o'ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko'zidagi samimiyat bilan aytishi lozim bo'lgan fikrni uqtirishi, eng ibratli oila ota-onasi, olimlar, atoqli kishilar bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalarini o'tkazish ham lozim. Albatga, bunday muloqotlar samarali bo'ladi. Shu bois uch avlod vakillari o'rtasidagi muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumotlarning mazmundorligi va ta'sirchanligi, ularning ommabopligi, bildirilgan yoki ifoda etilgan g'oyalarning soddaligi, ixcham va ravon bayon qilinishiga ko'p narsa bog'liq. Tinglovchi har bir so'zni tushunsagina, unda voqelikka teran munosabat shakllanadi. Masalan, mahalladagi «Saranjom-sarishta uy darsxonasi» – bu asosan uy bekalari, qariyalar, ma'lum sabablar bilan nogiron bo'lib, asosiy vaqtini uyda o'tkazadiganlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ko'zda tutadi. Ularni hayotiy videofilmlar, qiziqarli ko'rsatuv va lavhalar o'ziga jalb qiladi. Shundan kelib chiqib, bunday insonlar uchun mafkuraviy axborot tayyorlanganda, ularning soddaligi, samimiyatga o'chligi va insoniy e'tiborga muhtojligini inobatga olib ish ko'rilsa, ta'sirli bo'ladi.

Kundalik hayotimizda, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida ijtimoiy fikrning asosiy barometri, o'lchovi – bu mahallalar. Mahalla ahli har bir oilada ro'y berayotgan hodisalarni biladi, insonlar taqdiriga befarq bo'la olmaydi, faollar orqali ijtimoiy hayotdagi har bir o'zgarish, odamlar ongi va qalbidagi his-tuyg'ular o'rganiladi.



Shu ma'noda, O'zbekiston sharoitida mahallaning haqiqiy demokratiya darsxonasi ekanligi uning ijtimoiy fikrni boshqarish imkoniyatlarida ham o'z tasdig'ini topadi. Har bir insonni hayotga keltiruvchi, uning ko'nglini munavvar etuvchi, faqatgina oilada emas, balki butun jamiyatga ham ahillik, totuvlik, mehroqibat bag'ishlovchi ham – bu ayol zotidir.

Milliy istiqloq g'oyasining amal qilish tamoyillari shaxs va oila bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham O'zbekiston hayotida «shaxs-oila-maktab-mahalla» to'rtligi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila – haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy-tarbiyaviy ishlar omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, oila ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analar orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ishga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari shakllanadi.

Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rni va vazifasini, Vatanining ostonadan boshlanishni tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi. Ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo'lish, duolarini olish bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir. Buyuk bobomiz hazrati Alisher Navoiy aytdanlaridek, ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. «Bu ikkisiga xizmatini birdek qil, xizmatini qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil.

Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoing obod bo'lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan birini Oy deb bil, ikkinchisini Quyosh, ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chizig'idan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatini sen odob bilan bajar». Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlari adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turiladi. Demak, insonning oilada shakllangan iymon-e'tiqodi, odoboriyati va vijdoni, g'urur-iftixori, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada kuchayadi, xalq irodasi, o'zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg'unlashib, jamiyatda sog'lom muloqotlarning shakllanishiga olib keladi.

Ma'rifiy axborot yozma yoki og'zaki tarzda yetkazilishi mumkin. Agar birinchiidan, gazeta-jurnallar, kitob va darsliklar yozma manbalarda mujassamlashtirilgan ma'lumotlar



sifatida mahalla ahli ongiga kirs, ikkinchisiga ma'ruza eshitish, bayon etish munozarasi va suhbatlar o'tkazish kiradi. Bundan tashqari, mafkuraviy g'oyalarni turli badiiy va hujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun multfilmlar orqali ham yetkazish mumkin. Muhimi, ular xalq ma'naviyati, o'lmas merosimiz, kelajakka ishonch uyg'otuvchi ma'nomazmun bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak.

Yoshlar kamoloti, manfaati, yorug'iqboli, baxtu saodati – Yangi O'zbekiston kelajagini barpo etishdek ulug'vor maqsadimizning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Chunki davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yoshlar O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasidir. Zero, e'tibor bor joyda o'sish, o'zgarish bo'ladi. Agar bizda har qancha iqtidor bo'lmasin, u qo'llab-quvvatlanmasin, sayqal topmaydi.

Qisqa qilib aytganda, tarbiyada mahallaning o'rni beqiyos. Zero, yoshlar uchun hayot saboqlari ayni shu mahalladan boshlanadi. Bunda nafaqat ota-ona balki mahalla oqsoqollari kekka ko'pni ko'rgan nuroniylar, mahnat faxriylari o'zlarining yurish-turishi, odamlar bilan muomilasi, qolaversa obro'-e'tibori, pand-nasihatlar bilan namuna bo'lish mumkin va o'zbek mahallasida amalda ham shunday bo'lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: «O'zbekiston», 2017. -B.17-18.
2. Raximov S., Hayitov I., Abdullayev G. (2018). Saboq mahalladan boshlanadi. - Toshkent, - 102 b.
3. Raximov S. (2018). Oila, mahalla va komil inson. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. - Toshkent, B.140-142.
4. Raximov S., Ziyayev F. (2018). Tarbiyada keksalarning o'rni. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa kijodiy o'yin, - 79 b.
5. Raximov S., Hayitov I., Umarov S. (2019). Yoshlarda ma'naviy axloqiy tarbiyani shakllantirishda mahallaning o'rni. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Toshkent, -B.123-124.



TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

M.F.XAKIMOVA,

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori,*

D.I.ABDUKAXXOROVA,

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti talabasi*

Maqolada ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'qitishning samaradorligini oshirishning yutuq hamda afzalliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, elektron, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyatlar, rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, virtual, sifat, talaba, metodik ta'minot.

The article analyzes the achievements and benefits of improving the effectiveness of training in the conditions of digitization of Education.

Key words: education, electronic, knowledge, skills, qualifications, abilities, development, digital technology, virtual, quality, student, methodological support.

В статье проанализированы достижения, а также показаны преимущества повышения эффективности обучения в условиях цифровизации образования.

Ключевые слова: образование, электронное, знание, умение, навык, способность, развитие, цифровые технологии, виртуальное, качество, студент, методическое обеспечение.

Jahonda halqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida «Ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat», – deb e'tirof qilingan. Sifatli ta'lim berish, bilim, ko'nikma va malaka hamda qobiliyatlarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarning hozirgi rivojlanish darajasi ta'lim tizimining innovation jarayonlarga intilishi bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini o'zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida talabalarning mustaqil tayyorgarligini boshqarishni optimallashtirish zarurligini taqozo etadi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanib, o'tiladigan fanlarning metodik ta'minotini takomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, mashg'ulotlarda multimedia, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng ko'lamda va ommaviy foydalanish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Talabalarning



mustaqil ish vaqtini boshqarishning eng samarali shakllaridan biri elektron ta'lim resurslaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan «Aralash o'qitish» tizimini joriy etish va undan foydalanish bo'lishi mumkin.

Talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning yangi pedagogik modellari, ta'limning uzluksizligi, ta'lim sifatini baholash va mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanilmoqda, bugungi kunda raqamli ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb tarkibiy qismiga aylanib, ta'lim resurslariga kirish va boshqarishda, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini boshqarishni tashkil etishda, an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Raqamli ta'lim ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan va ta'lim dasturlarini amalga oshirishda foydalaniladigan va axborot texnologiyalari, texnik vositalar, shuningdek, ushbu axborotni aloqa liniyalari orqali uzatishni ta'minlaydigan axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarini qayta ishlashni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatini tashkil etish, talabalar va o'qituvchi xodimlarning o'zaro munosabatlari tushuniladi.

Aralash o'qitishni joriy etish o'qituvchidan an'anaviy ta'lim shakliga, ya'ni ko'p asrlik ish shakliga (yuzma-yuz sinfxona shakliga) qaraganda, ancha kuch va vaqt talab qiladi. Bunga o'qituvchining o'quv jarayonidagi rolini o'zgartirishga psixologik tayyor emasligi ham aniq to'sqinlik qiladi. Aralash o'qitishni yangilik sifatida joriy etish talaba va o'qituvchilarning faoliyatida bir qator o'zgarishlarga olib keladi. Talaba erkinlik va mas'uliyat muhitini xis qiladi, unda u ongli tanlov qilishni hamda o'z qarorining oqibatlarini uchun javobgar bo'lishni o'rganadi. O'qituvchi o'zi uchun yangi rollarda faoliyat ko'rsata boshlaydi, xususan, ma'lumotlarni yetkazuvchi roldan tarbiyachi roliga o'tadi va o'qituvchining asosiy vazifasi sinf muhiti bilan onlayn muhit o'rtasidagi aralash bo'lgan o'quv muhitini yaratishdan iborat bo'ladi. Aralash o'qitish (ingliz tilida «Blended Learning») elektron ta'lim elementlari bilan yuzma-yuz o'qitishning an'anaviy shakllarining kombinatsiyasi bo'lib, u kompyuter grafikasi, video va audio, interaktiv elementlar va boshqalar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan foydalanadi.

Axborot texnologiyalarining yutug'i, birinchi navbatda, Internet orqali ma'lumot almashish qobiliyati orqali aralash o'qitishni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Imtihonlar uchun savollar, loyiha topshiriqlari namunalari, o'quv materiallari shunchaki platformaga joylashtirilishi yoki e-mail orqali talabalarga yuborilishi mumkin. Shuningdek, aralash o'qitishning rivojlanishiga robototexnikani rivojlantirish uchun so'nggi yillarda olib borilayotgan zamonaviy axborot



texnologiyalari sohasida tadqiqotlar sababchi hisoblanadi.

Aralash o'qitishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1) Ta'lim jarayonining moslashuvchanligi. Bu texnologiyaga istalgan o'qituvchi va talabalarni jalb qilish mumkin. O'qituvchilar hatto boshqa davlatda bo'la turib ham vebinarlar o'tkazishlari mumkin; talaba elektron o'quv manbalariga o'zi uchun qulay bo'lgan vaqtda istalgan joydan kirishi va foydalanishi mumkin.

2) Ta'lim jarayonining shaffofligi. Imtihonlar kompyuterda topshirilishi sababli talaba obyektiv baholanadi. Shuningdek, axborot-kommunikasiya texnologiyalari talabalar va o'qituvchiga muntazam ravishda o'zaro muloqotlarni olib borishga imkon beradi, bu ularning bir-birlarini yaxshiroq tushunishlarini anglatadi.

3) Har bir talabaga shaxsiy yondashuv. O'qituvchilar talabalarning shaxsiy xususiyatlariga qarab o'quv materialining murakkabligi va hajmini belgilashi mumkin. Turli modellarning kombinatsiyasi har bir talabani o'ziga xos yo'nalishda rivojlan-tirishga imkon beradi.

4) Mustaqillikning rivojlanishi. Talaba o'z vaqtini to'g'ri rejalashtirib, samarali foydalanishni va intizomni o'rganadi. Aks holda, bu tizim yordamida muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

5) Motivasiyani oshirish. Kredit modul tizimida talabalar shunchaki o'rganishni emas, balki ta'lim jarayonining interfaol va qiziqarli bo'lishini xohlashadi, shu bilan bir qatorda vebinarlarda ishtirok etib, forumlarda munozaralar o'tkazadilar va turli xil dasturlarni o'zlashtiradilar.

6) Raqamli ta'lim turli imkoniyat va ehtiyojlarga ega bo'lgan talabalar uchun turli xil multimedialar tarkibini taqdim etadi. Onlayn va offlayn elementlarning kombinatsiyasi ta'limni samarali, tejamkor va qulay qiladi va o'quv jarayonida barcha manfaatdor tomonlar uchun interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va moslashuvchan bo'ladi.

Ta'limning aralash shakli doirasida kunduzgi va masofaviy ta'limdan foydalanish, bu ko'plab omillarga bog'liq. Bular: mashg'ulot olib boriladigan predmet sohasi; talabalarning yoshi; ularning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi; mashg'ulot uchun foydalanish mumkin bo'lgan infratuzilma; pedagog xodimlar-ning malakasi va boshqalar. Agar an'anaviy ta'limni amalga oshirish shakllari asrlar davomida tashkil etilgan va sinovdan o'tgan bo'lsa, aralash o'qitishning amaliyotga joriy qilinganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samarador-ligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Raqamli ta'lim vositalari – o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni



beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir. Elektron ta'lim tizimlari uchun dasturiy ta'minot oddiy statik gipermatnli HTML-sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin va yanada murakkab ta'lim boshqaruv tizimlari (ingliz tilidagi adabiyotlarda LMS-Learning Management System deb ataladi) va ta'lim mazmunini boshqarish (LCMS-Learning Content Management System) yordamida korporativ kompyuter tarmoqlarida qo'llaniladi. Lokal elektron ta'lim texnologiyalarining eng yirik tasnifi to'rtta variant bilan belgilanadi, ya'ni: kontentni boshqarish tizimlari; ma'lumotlar bazasi; turli ma'lumotlar kataloglarini yaratish va ularni manipulyatsiya qilish imkonini beradi.

Taqdim etilgan elektron ta'lim resurslarini ekspert baholash o'qituvchilarning talabalar bilan elektron ta'lim resurslari yordamida o'qitish talaba mustaqil ishining asosiy xususiyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlashi kerak:

1. Psixologik shart-sharoitlar: jamiyatni axborotlashtirish darajasiga mos keluvchi zamonaviy innovasion usullar yordamida o'qitish; vev-resurslar bilan masofadan turib ishlashning talaba uchun darsdan tashqari muhiti qulay; nuqta-reyting tizimi yordamida o'qituvchi tomonidan talaba bilimni baholashning subyektiv omilini bartaraf etish; mantiqiy fikrlashni shakllantirish va turli tahliliy qobiliyatlardan foydalanish; zamonaviy axborot makoniga moslashish; vaqt budjetini mustaqil rejalashtirish.

2. Individuallashtirish: ta'limning individual ta'lim traektoriyalaridan foydalanish; mashqlar, testlar va vazifalarni majburiy va o'zgaruvchan qismlarga bo'lish; individual ishlarning tuzilishi va tematik mazmuni, muddatlari, vositalari, shakllari va bilim nazorat usullari va o'quv natijalarini yakuniy baholash va bashorat qilingan dastlabki natijalar bilan taqqoslash zarurligi haqida talabalarga har tomonlama qulay va o'z vaqtida xabar berish.

3. «O'z-o'ziga ta'lim» va «talabalar mustaqil ta'limi» tushunchalarini farqlash: shaxsning o'z-o'ziga ta'limi (o'z ixtiyori va shaxsiy faoliyatida yuzaga kelgan o'quv material) va talabalarining mustaqil ta'limi tizimli nazorat qilinadi.

Aynan oliy ta'lim muassasasi ma'muriy-boshqaruv xodimlari tomonidan, axborot ta'lim tizimi portalining statistik ma'lumotlarini tahlil qilish orqali talabalarining mustaqil ishlarini uzluksiz kuzatib borishni nazarda tutadi. Yuqori sifatli raqamli va elektron ta'lim resurslarining mavjudligi zarur, bu talabalarni aralash o'qitish tizimi faoliyatining yagona tarkibiy qismidir. Raqamli elektron ta'lim elementlaridan foydalanish samaradorligini baholashning muhim omili elektron ta'lim resurslaridan erkin foydalanishni to'g'ri tashkil etish va zarur vazifalar ro'yxati mustaqilligini nazorat qilish tobora kengayib bormoqda. Uydagi masofaviy vazifalarni bajarish



mustaqilligini ta'minlash va test natijalariga uchinchi shaxslarning ta'sirini istisno qilish maqsadida talabalarning elektron manzillarini elektron ta'lim muhitida qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, hozirgi vaqtda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash uchun zamonaviy talab biroz boshqacha bo'lib qoldi. Shuning uchun u, avvalo, tayyor dasturlardan foydalanishni o'rganishi va ularni yangitdan ishlab chiqmasligi kerak. Standart dasturlarni qo'llash va ulardan optimal yechimni olish uchun foydalanish qobiliyatini shakllantirish asosiy vazifa bo'lmoqda. Belgilangan maqsadlarga erishish uchun o'qitish amaliy muammolarni tahlil qilishga asoslangan bo'lishi kerak. Faqat aniq misollar orqali talabalarga buni qo'yishni o'rgatish mumkin, interfaol usullarni qo'llash uchun modelni yaratish va olingan yechimlarning turli jihatlarini tahlil qilish lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'rib chiqilayotgan muammolarning aksariyati kompyuterdan foydalanmasdan hal etilmaydi.

Adabiyotlar:

1. Aliyeva N.M. va boshq. Blended learning – ta'lim tizimida zamonaviy yondashuv // Science and education. February 2021.

2. Бабанская О.М. и др. Системный подход к организации электронного обучения в классическом университете // Открытое образование. - М.: РЕУ, 2015. - № 2 (109). - С. 63-69.

3. Рахимов Х.А. Олий таълим тизимида электрон таълим муҳитининг афзалликлари // Замонавий таълим. - Т., 2021. - 2-сон.

4. Malalla J.N. (2004). Psycho-Socio dynamics of E-Learning: Investigating student.s Perception of efficacy in asynchronous computer generated learning, university of Bradford UK.

5. Шарипов К.А., Хакимова М.Ф. Сифатли иқтисодчи кадрларни тайёрлаш жараёнларида инновацион таълим ва рақамли технологияларнинг қўлланилиши // Iqtisodiyot va innovatsion texnolo-giyalar. - Т., 2021. - Махсус сон. - Б. 8-16.

6. Хакимова М. Инновационная деятельность высшей образовательной организации в условиях цифровизации образования // Просвещение и познание - М., 2021. - № 7. - С. 20-25.



UZLUKSIZ TA'LIM SHAROITIDA BOSHQARUV ILMINI O'RGANISH – DAVR TALABI

R.MUSURMONOV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
«Umumiy pedagogika» kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi*

Maqolada rahbar kadrlarga nisbatan boshqaruv sohasining nozik va murakkab jihatlari, ularga qo'yilgan malakali talablar; boshqaruv faoliyatining mohiyati va xususiyatlari, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: *boshqaruv sohasi, boshqaruvchi – menejer; boshqaruvning mohiyati, vakolatlilik, insonparvarlik, inovatsiyalik, pragmatika va ortobiologiya, qadriyatlar, tizimli yondashish, insonshunoslik texnologiyasi.*

The article discusses the subtle and complex aspects of the field of management, qualification requirements for them, the nature and characteristics of management activities, objective and subjective conditions in relation to management personnel.

Key words: *sphere of management, manager-manager, nature of management, authority, humanism, innovation, pragmatics and orthobiotics, values, systems approach, humanistic technologies.*

В статье рассматриваются тонкие и сложные аспекты сферы менеджмента, квалификационные требования к ним, характер и особенности управленческой деятельности, объективные и субъективные условия по отношению к руководящему персоналу.

Ключевые слова: *сфера менеджмента, менеджер-менеджер, природа управления, авторитет, гуманизм, инновации, прагматика и ортобиотика, ценности, системный подход, гуманистические технологии.*

Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitidan kelib chiqib, ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv ilmini mukammal o'zlashtirgan bo'lishlari zarur. Ana shu talab va zaruriy ehtiyojdan kelib chiqib ushbu maqolada boshqaruvning nozik va murakkab jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlariga tayanib fikr yuritimiz.

Olimlarning e'tirof etishlarichab boshqaruv faoliyati o'z mohiyati va xususiyati bo'yicha jamiyat hayotida aqliy tartibga solish ahamiyatiga ega. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining ilgama bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Boshqaruvning mohiyati obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni shunday nisbatda



uyg'unlashtirishni ta'minlashdan iboratdir, bu mo'ljallagan maqsadga erishish imkonini beradi. Yaxshi rahbar odamlarga kamroq buyruq beradi, buning o'rniga ularning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan samarali sharoit yaratadi. Boshqaruv, bu hamisha hukmronlik, har qanday tashkilotning samarali faoliyat ko'rsatishi, uni to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Lavozim vakolatidan qat'iy nazar boshqaruv xulqining umumiy tamoyillari – vakolatlilik, insonparvarlik, innovatsiyalik, pragmatika va ortobiotiklik mavjud. Boshqaruv uslubiga kelsak, u avtokratik, byurokratik, demokratik va aristokratik bo'lishi mumkin. Menejerning insonshunoslik vakolati uning boshqaruv faoliyatida antropologik bilimlardan foydalanishdagi nazariy-amaliy tayyorgarligiga bog'liq. Bu vakolatlilik insonshunoslik ma'lumoti va menejerning insonshunoslik texnologiyasi bilan tavsiflanadi.

Boshqaruv inson miyasiga taqqoslanadi, bunda shaxsning yaratuvchilik imkoniyatlari mujassamlangan, undan uning ijodiy qobiliyatni namoyon etishligiga ko'rsatma beriladi. Boshqaruv faoliyatining mohiyati to'g'risida g'oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bir tomondan, fan boshqaruv faoliyatini konseptual boyitishdan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o'z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar. Bunday ilmiy yondashish ehtiyojini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin [1].

Birinchidan, boshqaruvning nodir xususiyati: yo'qdan muayyan nimanidir yaratish, tarqoq unsurlardan tizim tuzish, bunda kelishuv va tartibga solish unga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi.

Ikkinchidan, tahlil etish holatida bo'lgan yoki u javobgar hisoblangan qadriyatlar ko'lamining jadal oshishi.

Uchinchidan, insonlar kuch-g'ayratiga asoslangan boshqaruvning yaratuvchilik samarasi rahbariyatdan har tomonlama ma'lumotlilik, o'z kasbining ustasi bo'lishlik va tizimli yondashishni talab qiladi. Boshqaruv faoliyati o'z mohiyati va xususiyati bo'yicha jamiyat hayotida aqliy tartibga solish ahamiyatiga ega.

Rahbar – menejer, u odamlar bilan ishlaydi, ularning kasbiy yutuqlari va xavfsizligi uchun javob beradi, vazifalarni bajarish uchun ular kuch-g'ayratini uyushtiradi va uyg'unlashtirishni amalga oshiradi. Ma'muriy rahbarlar boshqaruv bo'yicha kuch-g'ayratining uchdan ikki qismini o'z xodimlari orqali amalga oshiradi,



ya'ni ularning qadr-qiymati, maqsadni ko'zlash, xodimlarni ishga jalb eta bilish, jamoadagi o'zaro munosabatni belgilay bilish iqtidori bilan o'lchanadi. Boshqaruv, bu hamisha hukmronlik, insonlar ustidan amr etishlik imkoni, lekin hokimlik oqilona va adolatli bo'lishi lozim.

Tajribasiz va no'noq rahbar uchun hukmronlikka ega bo'lish odamlarga buyruq qilish (ko'pincha «qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarish») imkonidir, tajribali va qobiliyatli rahbar uchun esa, bu – o'z iqtidorini namoyish etish, ijtimoiy foydali jihatlarini ko'rsatish imkoniyati. Yuqori malakali menejerlarning mavjudligi jamoa ishi samaradorligining hal qiluvchi shartidir. Har kaday tashkilotning me'yorda faoliyat ko'rsatishi boshqaruv tizimidagi hokimiyatni to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Tashkilot uchun hokimiyatni mutlaqlashtirish va hokimiyat vakolati uning menejerida yetarli bo'lmasligi salbiy hol hisoblanadi. Har bir rahbarning hokimlik imkoniyati uning lavozim vakolatiga ko'ra belgilanadi, bu ular xizmat vazifasini bajarish uchun zarur omildir. Oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish, uyg'unlashtirish, nazorat qilish, rag'batlantirish, o'qitish, ijtimoiy aqlni tuzish rahbarning asosiy vazifasi hisoblanadi [3]. Eng yuqori hokimlik imkoniyatiga «birinchi shaxslar» – tuzilmaga boshchilik qiluvchilar (OTM rektori, kasb-hunar markazlari va akademik litseylar, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari direktorlari va b.q.lar) egadir. Ular tashkilot hayotiy faoliyati Istiqbol dasturini belgilab beradi, kadrlar siyosatini amalga oshiradi. Quyi darajadagi rahbar («ikkinchi» va «uchinchi» darajali) lar birinchi shaxs ularga bergan vakolat doirasida ish yuritadi.

Boshqaruv tizimidagi tartibga tushirilgan muammolar istalgan tuzilmaning me'yorida faoliyat ko'rsatishiniig muhim sharti hisoblanadi. Turli rahbarlar lavozim vakolati katta-kichikligiga qaramay ular uchun quyidagi tamoyillarga ko'ra boshqaruv sohasining umumiy negiziga xosdir[3]:

– vakolatlilik – lavozim vakolatini talab darajasida bajarish uchun zarur bilim, tajriba va malakaga ega bo'lish; – insonparvarlik - xizmat sohasidagi insonlarni hurmat qilish va ezgu maqsad yo'lida axloqiy xislat, xodimlarlardagi eng yaxshi shaxsiy qobiliyat va ishga mobillik sifatlarini ochishga intilish; – innovatsiyaviylik – davr bilan hamnafaslik, yangilikni izlash, unga intilish ishtiyoqi, asosli tavakkal qila bilish qobiliyati; – pragmatika – natijalarga ko'ra ishlashda o'zgartirishlar kiritib borish, ish vaqtdan samarali foydalanish, faol investitsiya faoliyati; – ortobiotiklik – o'z hayotini qadrlay bilishini anglash, kelajakka bo'lgan barqaror ishonch, xodimlarga va atrof-muhitga nisbatan g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish.

Ma'muriy rahbar («birinchi shaxs») muvaffaqiyati ko'p jihatdan u o'z



hokimiyatini boshqa quyi rahbarlar bilan qanchalik oqilona bo'lisha olishligiga va o'ziga bo'ysunuvchilarning ishbilarmonlik xususiyatlaridan qanchalik keng va mohirlik bilan foydalana olishiga bog'liq. Olimlarning e'tirof etishicha ma'muriy rahbar xatti-harakatining to'rt uslubini shartli ravishda farqlash mumkinligi ko'rsatiladi:

– avtokratik: rahbar – bajaruvchi; – byurokratik: – boshqaruv «nomenklatura g'ildiragi» – bajaruvchi; – demokratik: rahbar – boshqaruv «ijtimoiy g'ildiragi» – bajaruvchi; – aristokratik: rahbar – mehnatni rag'batlantirish tizimi – bajaruvchi. Yuqoridagi uslublarning shartlilikiga qaramay, ular amaliyotda ma'muriy rahbar xizmat xatti-harakatida barqarorlik tarzi sifatida mavjuddir. U yoki bu uslubni mutlaqlashtirish maqsadga muvofiq emas. Ularni muayyan vaziyatlarga bog'liq holda boshqaruv faoliyatida oqilona qo'shib olib borish muhim. Istarasi issiq, ochiq ko'ngillilik, oqillik, adolatlilik va irodalilik kabi tizim tashkil etuvchi biologik sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Menejer jismonan barkamol bo'lishi kerak: «sog'lom tanda – sog'lom aql» deb bejiz aytilmagan. Ochiq ko'ngillilikni menejer achinish va hamdardlik bildirish kabi xislatlarda namoyon eta bilishligi, go'yoki bir oilaning a'zosi sifatida tasavvur etishi, vijdon amriga quloq solishi kerak. Menejer fikrlaydigan o'z aqliy qobiliyati nimalarga qodirligini bilishi va idroklay olishi lozim. Menejerda albatta mustahkam iroda bo'lishi shart, chunki boshqaruv, bu hamisha hokimlikdir.

Menejerning madaniyatlilik darajasi – inson tafakkuri va badiiy ijodiyoti eng yaxshi natijalari darajasida bo'lishlik xususidagi doimiy ehtiyoj, bu uning etika, estetika, siyosatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya bo'yicha bilimlaridan iborat bo'ladi. Boshqaruv faoliyatiga antropologik yondashish menejer keng kultrologik tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligiga olib keladi.

Menejerning insoniylik jihati – boshqaruv faoliyatida tizimlashtirilgan va moslashtirilgan antropologiya bilimlardan foydalana olishdagi nazariy-amaliy tayyorgarligiga bog'liq [1].

Antropologik bilimlar menejerga o'z kasb vazifasini bajarish jarayonida odamlar bilan muloqotda bo'lish va birgalikda harakat qilish, shaxsiy ishbilarmonlik sifatlarini namoyon eta bilish va eng yaxshi kasbiy natijalarga erishish uchun zarurdir. Bular ayniqsa, ta'lim, servis, tibbiyot, savdo va tadbirkorlik kabi faoliyat sohalarida katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida va biznes bilan bog'liq barcha biznes-maktablarda ixtisoslashtirilgan insonshunoslik fanlari o'qitiladi: sanoat psixologiyasi, ishlab chiqarish sotsiologiyasi, tadbirkorlik odobi, ish bilarmonlik iqtidori va boshqalar.



Menejrlarni insonshunoslik bo'yicha tayyorlashda Yevropa Ma'muriy boshqaruv instituti (Fransiya) da, Boshqaruv xalqaro instituti (Shveysariya) va Barselona oliy boshqaruv ta'limi institutida qiziqarli xalqaro tajriba to'plangan. Menejrlar tayyorlash bo'yicha Tokiodagi markaz jahonga ma'lum [1], ishda ikki qismdan: insonshunoslik ta'limi va insonshunoslik texnologiyaviyligidan iborat insonshunoslik vakolati konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Menejarning insonshunoslik ma'lumoti, bu – antropologik bilimlar tizimi bo'lib, uning mentaliteti faoliyatining so'zlar yordamida obraz yaratish negizi hisoblanadi. Quyidagilar mana shu negizga taalluqli:

– boshqaruv psixologiyasi; – boshqaruv pedagogikasi; – boshqaruv odobi;
– boshqaruv sotsiologiyasi; – boshqaruv konfliktologiyasi; – boshqaruv ritorikasi; – boshqaruv ortobiotikasi; – boshqaruv imidjiologiyasi.

Menejarning insonshunoslik texnologiyaviyligi, bu – uquvlar majmui, shu tufayli antropologik bilimlar uning amaliy xatti-harakatlari (axborot to'plash, boshqaruv qarorlari qabul qilish, futurologik loyihalash, ishbilarmonlik salohiyati va hk.lar) da amalga oshiriladi. Insonshunoslik texnologiyalaridan to'g'ri foydalana bilishlik malakasi menejerga antropologik bilimlarni tadbqiq etish muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Quyidagilar mazkur texnologiyalarga taalluqli:

– maqsadni mo'ljallash texnologiyasi; – etik taalluqlash texnologiyasi; – o'z-o'zini faol bag'ishlash texnologiyasi; – o'zini abadiylashtirish va b. texnologiyasi.

Yaxshi strategiya va strategiyani a– lo darajada amalga oshirish – yaxshi boshqaruvning eng ishonchli belgisi. Boshqaruv strategiyasi beshta bir-biriga bog'liq masalani hal etishga asoslanadi [2]:

1. Tashkilot bajarishi lozim bo'lgan strategiyani ko'ra bilishni, harakat uzoq muddatli yo'nalishini va aniq vazifani shakllantirish.

2. Strategiyani ko'ra bilish va zimmadagi vazifani aniq, maqsad va topshiriqqa aylantirish.

3. Maqsadlar va vazifalarga erishish strategiyasini ishlab chiqish.

4. Qabul qilingan strategiyani malakali hamda samarali tadbqiq etish va amalga oshirish.

5. Ish natijalarini baholash, yangi yo'nalishlarni o'rganish va rivojlanishning uzoq muddatli yo'nalishi, strategiya maqsadlari yoki amaldagi tajribaga asosan uni amalga oshirish usullari, o'zgaruvchan sharoitlar, yangi tavsiyalar va imkoniyatlarga nisbatan korreksion xatti-harakatlarni amalga oshirish.



Bunda 5- vazifadan agar zarur bo'lsa qabul qilingan qarorlarni qayta ko'rib chiqish yoki takomillashtirish uchun oldingilariga qaytish ko'zda tutilgan. Tashkilotning strategiyasiga ko'ra bilishi va zimmasidagi vazifasini shakllantirish. Bu vazifani bajarishda tashkilotlarning rahbarlari quyidagi savolga javob berishi lozim: biz nima qilmoqchimiz va nimaga erishamiz? Zimmadagi vazifa bayon qilinganda tashkilot faoliyatining tavsifi aniqlashadi va u mijozlar uchun nima qilishi kerakligi belgilanadi. O'z xodimlarida «maqsad tuyg'usi»ni yuzaga keltirish uchun, rahbar ularni tashkilotning strategik mo'ljali va zimmadagi vazifa to'g'risida xabardor qilishi lozim. Yaxshi o'ylangan strategik mo'ljali tashkilotni istiqbolga tayyorlaydi, rivojlanishning uzoq muddatli yo'nalishini belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tan J., Psacharopoulos P. Financing education in developin. Gesetz uber die Schulen im Land Brandenburg, 1999.
2. Л. В. Перегудов, М. Х. Саидов Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. Тошкент «Молия», 2002. 184 б.
3. Гулямитдинов С. З., Перегудов Л. В. Научно-методические основы обеспечения качества и конкурентоспособности кадров. - Таълим муаммолари, Жур. Т. 1998, №3.
4. Musurmonov R., Musurmonova M. TA'LIM MUASSASALARINI ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIGA QO'YILGAN TALABLAR. Муғаллим ҳем узликсиз билимландириў ж. Некис 5/3-сан 2023.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA ILMY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

B.X. RAXIMOV,

*Guliston davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotchilik faoliyati psixologik muammo sifatida ilmiy nazari jihatdan taxlil etilgan hamda tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish komponentlari va uni amalga oshirish algoritmi tuzilmasida komponentlar rivojlanishining turli xil darajalari mazmuni bayon etilgan.

Kaliti soʻzlar: *Tadqiqot, tadqiqotchilik, ilmiy tadqiqot, ilmiy tadqiqotchilik faoliyati, hissiy idrok etish, abstrakt tafakkur, psixologik muammo.*

В данной статье научно проанализирована научно-исследовательская деятельность как психологическая проблема, а также раскрыто содержание различных уровней развития компонентов в структуре компонентов и алгоритма осуществления исследовательской деятельности.

Ключевые слова: *исследование, исследовательская деятельность, научное исследование, научно-исследовательская деятельность, эмоциональное восприятие, абстрактное мышление, психологическая проблема.*

This article scientifically analyzes research activity as a psychological problem, and also reveals the content of various levels of development of components in the structure of components and the algorithm of research activities.

Key words: *research, research activity, scientific research, scientific research activity, emotional perception, abstract thinking, psychological problem.*

Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish – umumiy o'rta, oliy, oliy o'quv yurtidan keyingi va qo'shimcha kasb-hunar ta'limi tizimlaridagi jarayonlarning uzluksizligini nazarda tutuvchi innovatsion ta'lim faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Uning samaradorligi shundaki, raqobatbardosh o'quvchi yoki mutaxassis ta'lim turlari bo'yicha bosqichma-bosqich tayyorlanadi. Uzluksiz ta'lim «butun umr davomida o'qitish» deb ataladigan tuzilmaning tarkibiy qismi sifatida qaralishi va innovatsion ta'lim faoliyatining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. [8].

Ta'lim sifatini ta'minlashda pedagogning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim sifatini baholash mezonlaridan biri o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash bo'lib, u ishchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalari, xalqaro va respublika olimpiadalarida, nufuzli tanlovlarda talabalarining sovrinli o'rinlarga erishishi, bitiruvchilarni o'qishni tugatgandan keyin olti oy mobaynida tuda joylashtirish asosida baholanadi.



Kasb-hunar o'quv yurtlarining ilmiy salohiyati bugungi kunda professor-o'qituvchilar tarkibining chop etilgan ilmiy ishlaridan iqtibos keltirish darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi; jurnallar, to'plamlar, konferensiya materiallarida chop etilgan maqolalar; intellektual mulk obyektlariga olingan sertifikatlar, patentlar; himoyalangan doktorlik dissertatsiyalari; ilmiy-tadqiqot ishlari uchun boshqa barcha manbalar bo'yicha tushgan mablag'lar bo'yicha. Har bir mamlakatda ta'lim sifatini baholashning bunday keng doirasi zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda salmoqli natijalarga erishish imkonini bermoqda. [7].

«Ilm-fan va ta'lim – er yuzidagi eng muhim ne'matlardan biri. Aks holda, bu mutlaqo befoyda», – deb yozgan R.Kipling, demak, ta'lim sifati har bir mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xalqaro integratsiya dasturlari doirasida ta'lim sifatini nazorat qilish sohasida tajriba almashishga tobora e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli ta'lim sifatini boshqarishning mahalliy va xorijiy amaliyotini uyg'unlashtirishga ahamiyat tobora ortib bormoqda [5].

Xorijiy ta'lim sifatini boshqarish tizimlarining ijobiy tashkiliy va mazmunli jihatlari aniqlash baholash jarayonida foydalanilayotgan tartib-taomillarning ahamiyati, baholash tartib-taomillarini o'tkazish asosida ta'lim sifatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlashning aniq usullari, ushbu usullarning ishonchligi va ishonchligini tushunish imkonini berdi.

Turli mamlakatlar ta'lim sifatini boshqarish organlarini loganizatsiya qilish yondashuvlari bilan sezilarli darajada farq qiladi. AQSh Konstitutsiyasida mamlakatda ta'lim sifati uchun hukumat javobgarligi nazarda tutilmagan. Tarixan bu masala uchun shtat ma'muriyati, mahalliy hokimiyat organlari, diniy jamoalar va xususiy shaxslar mas'ul.

Buyuk Britaniyada ta'lim sohasidagi nazorat funksiyalarini davlat boshqaruvi Qirolik inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi va qat'iy markazlashtirilgan hisoblanadi. Bu qiyosiy baholash tadbirlarini o'tkazish va ta'lim muassasalariga beriladigan reytingga qarab, ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirishni tartibga solish imkonini beradi. [5].

Ta'lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimi sifatni boshqarishning zamonaviy tamoyillarini joriy etishdir.

Ta'lim muassasalarining sifat tizimi barpo etilishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillar sifatni boshqarishning asosiy tamoyillariga mos keladi. Chunki kasbiy



yo‘nalishni shakllantirish va bilish faolligini rivojlantirish ta‘lim sifatini boshqarish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, butun o‘quv-tarbiya jarayonining yagona yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik faoliyat aniq maqsad bilan insonning eng yuqori bilim faolligini (kompleks o‘zlashtirish, qayta ishlash, bilimlarni qo‘llash va uzatish) nazarda tutadi: o‘sib kelayotgan avlodni

Ilmiy-tadqiqot jarayonida hissiy idrok etish, abstrakt tafakkur, amalda sinab ko‘rish o‘z ifodasini topadi. Ilmiy-tadqiqot jarayoni yaxlit tizimga ega bo‘lib, uzluksiz ta‘lim jarayonida shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Mazkur faoliyat izchil, tizimli va uzluksiz amalga oshirilib, dastlabki bosqich maktab davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot olib borish bo‘yicha boshlang‘ich tushunchalar shakllanadi. Keyingi bosqichlarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. Tizimning yuqori bosqichlari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning amaliy tatbiqini ifodalaydi.

Tadqiqotchilik faoliyati – bu atrof – olamga maxsuslashtirilgan faol munosabatning maxsus shakli bo‘lib, uning mazmunini atrof-olamni maqsadga muvofiq o‘zgartirish va insonlarning qiziqishiga mos holda almashtirish tashkil etadi. Faoliyatni dastlabki tushunish sifatida A.N. Leontev tomonidan ishlab chiqilgan kontseptual modelni qabul qilamiz. Unga ko‘ra, faoliyat – bu faollik shakli. Faollik ehtiyojdan, ya‘ni individning muayyan sharoitlarda normal ishlashi uchun zarur bo‘lgan holatda uyg‘onadi. A.N. Leontev inson faoliyati tuzilmasida quyidagi tashkil etuvchilarni ajratib ko‘rsatgan: ehtiyoj, motiv, maqsad, maqsadga erishish shart-sharoitlari, harakatlar, operatsiyalar. Bu oltita komponent quyidagi uchliklarni tashkil etadi [7]:

- 1) ehtiyoj – motivlar – maqsadlar;
- 2) harakatlar – operatsiyalar – shart – sharoitlar;

I.A. Zimnyaya tadqiqotchilik faoliyatini faoliyatning o‘zi jarayon sifatida ishtirok etadigan, faoliyat subyektlari faol bo‘lgan axborot makonining keng kontekstida qarab chiqqan. U tadqiqotchilik faoliyati haqida fikr yuritib, o‘zaro ta‘sir jarayoni ko‘rinishida quyidagilarni nazarda tutgan: subyektlarning real olam obyektlari yoki boshqa subyektlari bilan ishlashining faolligi; tadqiqotchilik faoliyatida subyekt faolligi shakli, uning barcha rivojlanish darajalarida (bilish, ongllilik, intellektual, xulqiy, ijtimoiy) namoyon bo‘ladi [2, 3].

Ilmiy-tadqiqot – bu yangi ilmiy bilimlar ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyatning ko‘rinishi bo‘lib, u obyektivlik, qayta ishlab chiquvchanlik, aniqlik, isbotlilik bilan xarakterlanadi. Uning ikkita o‘zaro bog‘liq darajasi farqlanadi: empirik



va nazariy. Birinchisida fanning yangi dalillari aniqlanadi va ularni umumlashtirish asosida empirik qonuniyatlar shakllantiriladi. Ikkinchi darajada ilgari kashf qilingan dalillarni tushuntirishga imkon beruvchi qaralayotgan predmet sohasi uchun umumiy va empirik qonuniyatlar ilgari suriladi va shakllantiriladi.

Tadqiqotchilik faoliyati – bu inson, jamiyat, atrof-muhitning tuzilishi, faoliyat ko‘rsatish va rivojlanishini asosiy qonuniyatlari haqida yangi bilimlarni olishga qaratilgan va ularni amaliy maqsadga erishish uchun qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat. Shunga muvofiq, ilmiy – tadqiqotchilik faoliyati tarkibida, mustaqil sifatga ega bo‘lgan, fundamental ilmiy izlanishlar (nazariy va tajribaviy) va amaliy ilmiy tadqiqotlarni ajaratish mumkin. Birinchisi uchun turtki beruvchi motiv bo‘lib, birinchi navbatda insonning yangilikni bilishga intilishi ishtirok etadi, ikkinchisi uchun esa asosiy stimuly (rag‘bat) va initsiativa (tashabbus) kuchi aniq amaliy masalani echish ehtiyoji bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy psixologiyada shaxsning turli xil sohadagi faoliyatga tayyor turishni shakllantirish muammosi bo‘yicha nazariy va amaliy ishlarning juda keng majmui to‘plangan, ammo bu masalani hal etishga yagona yondashuv yo‘q. Psixologlar faoliyatga tayyor bo‘lishini shaxsiy va faoliyatli yondoshuv nuqtai nazardan qarab chiqqan.

Shaxsiy yondashuvga ko‘ra (V.A.Krutetskiy [6] va boshqalar) tayyorgarlikning yuqori natijalarini olishga imkon beruvchi faoliyatni samarali bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning individual sifatleri va ular yaxlitligining namoyon bo‘lishi sifatida qarab chiqiladi.

Faoliyatli yondashuvga ko‘ra (E.P. Ilin [4] va boshqalar) tayyorlikni shaxsning aniq bir psixik holati sifatida qarab chiqiladi hamda qisqa va uzoq muddatli tayyorlikka ajratiladi, ya‘ni u vaqt holatida o‘rganiladi.

«Tayyorlik» masalasiga oid ishlarni tahlil qilish bizga quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

– muammolar tayyor bo‘lishni shaxsning turli xil xususiyatlar va munosabatlari mazmuniga ajratishgan: faoliyatga tayyor turish faqat unga qobiliyatning namoyon bo‘lishi sifatidagina emas, balki shaxsning barcha xususiyatlari sifatida, faoliyatni bajarishga psixik o‘zini tayyorlash sifatida qaraladi;

– tayyorlik individning faoliyatida namoyon bo‘ladi;


– tayyorlikning tuzilmasida bilishga oid (intellektual), shaxsiy (hissiy, irodaviy, motivatsion), faoliyatli (operatsion) komponentlar ajratiladi, tayyorlikning aynan tuzilmaviy tashkil etuvchilarini ajratishda ziddiyatlar aniqlanmagan.



Tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish komponentlari va uni amalga oshirish algoritmi tuzilmasida komponentlar rivojlanishining turli xil darajalarida bo'lishi mumkin. Ammo tizimning qismlari sifatida yaxlit funksional tizimni ifodalab, o'zaro ta'sirlashuv va o'zaro bog'liqlikning murakkab munosabatlarida bo'ladilar.

Shunday qilib, shaxsning tadqiqotlik faoliyatiga motivatsiyasi masalalari tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarida qarab chiqildi: Ammo xissiy-qadriyatli tashkil etuvchini taminlash, bilim oluvchining turg'un motivatsiyasining shakllanishi, shu bilan bir vaqtda, estetik va etik meyorlarini xisobga olgan xolda bilim olish jarayonida o'zini namoyon qilish uchun tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlikni shakllantirish motivatsiyasiga, tadqiqotchilik faoliyatida qadriyatga yo'naltirilgan tizimni rivojlantirishga etarlicha etibor berilmagan.

Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlanganligini quyidagi tizim ko'rinishida taqdim etish maqsadga muvofiq va unda ilmiy-tadqiqotchilik nuqtai nazaridan uchta jihatini ajratish mumkin (1-rasm).



1-rasm. OTM talabalarning tadqiqotchilik faoliyatiga psixologik tayyorlash mazmuni

Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorligini shakllantirishga maqsadli o'zaro ta'sirlashuv jarayonida va talaba shaxsiga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ta'sir ko'rsatish orqali erishiladi:

- tadqiqotchilik faoliyati motivlarini faollashtirishni;
- tadqiqotchilik faoliyati sharoitlari va mazmuni haqida talabalarda bilim va tasavvurlar tizimini shakllantirish;
- tadqiqotchilik faoliyatining zaruriy ko'nikmalarini o'quv jarayoniga kiritish orqali shakllantirish.



Shunday qilib, o'tkazilgan tahlillar tadqiqotchilik faoliyatining quyidagi xususiyatlarini ajratish imkonini berdi:

– maqsadga yo'nalganlik, ya'ni qo'yilgan maqsadga erishish va aniq shakllantirilgan masalani echishga yo'naltirilgan jarayon;

– yangilikni izlash – noma'lum metodni kashf qilish, original g'oyalarni ilgari surish va asoslash, ularni amalga oshirish yo'llarini izlash, avvaldan ma'lum hodisa va voqealarni yangicha yoritish;

– tizimlilik – tadqiqot masalasi va jarayoni hamda natijalarini tizimga keltirish;

– xulosalar va umumlashtirishlarning qat'iy holisligi, isbotlilik, asoslanganligi.

Bizning fikrimizcha, bu ko'p rejali izlanishlar natijalarini kasbiy-pedagogik sohaga tadbiq etish mumkin va bizga bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan tadqiqotchilik ko'nikmalarini mohiyati va o'ziga xosligini sinchiklab ko'rib chiqish, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi tadqiqotchilik faoliyatining o'ziga xosligini, kasbiy ta'limni rivojlanishi tendentsiyasi (yo'nalishi)ni hisobga olib, uni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoni va modelini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Звонников В.И., Чельшкова М.Б. Зарубежный опыт создания систем оценки качества образования: Материалы межрегионального совещания. - Москва, 2007. -275с.

2. Зимняя И.А. Исследовательская работа как специфический вид человеческой деятельности. - Ижевск, 2001. - 103 с.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. -М.:ИТсПКПС.

4. Илин Э.П. Мотивациями мотивы - Питер: СПб., 2003. -512 с.

5. Ковалева Г.С. Международный опыт оценка качества образования. - Москва: Центр оценки качества образования ИОСОРАО, 2012.-375с.

6. Крутетский В.А., Балбасова Э.Г. Педагогические способности, их структура, диагностика, условия формирования и развития. - М.: Наука, 1991. - 224 с.

7. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.:Политиздат, 1975.-304 с.



SHAXSDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI TARIXIY-MILLIY YONDASHUVLAR UZVIYLIGI

N. Y. TAJIYEVA,

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada talabalarda muomala madaniyatini rivojlantirishning tarixiy-milliy yo'nalishlari, uning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. O'zbek xalqining muomala odobi xususiyatlarining nazariy jihatlari o'rganilgan. «Avesto», «Devonu lug'otit turk», «Quta'dg'u bilig», «Xibatul haqqoyiq», «Qobusnoma» shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino asarlaridagi muomala madaniyatiga oid ta'limotlar ko'rib chiqilgan. Farobiyning so'z qo'llash odobiga oid qarashlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: talaba, muomala, muloqot, nutq, milliy, ajdodlarimiz, nutq odobi, so'z qo'llash, o'zbekona lutf, o'zbek xalqi.

В данной статье рассматриваются историко-национальные направления развития культуры общения у студентов и ее значение. Изучены теоретические аспекты особенностей этикета общения узбекского народа. Рассмотрены учения о культуре общения в «Авесте», «Диване лугат ат-турк», «Кута'dгу билиг», «Хибатул хаққайиқ», «Кабуснаме», а также в трудах Абу Насра Фараби, Беруни, Ибн Сины. Научно проанализированы взгляды Фараби на этикет употребления слов.

Ключевые слова: студент, общение, диалог, речь, национальный, наши предки, речевой этикет, использование слов, узбекская грация, узбекский народ.

This article examines the historical and national directions of developing communication culture among students and its significance. The theoretical aspects of the peculiarities of the etiquette of communication of the Uzbek people were studied. The teachings on the culture of communication in the «Avesta», «Divan Lughat at-Turk», «Kuta'dgu Bilig», «Hibbat al-Haqaiq», «Kabusname», as well as in the works of Abu Nasr Farabi, Beruni, Ibn Sina, are considered. Farabi's views on the etiquette of word usage are scientifically analyzed.

Key words: student, communication, dialogue, speech, national, our ancestors, speech etiquette, word usage, Uzbek grace, Uzbek people.

O'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimiz muomala odobiga alohida e'tibor qaratganlar. Muomala madaniyatining ko'rsatgichi bo'lgan nutq birinchi navbatda tafakkur mahsuli hisoblanadi. Ajdodlarimiz insonning muomala madaniyatiga qarab unga baho berganlar. Ajdodlarimizning muomala odobiga oid qarashlari xalq og'zaki ijodi namunalari yozma manbalardagi dialoglar orqali bizgacha etib kelgan. O'zbek xalqining muomala odobi uning nutqida namoyon bo'ladi. Uning asosiy ko'rinishlari Respublikamizdagi turli shevalarda saqlanib qolgan. Folklor namunalari hisoblangan



rivoyatlar, ertaklar, dostonlarda personajlar orasidagi muloqotlar xalqimizning muomala odobini, ya'ni muomala madaniyatini namoyon etadi. Qadim-qadim zamonlarda turlicha shakllarda bizgacha etib kelgan etnopedagogik qadriyatlarda o'zbekona lutf, ya'ni muomala madaniyati o'z ifodasini topgan.

Zardo'shtiylik ta'limotini o'zida mujassamlashtirgan «Avesto», «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Xibatul haqqoyiq», «Qobusnoma» shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino asarlarida muomala madaniyatiga oid namunalar berilib, unga oid qarashlar tahlil qilingan. Dastlab «Avesto»da muomala odobi, nutq me'yori, ona tiliga ehtiyotkorona munosabat kabi muhim masalalar o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham «Avesto»da «ezgu so'z, ezgu amal, ezgu fikr g'oyasi» ilgari surilgan. Bu muomala madaniyatining asosiy komponentlarini tashkil etadi, chunki ezgu fikr, ezgu so'z, ya'ni muomala madaniyatining asosi bo'lgan ezgu amalning namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ezgu amal esa insonning so'zi bilan amali birligini ifodalaydi. «Avesto»da ta'kidlanishicha inson har doim atrofdaigilar uchun foydali bo'lgan fikrni ifodalab, unga mos amallarni bajarishi kerak. Bir so'z bilan aytganda fikr, so'z va amal birligi insonning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Ma'naviy qiyofa esa muomala odobida namoyon bo'ladi. Muomala madaniyatiga amal qilgan insonlarning xatti-harakati ta'sirchan bo'lib, atrofdaigilarda o'ziga nisbatan ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Ajdodlarimiz asarlarida muomala odobi insonga xush yoqadagigan kalom kabi tushunchalar orqali ifodalangan. Turkiy xalqlarga mansub bo'lgan qadimiy yozma yodgorliklarda insonlar shirinsuxanlilik bilan uzoq uzoqlarda yashaydigan odamlarni o'ziga yaqinlashtira olishi ta'kidlangan. Bunga «Qul tegin» yodgorligidagi shurunsuxanlik haqidagi fikrlar asos bo'ladi.

Mutafakkir ajdodlarimiz shaxsning muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratib, uni muloqot jarayonining ma'naviy, madaniy, axloqiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan axloqiy hodisa sifatida baholaganlar. Muomala madaniyatida inson nutqining axloqiy yo'nalishlari o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkir ajdodlarimiz shaxsning muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratganlar. O'rta Osiyoning buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy ham nutq odobiga, ya'ni shaxsning muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratgan. Beruniy shaxsning muomala madaniyati haqidagi qarashlarini o'zining barcha asarlarida bayon qilgan.

Beruniyning axloqiy-ijtimoiy qarashlari turli xalqlar va shaxslar orasidagi do'ctlik, o'zaro muloqot asosida tashkil topishini falsafiy pedagogik jihatdan asoslashga muvaffaq bo'lgan. Bu haqida u shunday yozadi: «Inson nutqqa ega bo'lgani va o'zining muxoliflari bilan dunyoviy va oxirat ishlari haqida bahs-munozara yuritganligi sababli o'z so'zlarida «mezonga» muxtoj bo'ldi. Gap o'z zoti bilan rostni ham, yolg'onni ham (o'z ichiga olish) ehtimoli borligidan («mezon») yordamida uni izchil tekshirish



va shu yoʻsinda uning shubhali erini tuzatish kerak boʻlgan. Zeroki, bu bilan mubohasalarda (soʻzlardan) tuzilgan sillogizmlarning (kishini) adashtiruvchi yolgʻoni ham, haqiqatni ochuvchi rosti ham ayon qilingan. Inson shu «mezoni» topdi. Uni mantiq deyiladi. Mantiqni bilmasdan, undan nafratlanib, uni ajablanarli atamalar bilan ataydigan kishi naqadar taajjublanarlidir! Agar u dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bogʻlanib keladigan nahv, aruz va mantiqni mutolaa qilganida edi soʻz, zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan boʻlardir. Nahv nasrda va aruz nazmda (aytilgan) soʻzning meʼyorini oʻlchovchi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon boʻlib qoldi, lekin nahv bular ikkisining umumiyrogʻidir, chunki u nasrni ham, nazmni ham birgalikda oʻz ichiga qamrab oladi. Soʻngra, soʻz mana shu ikki qismda (nasr va nazmda) ham soʻzlovchi maqsad qilgan maʼnodan iborat boʻlib qoldi; agar (biror) maʼnoga ega (jummlar) tuzilib, ular (bir-biri) bilan qiyos qilinsa, ularda (maʼlum) maʼno topiladi yoki u inkor kilinadi. Shunday qilib, mantiq va uning qiyoslari (oʻshanday jummlar) tuzishda mezon boʻlib qoldi, bu esa umumiylikda nahvga oʻxshaydi. Shu uchala (fan xam) «poyga otlari» kabi bir-biriga oʻxshash, bulardan birining qoidasining buzilishi qolgan ikkitasiga taʼsir kilmay iloji yoʻq» [Beruniy]. Beruniy nutqning ikki xil nasr va nazm shakli borligini taʼkidlamogʻda. Nutqning har bir turi maʼlum qoidalar asosida shakllanganishini koʻrsatib oʻtgan. Mutafakkir nutqning nasriy shaklida ham, nazmiy shaklida ham mazmun asosiy mezon ekanligini taʼkidlaydi. Abu Rayhon Beruniyning bebaho asarlari sahifasida soʻz, uning ahamiyati, soʻzni toʻgʻri qoʻllash va soʻz qoʻllash meʼyorlaridan tashqari tildagi oʻzlashma soʻzlar va bevosita nutq madaniyati va til estetikasiga aloqador boʻlgan mulohazalari ham talaba-yoshlarda muomala-muloqot madaniyatini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Beruniyning taʼkidlashicha, atrofimizdagi hamma narsa va hodisa kabi tilning ham rivojlanishi va oʻzgarishi, avvalo, xalq tarixida sodir boʻlgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy oʻzgarishlar tufayli yangi soʻzlar kirib kelishini va aksincha ayrimlari isteʼmoldan chiqib ketishini yaxshi bilgan olim bu hodisalarga ijobiy munosabatda boʻladi va tilning asosiy vazifasi kishilarning oʻzaro madaniy muloqotidan iborat ekanligini taʼkidlaydi. «Til – soʻzlovchi istagini eshituvchiga etkazuvchi tarjimondir. Shunng uchun til zamonning bir on kabi turgʻun qismi bilan cheklanib qoladi. Agar insondagi soʻzlash quvvati hamma joyga shamol singari yoyiluvchi boʻlmaganda edi va zamonlarga nafaslar singari oʻtuvchi xat yozish sanʼatini keltirib chiqarmaganda edi, oʻtmish zamonning xabarini, ayniqsa, uzoq zamonlar oʻtganda hozirgi zamon tillariga qanday koʻchirib boʻlar edi».

Buyuk mutafakkir Farobiy ilmlarni strukturalashtirishga muvaffaq boʻlgan. U ushbu tizimda til haqida bilimlarni birinchi darajaga qoʻygan. Mutafakkir til haqidagi bilimlarni etti qismga boʻladi, ular grammatika, poetika, toʻgʻri yozuv kabilar. Farobiy nutq va nutq odobi haqida quyidagilarni yozadi: «Bordi-yu, agar oʻshanda u kishiga biror narsaning oʻzini soʻz bilan tavsiflab berilsa bormi, unda oʻsha soʻz – mulo-



hazarlarda o'zi ilgarilari tasavvur qilib yurgan boshqa narsalarning timsolini ko'z oldiga keltiradi. Shu tariqa o'sha so'z – mulohazalarda ishlatiladigan har bir narsa ichida yaxshilik yo yomonlik, adolatsizlik yo tubanlik va yo bo'lmasa, halollikni tasavvur qilganiga o'xshab keladi. Shunday qilib, insonning fe'l-atvori ko'proq o'zining xayollariga bog'liq bo'ladi. Bular albatta, uning bilim va andishasiga bog'liq bo'ladi. Ammo shunisi ham borki, ko'pincha uning bilim va andishasi xayolidagi narsalarga teskari kelib ham qoladi. Bunday paytlarda uning fe'l-atvori o'z bilim va andishasiga ko'ra emas, balki xayoliga ko'ra ish tutadi». Farobiy insonning xislatlari haqida fikr yuritib 12 ta xislatning biri so'zga munosabat, so'z qo'llash odobidan iborat ekanligini ajratib ko'rsatgan. Bu haqida mutafakkir shunday yozadi: «– so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin». U fikrini davom ettirib quyidagilarni yozadi: «Odamzot ibtidosidan bo'lmish quvvatlar, masalan, so'zlash quvvati, tanlash quvvati, xayol quvvati, sezish quvvatlaridir. Bulardan so'zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi hunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli yoki foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi».

Nutq odobi, shirinsuxanlik masalalari Kaykovusning «Qobusnoma asarida keng yoritilgan. U muomala madaniyati haqida to'xtalib har doim rost so'zlash lozimligini uqtirgani holda yolg'on so'z insonni beburd qilib, atrofda qilarning ishnoshini yo'qotishini ta'kidlaydi. U muomala madaniyatining ahamiyatiga yuksak baho bergan. Jumladan, «Kishi suxandon, suxango'y (notiq) bo'lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durug' go'y (yolg'onchi) bo'lmag'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqt zarurat yuzidin yolg'on so'z desang qabul qilg'aylar». «Ey farzand, bilg'ilki, so'z to'rt nav bo'lur, undoqkim xaloyiq ham to'rt nav bo'lg'ondek. Biri ulkim, bilur va bilg'onin ham bilur. Ul olimdur, unga tobe bo'lmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag'onin bilur, ul qobildur, unga o'rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg'onin bilmas, ul uyqudadur, uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag'onin ham bilmas, u johildur, undin qochmoq kerakdur. Ammo deb erdimki, so'z ham to'rt nav'dur: biri, bilinmayturg'on va aytilmayturg'on; ikkilanchi, aytilaturg'on va bilinaturg'on; uchlonchi, ham bilina-turg'on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytsa bo'laturg'on; to'rtalonchi, bilinaturg'on va aytilmayturg'on. Ammo aytilmayturg'on va bilinmayturg'on undoq so'zdurki,... dunyoning saloxi unga bog'liqdir. Ul so'zdin aytuvchiga ham, eshitguvchiga ham ko'p naf etar. Ammo bilinaturg'on, biroq aytilmayturg'on undoq so'zdurkim, bir muhtasham odamning aybi senga ma'lum bo'lur. Lekin aql tariqidin xayolga kelsang, uni aytmoq besharmlikdur. Chunki aysang ul muhtashamning qahri, yo ul do'stning ozori senda hosil bo'lur yoxud o'z boshingga ulug' sho'rish va g'avg'o paydo qilursan. Shul vajdin ham bul



soʻz bilinaturgʻon, ammo aytilmayturgʻon soʻzdur. Bu soʻzlarning yaxshirogʻi ham bilinaturgʻon va ham aytilaturgʻon soʻzdur. Bu toʻrt nav soʻzning ikki yuzi bordur. Biri xoʻb va biri zisht. Har soʻzni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul boʻlsun va xaloyiq sening soʻz bila baland martabaga egaligʻingni bilsun lar. Nedinkim kishining martabasini soʻzi bila bilurlar, ammo soʻzning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli oʻz soʻzining ostida pinhondur, yaʼni bir soʻzni bir iborat bila aytsa boʻlur, eshitgʻon kishining esa koʻngli undin tira boʻlgʻay va yana oʻshal soʻzni bir iborat bila aytsa boʻlurkim, eshitgʻon kishining joni undin rohatda boʻlgʻay» Kaykovus yoshlarga soʻzning qadrini baland tutish haqida oʻgit beradi. U inson soʻz boyligini puxta egallashi uchun undan oʻz oʻrnida foydalana olish lozimligini taʼkidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. -T.: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -160 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.T.: 1969
3. Jabborov I. Oʻzbek xalqi etnografiyasi. -T.: Oʻqituvchi, 1994
4. Кайковус. Қобуснома/ Нашрга тайёрловчи: С.Долимов, У. Долимов. - Т., «Ўқитувчи», НМИУ, 2006-208 б.
5. Rahmonov N. Avestoning paydo boʻlishi. «Oʻzbekiston ovozi». 2001.
6. Rasulov R., Moʻyidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati // Oʻquv qoʻllanma. Toshkent - 2015. - 115 b.
7. Homidov H. «Avesto» fayzlari. - T.: 2001.



ONA TILI TA'LIMIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ANALITIK-SINTETIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O'QISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA UZVIYLIK TAMOYILI

D. M. ELMURATOVA,

GulDPI, «Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrası dotsenti, p.f.b.f.d., (PhD),

M. X. BOXODIROVA,

O'zMPU 2-bosqich doktoranti

Mazkur maqolada ona tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslanishi, o'qish, o'qish ko'nikmasi, o'qish kompetensiyasi, matn va axborotlar bilan ishlash kompetentligini oshirish bo'yicha respublika va xorij olimlarining fikrlari tahliliy o'rganilib, ularga shaxsiy munosabatlar bildirilgan.

Kalit so'zlar. *Ona tili ta'limi, boshlang'ich sinf o'quvchilari, analitik-sintetik faoliyati, o'qish, o'qish ko'nikmasi, o'qish kompetensiyasi, tahliliy, tanqidiy yondashuvlar, matn va axborotlar bilan ishlash.*

В статье анализируются научно-теоретическое обоснование развития аналитико-синтетической деятельности учащихся начальной школы в условиях обучения родному языку, взгляды отечественных и зарубежных учёных на совершенствование чтения, навыков чтения, читательской компетенции и компетенции работы с текстом и информацией, а также высказываются собственные взгляды на них.

Ключевые слова. *Обучение родному языку, учащиеся начальной школы, аналитико-синтетическая деятельность, чтение, навыки чтения, читательская компетенция, аналитико-критический подход, работа с текстом и информацией.*

This article analyzes the scientific and theoretical justification of the development of analytical and synthetic activity of primary school students in native language education, the views of domestic and foreign scientists on improving reading, reading skills, reading competence, and competence in working with text and information, and expresses personal views on them.

Key words. *Native language education, primary school students, analytical and synthetic activity, reading, reading skills, reading competence, analytical and critical approaches, working with text and information.*

Respublikamiz ta'lim tizimida o'qitishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish, linvistik, nutqiy, kommunikativ, pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirishda ilmiy, badiiy matnlar bilan ishlash, matnlarni tahlil va tahrir qilish, matn yaratishda strategik maqsadni amalga oshirish va undan mantiqiy xulosa chiqarish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'limiy metod, texnologiyalar tatbiq etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.



Bu boradagi ishlarni jadallashtirish, mamlakatimiz yoshlarini jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan bilimli, raqobat qila oladigan, kuchli, iqtidorli bo'lib voyaga yetishlariga erishish maqsadida ta'lim sohasida keng islohatlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida: ta'lim ustuvorligining tan olinishi; ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi; ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi; ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi; ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik va boshqalar ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida belgilangan [1]. Belgilangan ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasida yosh avlodning ta'lim-tarbiya-bilimning mushtarak holda mukammal olib borilishi ta'lim oluvchilarning zamonaviy ko'nikmalarini egallashi, axborotlar bazasini o'zlashtirishi, mustaqil fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi. Ta'lim bosqichlarida, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirish, o'qish bo'yicha malakalarini oshirish, ularning so'zlarni mustaqil o'qish va ularning ma'nosini anglash, mohiyatini tushunishi, darslikda berilgan axborotni, matni o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahliliy o'rganilgan. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, matni o'qib tushunish va undan mantiqiy subyektiv xulosa chiqarishga yo'naltirish o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu bois darslarni o'quv adabiyotlari, elektron resurslar, vizual materiallar, innovatsion metodlar va zamonaviy, interfaol texnologiyalar asosida tashkil qilish asosiy o'rin egallaydi. Bunda ularning analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirish asosli funksiyadir. Taniqli metodist olimlar K. Qosimova., S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyevlarning «Ona tili o'qitish metodikasi» nomli darsligida quyidagicha qarashlar mujassamligi keltiriladi [7]. Savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta'minlaydi.

Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, «muammoli» vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi. Sh.U. Sariyevning fikricha, o'qish matndan axborotni aniqlash, faol qayta ishlash va anglashdan iborat bo'lgan nutqiy faoliyat ko'rinishidir. To'g'ri, matni o'qish unda bayon etilgan axborotni aniqlash hisoblanadi. Biroq bu uning o'ziga xos tavsifi emas. Chunki umuman nutqni eshitish, hikoya qilingan yoki kimdir ovoz chiqarib o'qiganini tushunish ham axborotni aniqlash, faol qayta



ishlash, anglashdir. Demak, o'qishning muhim xususiyati axborotni olishda emas, balki axborotni olish qanday asosda kechganligidadir. O'qish jarayoni matn bilan chambarchas bog'liq. Hatto eng yaxshi o'qiydigan o'quvchi ham qiyin so'z yoki murakkab matnga duch kelsa, qiyinchilik bilan sekin o'qiy boshlaydi"[2].

«O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. O'qish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari egallangan lisoniy sath birliklaridan, o'quv-bilish, kognitiv ko'nikmalariga tayanadi»[3]. A.Olofsson «Boshlang'ich sinf o'quvchilarini, ayniqsa, to'rtinchi sinfda o'quvchilarning umumiy o'qish qobiliyatini yaxshilanganligi sintetik nutqni ishlatadigan dasturiy ta'minot bilan bog'liqligi»ni aniqladi[4].

«O'qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O'quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'xtari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar»[6]. L.Fiester ilmiy maqolasida 3-sinf o'quvchilarining o'qish malakalariga to'xtalar ekan, "Uchinchi sinfda yaxshi o'qish malakasiga ega bo'lish o'quvchi kelajakda muvaffaqiyatga erishishi uchun juda muhimligini, o'quvchi bu davrga kelib maktab darsliklaridagi mavzular yuzasidan yaxshi o'qish malakasidan tanqidiy o'qish ko'nikmasini qo'llashga o'tishi»ni ta'kidlaydi[8].

D.Ginnis va boshqa xorijlik olimlar tadqiqotlarida «o'qishning asosiy tarkibiy qismlari lug'at, matni o'qish va uni tushunish ekanligi» ta'kidlanadi[10].

S.Barr, Z.Eslami, R.M.Joshilar o'quvchilarda yaxshi o'qish malakasini shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berishadi:

- «yangi va tanish so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash;
- lug'atlardan notanish so'zlarning ma'nosini topish;
- ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarni tahlil qilish;
- so'zlarning grammatik tuzilishi(affikslar, qo'shma so'zlar, qisqartmalar)ni tahlil qilish;
- jamoaviy va individual tarzda yangi so'zlar ma'nosi ustida ishlash»[2].

Xorijlik tadqiqotchi Smith boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilarning o'qish faolligini o'zaro farqlovchi xususiyatlarini inobatga olib» boshlang'ich sinf va yuqori sinfda o'quvchilarining o'qishga bo'lgan munosabatlarining regression korrelyatsiyasini o'rganib, «1-sinf o'quvchilarining maktab kelgan davrlarida o'qish ko'rsatkichlari past bo'lishi, keyinchalik ularning o'qishga munosabatlari yaxshilanishi va o'rta maktabda o'qish ko'rsatkichlari yana yomonlashishidan kelib chiqib, vaqt o'tishi bilan nisbatan izchil va ijobiy o'qishni rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur, asosli», degan xulosaga keladi.



W. Kintschning e'tiroficha, «O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. O'qish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari egallagan lisoniy sath birlaklaridan, o'quv-bilish, kognitiv ko'nikmalariga tayanadi»[3]. Bunda esa o'z navbatida, analitik- sintetik faoliyat rivoj topadi.

Ona tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishning pedagogic-metogik jihatlariga deganda, mazkur ko'nikmalarining rivojlanganlik ko'rsatkichi darajasini ijobiy o'zgartirishga yo'naltirilgan mazmun, shakl va usullarning o'zaro bog'liq obyektiv, didaktik imkoniyatlari majmuyi tushuniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishda o'quvchilarning o'qish ko'nikmasi rivojiga alohida ahamiyat qaratish bo'yicha ishlar, xususan, o'qish tezligiga ega bo'lishi, matn tarkibidagi so'zlarning ma'nosini tushunib o'z nutqida mustaqil ishlata boshlashi hamda ularda o'qish sur'atining o'sishi o'quvchilarning ijobiy his-tuyg'ularini uyg'otadi, ularda yana o'qish uchun motiv oshib boradi, matn bilan ishlashni tushuna boshlaydi.

«O'qish kompetensiyasining to'rtta asosiy vazifasi bo'lib, ular quyidagilar: matni o'qish va tushunishning umumiy madaniy ko'nikmalarini egallash; nutq, yozma va kommunikativ madaniyatni egallash; badiiy adabiyotda aks ettirilgan voqelikka estetik munosabatni tarbiyalash; kichik o'quvchining axloqiy ongini va estetik didini shakllantirish, asarlarning ma'naviy mohiyatini tushunish»[5]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishda axloqiy muhit, aksiologik ong, kitoblarni tanlay olish va uni tushunib o'qish kompetentligi ma'naviy yetuklikka intilishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishda o'qish ko'nikmasining rivojida, so'zlar semantikasi bilan ishlashda ularning leksikografik bilimlarini, lug'at boyligini oshirish ko'nikmalarini o'stirish talab qilinadi. Shu bois o'qish savodxonligi darsliklarida axborot, idrokni va tafakkurni dinamik potentsialligini belgilovchi ilmiy, badiiy, hikoya, muhokama matnlarining berilishi analitik- sintetik faoliyatni rivojlantirilishini tezlashtiradi. O'quv materiallari, grafikli tasvirlar bilan tafakkur qilish dinamikligini fanlararo strukturaviy integratsiyalash boshlang'ich sinf o'quvchisining analitik-sintetik faoliyatidagi quyidagi nutqiy ko'nikma va malakalarni oshiradi:

- 1) o'quv materialini o'rganish natijasida ularda tafakkur boyib boradi;
- 2) ona tili savodxonligi, o'qish savodxonligi, matematika va tarbiya, tasviriy san'at, axborot texnologiyalari fanlarining o'zaro strukturaviy integratsiyasi ulardagi qobiliyatlarini o'stirib, fikrlash mahsulini kengaytiradi;



3) o'quvchilardagi kognitivlik, intensivlik, intellektuallik va qiziquvchanlik oshib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish savodxonligi mazmunini takomillashtirishda o'quvchilarning nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunisi ahamiyatliki, mazkur malakalarning mutanosiblikda rivojlantirib borilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma monologik nutqini, informativ, aksiologik bilimlarini amaliy ifodalashini mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishda ahamiyatga molik bo'lgan og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, o'z fikrini mazmunli va izchil tarzda ifoda eta olish, matn mazmunini tahlil qilish, undan xulosa chiqarish, matndan axborotni olish va undan foydalanish, g'oyalar, ma'lumotni talqin qilish hamda uyg'unlash-tirish orqali mantiqiy xulosa chiqara oladigan yetuk, barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iborat. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini, individual imkoniyatlarini hisobga olgan kitob, matn, kontekst bilan ishlashga o'rgatish ularning kognitiv-kommunikativ qobiliyatlarini, subyektiv xulosa chiqarishga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-637. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz>
2. Сариев Ш.У. Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти (1-,2-синф материаллари мисолида). Пед.фан.фалс... дисс. Тошкент, 2020. -44б.
3. Kintsch W. (2013). Revisiting the construction-integration model of text comprehension and its implications for instruction. In D.E. Alvermann, N.J. Unrau, & R.B. Ruddell (Eds.), Theoretical models and processes of reading (6th ed., pp. 807-839). Newark, DE: International Reading Association
4. Olofsson A. Thresholds of Interpretation. Cambridge:CUP, 1997. -P.453
5. Примерные программы по учебным предметам начальная школа. В 2 ч. Ч. 1 / Ред. Л.П. Савельева. - 5-е изд. - М. : Просвещение, 2011. - 401 с.
6. Elley W.B (1992). How in the world to students read? IEA study of reading literacy. The Hague, Netherland: International Association for the Evaluation of Educational Achievement
7. K. Qosimova., S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): - T.: «NOSHIR», - 2009. ... -42 b.



МОДЕЛЬ СЕТЕВОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КАК МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ УМЕНИЙ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ШКОЛЫ

Р.Х.ДЖУРАЕВ,

НИПВ им. Кары Ниязи, академик д.п.н.,

З.КАРИМОВА,

Филиал МГУ им Ломоносова, и.о. доцент (PhD)

Поиск современных подходов к управлению школой требует нового взгляда на управленческие умения ее руководителей. В качестве механизма формирования управленческих умений руководителей школы выступает сетевое взаимодействие образовательных организаций. Проведен анализ существующих моделей сетевого взаимодействия и выбрана распределенная модель, дана ее характеристика и описаны преимущества. В статье определены задачи и принципы сетевого взаимодействия, структура и характеристика субъектов сети, описаны основные направления деятельности и инструменты сетевой работы.

Ключевые слова: управленческие умения руководителя школы, сетевое взаимодействие образовательных организаций, распределенная модель сетевого взаимодействия, субъекты сетевого взаимодействия, ресурсы сетевого взаимодействия.

The search for modern approaches to school management requires a new look at the management skills of its leaders. Network interaction of educational organizations acts as a mechanism for the formation of management skills of school leaders. The analysis of existing models of network interaction is carried out and a distributed model is selected, its characteristics are given and the advantages are described. The article defines the tasks and principles of network interaction, the structure and characteristics of network entities, describes the main areas of activity and tools of network work.

Key words: management skills of a school leader, network interaction of educational organizations, distributed model of network interaction, entities of network interaction, resources of network interaction.

Модернизация современного образования, основные направления которой сформулированы в законе «Об образовании» определяет характер изменений образовательных учреждений, повышение их конкурентоспособности. Одним из ключевых направлений этих изменений является совершенствование модели управления школы и формирование новых компетенций их руководителей. Традиционная система развития управленческих навыков на основе послевузовского профессионального образования хотя и сохраняет свою актуальность, но не решает проблему в комплексе. Поиск новых моделей, позволяющих формировать управленческие навыки руководителей школ, определяет актуальность данной проблемы.



Для определения управленческих умений директора школы мы проанализировали следующие документы:

– Профессиональный стандарт «Руководитель образовательной организации».

– Должностная инструкция «Руководитель (директор, заведующий, начальник) образовательного учреждения».

– Должностная инструкция директора школы.

Также было проведено структурированное интервью с директорами школ г.Ташкента.

Результаты исследования позволили выделить три основных управленческих умения: аналитическое умение, организационное умение и коммуникативное умение. Представим структуру данных умений,

Аналитическое умение:

– организовывать и проводить комплексный анализ и прогнозирование внешнего микро- и макроокружения, внутренней среды школы, ее системы управления;

– выявлять имеющиеся проблемы и противоречия в деятельности школы, обуславливающие их причины для решения задач стратегического и оперативного планирования;

– организовывать и управлять процессами маркетинговых исследований и анализа образовательного рынка с целью управления портфелем образовательных услуг;

– осуществлять сбор, анализ, систематизацию и распространение входящей информации для принятия управленческих решений, в том числе с использованием современных информационных технологий.

Организационное умение:

– организовывать деятельность школы на основе государственной политики в области образования, социального заказа и интересов обучающихся, их родителей; развивать образовательную среду школы, управлять образовательными программами и проектами;

– выявлять потенциал развития школы, формировать стратегические альтернативы, оценивать их, формировать ключевые факторы успеха в долгосрочной перспективе;

– проектировать, разрабатывать и оптимизировать организационную структуру школы, рационально распределять функционал м властные полномочия;

– осуществлять расстановку персонала с учетом индивидуальных и профессиональных особенностей, аттестации рабочих мест;



- утверждать нормативно-правовые документы школы регламентирующего и учебно-методического характера, контролировать их исполнение;
- совершенствовать качество образования, внедрять образовательные инновации, организовывать разработку и реализацию современных моделей, методик и технологий для повышения эффективности образовательной системы школы;

- формировать и совершенствовать кадровую политику школы; управлять процессами подбора, адаптации, оценки персонала, совершенствования организации труда, системы мотивации и стимулирования персонала, развития персонала и организационной культуры;

- разрабатывать и выполнять финансово-хозяйственный план деятельности и бюджет школы; производить расчет инвестиций и финансово-экономических показателей;

- рассчитывать потребности школы в ресурсах, разрабатывать и осуществлять планы привлечения ресурсов, в том числе из внебюджетных источников, формировать стандарты их распределения;

- управлять изменениями деятельности школы в целом, отдельных ее объектов и процессов на основе системы сбалансированных показателей;

- проводить оценку эффективности деятельности школы.

Коммуникативное умение:

- обеспечивать эффективное взаимодействие с органами и государственной власти, партнерами, организациями образовательной инфраструктуры в интересах школы, выполнение представительских функций;

- выстраивать отношения с целевыми аудиториями, формирование привлекательного имиджа школы;

- проявлять лидерскую позицию, осуществлять поиск и реализацию креативных решений с привлечением управленческой команды, эффективных способов коммуникации, демонстрировать творческий подход и инициативу;

- активно привлекать к изменениям персонал школы, используя экономические, организационные и морально-психологические методы стимулирования, среду для творчества;

- вести переговоры, использовать умения публичных выступлений и убеждения, разрешать возникающие конфликтные ситуации.

В качестве исходной предпосылки для формирования управленческих умений руководителя школы выступает взгляд на руководителя школы как саморазвивающуюся и саморегулируемую личность, способную к самопроектированию, самоорганизации в профессиональной сфере за счет активизации внутренних ресурсов в процессе взаимодействия с образовательной средой.



Под сетевым взаимодействием в образовании понимается совокупность взаимосвязанных образовательных субъектов (индивид, социальная группа, организация, институт), которая направлена через совместную деятельность на решение определенной проблемы или достижение поставленной цели. Ю. Н. Фролов выделяет следующие признаки сетевого взаимодействия в образовании [5, с. 137]:

- общие цели;
- обмен ресурсами;
- многоуровневые горизонтальные и вертикальные связи;
- порождение инновационных продуктов и форм деятельности;
- нормы не задаются сверху, а вырабатываются внутри сети естественным образом;
- взаимная ответственность участников сетевого взаимодействия за деятельность и результаты;
- ролевая структура участников сети;
- синергия.

Выбор модели сетевого взаимодействия сопряжен с определенными трудностями, возникшими в силу многообразия подходов к их классификации. В настоящее время нарабатан большой теоретический и практический опыт сетевого взаимодействия образовательных организаций. Стоит назвать исследования Е. А. Ворониной, предпринявшей попытку классифицировать модели сети [6, с. 4]. Анализируя все многообразие моделей сетевого взаимодействия, остановим свой выбор на распределенной модели. Поясним, в чем состоит ее особенность, и приведем аргументы в пользу выбора этой модели.

По сути, взаимодействие сетевых образовательных организаций является площадкой для реализации программ дополнительного профессионального образования по формированию управленческих умений, средством научно-методического обмена, реализации методов неформального профессионального образования, осуществления организационно-педагогического сопровождения. В качестве субъектов формирования управленческих умений выступают директор школы, заместители директора школы, представители кадрового резерва школьного образования.

Гипотезой исследования является следующее утверждение: управленческие умения директора школы будут сформированы, если будут обеспечены следующие организационно-педагогические условия:

- определен состав и структура профессионально-ориентированных управленческих умений директора школы;
- определено содержание деятельности по формированию професси-



- онально-ориентированных управленческих умений директора школы;
- раскрыт характер функционирования инструментов сетевого взаимодействия образовательных организаций по формированию профессионально-ориентированных управленческих умений директоров школы;
 - разработана программа дополнительного профессионального образования по формированию управленческих умений, методика организационно-педагогического сопровождения субъектов формирования управленческих умений;
 - разработана и реализована педагогическая модель формирования профессионально-ориентированных управленческих умений директоров школы на основе сетевого взаимодействия образовательных организаций;
 - разработана оценка форсированное управленческих умений директора школы (критерии, показатели, уровни, методика оценивания).

Сформулированная гипотеза позволила определить задачи исследования.

В основе саморегулирования предлагаемого нами сетевого взаимодействия лежат принципы автономности, субсидиарности, корпоративности (общности профессиональных интересов) и комплементарности.

Далее представлены основные направления формирования управленческих умений директора школы на основе сетевого взаимодействия образовательных организаций.

Осуществление программы дополнительного модульного типа, которая осуществляется во взаимодействии двух типов деятельности: обучающей и профессионально-практической. Обучающие модули представляют собой организационно-деятельностную игру, посвященную определенной комплексной проблеме управления школой.

- групповые методы: руководство (участие) в разработке и реализации образовательных проектов, участие в круглых столах, дискуссиях, мастер-классах, обмен мнениями, методическими материалами в сети;
- индивидуальные методы: самообразование, работа с профессиональной литературой, периодикой, сетевыми ресурсами, публикации статей в научных и научно-методических изданиях, персональный бенчмаркинг.
- Организация и проведение мероприятий профессионального обмена (выставки, конференции, круглые столы, дискуссионные площадки, публичная презентация результатов проектов).

Реализация межорганизационных проектов и исследовательская деятельность.

Важным инструментом саморегулирования сетевого взаимодействия является web-портал сети. Он содержит новости сети, ресурсы сети (описание всех



ресурсов, месторасположения, условия использования), характеристику реализуемых проектов, календарь событий, характеристику всех образовательных программ для развития управленческих умений руководителей. В портале можно найти статьи и материалы по самообразованию руководителей образования, видеолекции, имеется личный кабинет для каждого руководителя, где содержится его портфолио, показатели экспертизы и другая информация.

Неформальное образование реализуется на основе следующих методов:

– коллективные методы: участие в педагогических и управленческих конференциях, работа в проектах, комиссиях в качестве эксперта, участие в конкурсах, работа в клубе молодых директоров школы;

В заключение отметим, что распределенная модель сетевого взаимодействия образовательных организаций является действенным механизмом, в рамках которого могут разворачиваться инструменты формирования управленческих умений руководителей школы на городском и региональном уровне.

Список литературы:

1. Воровщиков С. Г. Развитие учебно-познавательной компетентности учащихся: опыт проектирования // Управление школой: электрон. журн. - 2009. - №7. - URL: https://upr.1september.ru/view_article.php?ID=200900704 (дата обращения: 06.03.2017).

2. Симоненко В. Д., Ретивых М. В. Общая и профессиональная педагогика: учеб. пособие. - Брянск: Изд-во Брянского гос. ун-та, 2003. - Кн. 1. - 174 с.

3. Кузьмина Я. А. Формирование персонально-ориентированных умений студентов - будущих специалистов в условиях сетевого взаимодействия: дне. ... канд. пед. наук. - Хабаровск: [б. и.], 2016. - 233 с.

4. Гусев Д. А., Флеров О. В. Дополнительное профессиональное образование в социальном пространстве современной России // Наука и школа. - 2016. - № 5. - С. 44-55.

5. Фролов Ю. И. Сетевое взаимодействие учреждений профессионального образования: Стратегические вызовы и новые подходы // Научный потенциал. - 2011. - № 3 (4). - С. 134-139.

6. Воронина Е. А. Создание моделей межведомственного сетевого взаимодействия в сфере дополнительного образования детей с использованием ресурсов организаций науки, культуры, спорта и других: метод, рекомендации для рук. учреждений доп. образования детей. - СПб., 2015. - 22 с.

7. Сахарова В. И. Сетевое взаимодействие образовательных учреждений как ресурс развития системы профессионального образования // Вести. ТГПУ (TSPU Bulletin). - 2012. - № 8 (123). - С. 38-41.



BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING 4K KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING O'RNI

M.A.NURMURODOVA,

*Buxoro davlat pedagogika instituti
tayanchni doktoranti*

Ushbu maqolada bo'lajak kimyo o'qituvchilarining 4K kompetensiyalari – tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ingliz, rus va o'zbek tilidagi ilmiy manbalar o'rganilib, TPACK va DigCompEdu kabi nazariy modellar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Xorijiy va milliy tajribalar asosida virtual laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalar, loyiha asosida o'qitish usullarining samaradorligi ko'rsatildi. Natijalar raqamli texnologiyalar 4K kompetensiyalarini shakllantirishda faollashtiruvchi, fasilitator va transformator vazifasini bajarishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *4K kompetensiyalari, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, raqamli texnologiyalar, TPACK, DigCompEdu, virtual laboratoriya.*

This article analyzes the role of digital technologies in the development of 4K competencies of future chemistry teachers - critical thinking, creativity, communication and collaboration. In the process of research, scientific sources in English, Russian and Uzbek were studied, and methodological recommendations were developed based on theoretical models such as TPACK and DigCompEdu. The effectiveness of virtual laboratories, AR/VR technologies, and project-based teaching methods was demonstrated based on foreign and national experiences. The results confirm that digital technologies act as an activator, facilitator and transformer in the formation of 4K competencies.

Key words: *4K competencies, critical thinking, creativity, communication, collaboration, digital technologies, TPACK, DigCompEdu, virtual laboratory.*

XXI asrda raqamli texnologiyalar ta'limning barcha bosqichlariga chuqur integratsiyalashmoqda. UNESCO va OECD tavsiyalarida o'qituvchilarning zamonaviy kompetensiyalarida 4K ko'nikmalar alohida o'rin tutadi [1], [5]. Bo'lajak kimyo o'qituvchilari uchun bu kompetensiyalar nafaqat ilmiy mazmuni o'zlashtirish, balki uni o'quvchilarga innovatsion shaklda yetkazish uchun ham zarurdir.

Raqamli texnologiyalar – virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, 3D modellash-tirish, AR/VR muhitlari, masofaviy o'qitish platformalari – o'qituvchining kreativ, tanqidiy va kommunikativ imkoniyatlarini sezilarli kengaytiradi [3]. Shu bois, kelajak pedagoglar tayyorlash tizimida raqamli vositalar 4K kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda.



Gabriela Kiryakova (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) 4K kompetensiyalarini – kreativlikni, tanqidiy fikrlashni, hamkorlik va kommunikatsiya imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko‘rsatilgan.

Tabiat fanlari va kimyo pedagogikasida, masalan, DiKoLAN modeli doirasida yaratilgan studiya kurslari orqali raqamli kompetensiyalarni o‘qituvchilar orasida mustahkamlashda ijobiy natijalar kuzatilgan ya’ni o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch (self-efficacy) oshgani qayd etilgan.

Yuqoridagi diagramma – DiKoLAN (Digital Competencies for Teaching in Science Education) ramkasini vizual ifodalaydi. Unda ilmiy hamda fanni o‘qitish jarayonida foydalaniladigan 7 ta markaziy raqamli kompetensiya sohasi tasvirlangan.

Bo‘ljak kimyo o‘qituvchilarining raqamli va STEM ko‘nikmalarini rivojlantirish:

Chilidagi tadqiqot kurslar davomida pedagogika fakultetlarida o‘qiyotgan kimyo yo‘nalishi talabalarida raqamli va STEM ko‘nikmalar asta-sekin shakllana boshlashi, birinchi yillarda 60%dan boshlab to‘rtinchi yillarda 95% darajaga yetib borishini ko‘rsatgan.

Qozog‘iston misolida esa interaktiv elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va modellashtirish orqali kelajak kimyo o‘qituvchilarining professionallik ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgani tasdiqlangan.

Raqamli malakalarni shakllantirishdagi zamonaviy metod va qiyinchiliklar:

Slovakiya misolida, 2024/2025 o‘quv yilida o‘tkazilgan innovatsion ta’lim dasturi (TCDSL) asosida kimyo o‘qituvchilari DigCompEdu raqamli kompetensiya ramkasiga muvofiq «explorer» darajasidan «integrator» bosqichiga o‘tishgani tasdiqlangan.

Germaniyada o‘tkazilgan intervyu tahlili, pedagoglarni raqamli vositalardan foydalanishda to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatgan: vaqt yetishmasligi, infratuzilmaning sustligi, texnik yordam yo‘qligi va o‘zgarishdan qo‘rquv kabi. Shu bilan birga, mazkur vositalarning o‘rgatish sifatiga ijobiy ta’siri e’tirof etilgan.

TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge) – pedagogning fan mazmuni, metodikasi va texnologiyalarni uyg‘unlashtirish qobiliyatini baholash [4].

DigCompEdu ramkasi – o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini 6 modul bo‘yicha rivojlantirish bo‘yicha Evropa Komissiyasi ishlab chiqqan mezonlar [5].

Loyiha asosida o‘qitish (PBL) – kimyo fanida jamoaviy loyiha ishlari orqali 4K kompetensiyalarini faollashtirish [6].

TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) va DigCompEdu



(Digital Competence Framework for Educators) nazariy modellari asosida kimyo fanini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Men ularni uchta asosiy bosqichda – tayyorlov, o'qitish jarayoni va baholash hamda refleksiya – sifatida taqdim etaman.

TPACK modelining tayyorlov bosqichi:

Content Knowledge (CK): Kimyo fanidagi asosiy tushunchalarni (moddalar tuzilishi, kimyoviy reaksiyalar, termodinamika) aniqlash.

Pedagogical Knowledge (PK): Zamonaviy ta'lim metodlarini (muammo asosida o'qitish, kollaborativ o'qitish) tanlash.

Technological Knowledge (TK): Simulyatsiyalar, AR/VR laboratoriyalar, mobil ilovalar va Learning Management Systems (Moodle, Google Classroom) kabi texnologiyalarni tanlash.

DigCompEdu modelining tayyorlov bosqichi:

Professional Engagement: O'qituvchilar uchun onlayn platformalar (ResearchGate, Moodle for Teachers) orqali metodik materiallar almashinuvi.

Digital Resources: Kimyo laboratoriyasiga mos interaktiv resurslar yaratish (PhET Simulations, ChemCollective).

Har bir mavzu uchun raqamli interaktiv materiallar tayyorlash: masalan, «Moddalar klassifikatsiyasi» bo'yicha 3D modellar hamda Moodle yoki Google Classroom orqali tayyorlov testlari va video-maruzalarni ulashish tavsiya etiladi.

TPACK modelining o'qitish jarayoni quyidagicha:

TPK (Technological Pedagogical Knowledge): Flipped Classroom yondashuvi – o'quvchilar uyda videoni ko'rishadi, darsda esa tajriba yoki muammoli vazifa bajarishadi.

TCK (Technological Content Knowledge): Kimyoviy reaksiyalarni raqamli simulyatsiyalar orqali real vaqt rejimida ko'rsatish (masalan, reaksiyalar tezligi yoki Le-Chatelier printsipli).

TPACK: Darsni raqamli laboratoriyalar bilan uyg'unlashtirib, nazariya va amaliyotni birlashtirish.

DigCompEdu modelining o'qitish jarayoni quyidagicha:

Teaching and Learning: O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, kollaborativ onlayn doskalarda (Jamboard, Miro) kimyoviy tenglamalarni birgalikda yechish.

Assessment: Real-time quizlar (Kahoot, Quizizz) orqali darhol baholash.

Kimyo laboratoriyasidagi xavfli tajribalarni VR simulyatsiyalarda xavfsiz tarzda o'tkazish tavsiya etiladi.

TPACK modeli asosida baholash va refleksiya:

O'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini ham baholash (faqat kimyo bilimlarini emas).



O‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholash anketalari va peer-review orqali jalb etish. DigCompEdu modeli asosida baholash va refleksiya:

Empowering Learners: Har bir o‘quvchi uchun individual raqamli portfoliolar yaratish va ularning yutuqlarini onlayn kuzatish.

Facilitating Learners Digital Competence: O‘quvchilarga ilmiy ma’lumotlarni tanqidiy baholashni o‘rgatish (masalan, kimyoviy ma’lumotlar bazalari bilan ishlash).

Google Forms orqali dars oxirida «Refleksiya savollari»ni yuborish hamda o‘quvchilarni ilmiy maqolalardan foydalanishga yo‘naltirish va ma’lumotlarni to‘g‘ri keltirish ko‘nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

4K kompetensiyalari va raqamli texnologiyalar o‘zaro bog‘liqligi

1.1. Tanqidiy fikrlash

Kimyo fanida tanqidiy fikrlash murakkab jarayonlarni tahlil qilish, gipoteza ilgari surish, natijalarni baholash va xulosalar chiqarishni o‘z ichiga oladi. Virtual laboratoriyalar (PhET, ChemCollective) yordamida talabalar xavfsiz va iqtisodiy sharoitda eksperimentlar o‘tkazib, jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatadi. Bu ularga murakkab kimyoviy reaksiyalarni modellash tirish va baholash imkonini beradi [4].

1.2. Kreativlik

3D modellashtirish dasturlari (Avogadro, ChemDraw) yoki augmented reality (AR) texnologiyalari molekula tuzilishini yangi formatda taqdim etadi. Bunday vositalar o‘qituvchilarning dars jarayonini ijodiy loyihalar bilan boyitishiga yordam beradi [2].

1.3. Kommunikatsiya

Masofaviy ta‘lim platformalari (Google Classroom, Microsoft Teams, Moodle) va videokonferensiya vositalari o‘qituvchi-talaba hamkorligini mustahkamlaydi. Kimyo fanida natijalarni grafik, infografika yoki videotaqdimot shaklida ifodalash kommunikativ ko‘nikmalarni kuchaytiradi [5].

1.4. Hamkorlik

Onlayn kollaborativ muhitlar (Padlet, Miro, Jamboard) orqali talabalar birgalikda ilmiy loyiha va izlanishlar olib boradi. Kimyo laboratoriya ishlarida hamkorlik talab qilinadi, bu esa real sharoitda jamoaviy masalalarni hal etishga tayyorlaydi [1].

Amaliy tajribalar va ilmiy yondashuvlar

DiKoLAN modeli (Germaniya) – tabiat fanlari o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan professional rivojlanish dasturi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch va metodik mahorat sezilarli oshganini ko‘rsatgan [3].

Chili tajribasi – kimyo yo‘nalishidagi talabalarda raqamli va STEM kompetensiyalar bosqichma-bosqich rivojlanib, to‘rtinchi bosqichga kelib 95% darajaga yetgani aniqlangan [6].



Qozog‘iston tajribasi – virtual laboratoriyalar va elektron darsliklar orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifat jihatidan oshgan, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut kamaygan [7].

TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli pedagogning uch asosiy kompetensiyasi – mazmun, pedagogika va texnologiya – o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslanadi. Bu model bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini raqamli vositalarni fan mazmuniga mos ravishda integratsiya qilishga tayyorlaydi [5].

Evropa Komissiyasi ishlab chiqqan DigCompEdu ramkasi o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini 6 modul bo‘yicha baholaydi. Bu ramka 4K kompetensiyalarini raqamli kontekstdagi rivojlanishini aniq mezonlar orqali ko‘rsatadi [8].

Tanqidiy fikrlash – Germaniyada DiKoLAN modeli asosida o‘qituvchilar virtual laboratoriyalar orqali eksperimentlarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmasini oshirdi [3].

Kreativlik – Rossiyada AR/VR texnologiyalari va molekulyar modellashtirish dasturlarini qo‘llash talabalarda innovatsion kimyoviy loyihalarni yaratishga olib keldi.

Kommunikatsiya – O‘zbekistonda Google Classroom, Padlet kabi platformalar yordamida talabalarning ilmiy natijalarni taqdim etish sifati oshdi.

Hamkorlik – Chili tajribasida fanlararo loyihalarda ishtirok etgan talabalar jamoaviy muammolarni hal etish qobiliyatini 95 %gacha rivojlantirdi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiryakova, G. (2021). The role of digital technologies in development of 4Cs competencies of learners. ResearchGate.
2. Chiu, T. K. F., et al. (2022). Characterizing Students‘ 4C Skills Development During Problem-based Digital Making. ResearchGate.
3. Bartholome, T., et al. (2022). Fostering science teachers‘ digital competences with the DiKoLAN framework. MDPI Education Sciences.
4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record.
5. European Commission. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu).
6. Лапчик, М.П., Суслов, И.В. (2020). Информационные технологии в образовании. Москва: Академия.



O'QUVCHI-YOSSLARDA IJTIMOY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

I.I. TUYCHIEVA,

*FarDU pedagogika kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) professor*

Maqolada ijtimoiy faollikni rivojlantirishning dolzarbligi va uning jamiyat tarakkiyotidagi ahamiyati ilmiy jixatdan asoslangan. O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish omillarni, samarali yo'llari, ilg'or usul va vositalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, unda o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining faoliyatining metodologik yondashuv masalalari yoritilgan.

Tayanch sozlar: *oliy ta'lim, ijodiy yondashuv, o'quvchi-yoshlarda o'quv tarbiya faoliyati, o'kituvchi, intellektual, ijtimoiy faollik, insonparvarlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, amaliyot.*

В статье, с научной точки зрения, обоснована актуальность проявления общественной активности студентов в годы независимости, её значение в развитии общества. Речь идёт об эффективных путях, передовых методах и средствах, факторах формирования и развития социальной активности студентов. Также освещены вопросы методологического подхода к деятельности высших образовательных учреждений в развитии данной проблемы.

Ключевые слова: *высшее образование, творческий подход, учебно-воспитательная деятельность студентов, преподаватель, интеллектуальный, социальная активность, информационно-коммуникационные технологии.*

In article with scientific standpoint is motivated urgency of shaping student's social activity at years of independence and its importance of development in society. The problem is about the efficient ways of leading methods and facilities, factors in formation and development of students' social activities.

Key words: *higher education, creative approach, scholastic educational activity of student, teacher, intellectual, social activity, humanity, information-communication technology*

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Bu esa o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik modeli va auditoriyadan



tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini takomillash-tirishni talab etadi.

Respublikamizda oliy ta'lim mazmuni va kadrlar tayyorlash jarayonlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy kompeten-siyalarni rivojlantirishga ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga o'quvchi-yoshlarning bo'lajak kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini to'liq anglanishiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas'uliyatni munosabatni qaror toptirishning pedagogik mexa-nizmlarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ijtimoiy faollik – insonlarning, alohida shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning, umuman, jamiyatning murakkab, tizimli, integral fazilati. Ularning atrof-muhit bilan o'zaro ongli munosabatda bo'lish qobiliyati bu muhitni maqsadga muvofiq o'rganish, shu asosda o'z-o'zini boshqarish va o'zini o'zi namoyon qilish, jamiyatni izchil yangilash, rivojlantirish misolida ifodalanadi. Tarixiy «belgilangan» sharoitlarda, aniq vaziyatlarda amalga oshirilgan ekan, u nafaqat bu obyektiv holatlar, balki odamlarning ma'naviy rivojlanish darajasi, g'oyaviy-axloqiy, intellektual va irodaviy sifatлари, bu sharoitlarni anglash va o'zgartirishga qobiliyati bilan belgilanadi.

Mas'uliyatlilik – ijtimoiy faollikni shakllantirish mezonlaridan biri hisoblanadi. Bunda o'quvchi-yoshning mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi, faoliyat mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda o'zi va o'zgalar uchun qanday naf keltirishini anglash qobiliyati rivojlanadi.

Mas'uliyatni his qilgan o'quvchi-yosh ishni doimo puxta rejalashtirib, uning sabab-oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishda atrof-muhitga yondashuv, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, ijtimoiy-ruhiy hodisalarga o'z munosabatini bildirish, milliy qadriyatlar mazmunini anglash, chuqur ma'lumotga ega bo'lish, g'oya va nazariyalar mohiyati bilan tanishish orqali hosil qilingan qarash, tasavvur, hissiyot va e'tiqodlar tizimidir. Shu jihatdan ham oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faoliyatini tashkil etish bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni tashkilotchilarining maqsadli talablari asosida bilim, iqtidor, ko'nikma, dunyoqarash, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishdir. O'quvchi-yoshlarda faollikni tarkib toptirish bevosita o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy-pedagogik, umumpedagogik texnologiyalardan foydalanish, uning modulini ishlab chiqish, interfaol metodlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Dars mashg'ulotlarning dialektik, insonparvarlik, tabiat bilan uyg'unlik tarzida amalga



oshirilishi o'quvchi-yoshlarda insonparvarlik, tadqiqotchilik, ijodiy, ijtimoiy-madaniy jihatlarini rivojlantiradi. Ularda o'z-o'zini boshqarish mexanizmi, axloqiy-estetik, harakatli-amaliy va ijodiy sifatlar kamol topadi [97; 305-b.].

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faollik bilan bog'liq sifatlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, moslashuvi va chiniqishiga shart-sharoitlar yaratishda o'qituvchining pedagogik mahorati muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi o'quv-tarbiyaviy va ijtimoiy jarayonni boshqarishda kichik guruhlar, individual «maslahatchi» tizimlarini tashkil etishi, axborotlar (kitob bilan ishlash)ni mustaqil o'rganishi, kompyuterni boshqarishi, o'zaro o'qitish va o'z-o'zini yo'naltirish faoliyatini amalga oshirishda muammoli izlanishlar, tadqiqotchilik ishlari, ijodiy o'yinli, loyihali, produktiv, o'z-o'zini rivojlantirish kabi o'qitish metodlaridan foydalanishi o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Buning natijasida interfaol, individual, hamkorlik pedagogikasi, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'ziga ta'lim berish jihatlarini takomillashtiradi.

O'quvchi-yoshlar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish maqsadida o'qituvchi materialni metodik va didaktik jihatdan qayta tiklash, ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyalarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratadi. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy va madaniy bilim darajasini oshirish bo'yicha ularning shaxsiyatida chuqur ahamiyatga ega bo'ladigan madaniy hodisalar, ijtimoiy voqealar, badiiy obrazlarni takdim etadi.

Ijtimoiy faoliyatning xilma-xil turlari, shakl va metodlarini amalga oshirish bilan o'quvchi-yoshlarda izlanish, taqdim etilayotgan materiallarni chuqur o'rganishga ehtiyoj, tashabbus, qiziqish va izlanishga turtki beriladi.

Pedagogika faniga doir o'quv-tarbiyaviy ishlarda og'zaki (ongga ta'sir etuvchi) – hikoya, kitob bilan ishlash, tushuntirish, ishontirish, taqqoslash, savollarga javob berish, odob-axloq mavzusidagi suhbatlar, istiqbolni muhokama etish, ma'qullash yoki rad etish kabi metodlar o'quvchi-yoshlar ongiga qat'iy ta'sir etadi. Milliy an'analar, jamoaviy jipslik, bellashuv (individual va guruhli musobaqa), nazorat, jamoaviy fikr, jamoadagi o'zaro uyg'un kayfiyat, hisobotlar, yig'ilish, muhokama va baholash, mushkul vaziyatlarda bir-biriga yordamlashish, pedagogik jamoaga ko'maklashish ham o'quvchi-yosh shaxsini faollashtiradi. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarda axloqiy xatti-harakatlarni hosil qilish, tarbiyaviy vaziyatlar, tarbiyaviy (ijtimoiy-foydali faoliyat, bemorlar, keksa kishilar va nogironlarga yordam ko'rsatish, tabiatni muhofaza qilish, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ishlash, shanbaliklarda qatnashish, badiiy ijodkorlik va boshqalar) vazifalarni amaliy hal etish, tartiblilik, yaxshi muomala, ijtimoiy topshiriq, faoliyatni modellashtirish, ichki (psixologik) qiyinchiliklarni va ko'ngilsizliklarni bartaraf etish, muammolarni hal etish yo'llarini birgalikda izlash, tajribaga asoslanish, talab, trening, birgalikdagi faoliyatlarda ishtirok etish, boshqalarga



yordam ko'rsatish, o'rtoqlar va jamoaga yordam berish, tajriba orttirish, tarkibiy qismlari bo'yicha psixo-pedagogik testlar o'tkazish kabilar muhim hisoblanadi [4]. Shuningdek, ijtimoiy faolligini tashkil etish, mas'ulligini oshirish kabilar ham o'quvchi-yoshlar shaxsini rivojlantiradi. Bunda muhim ahamiyatga ega maqsadlarni namoyon etish orqali ijtimoiy psixik holatlar, xulq-atvor, psixologik qo'llab-quvvatlash, o'git-nasihatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va mustahkamlash ishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi.

Ijtimoiy faollik muhitini yaratish uchun oliy ta'lim tizimida tarbiyaviy jarayonga e'tibor berish muhim. Tarbiyaviy jarayonda ijtimoiy faollikning samarali shakl, metod va vositalari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ijtimoiy faollik turlari sifatida mehnat, jamoaviy sharoit, estetik did va bilim egallash jarayonini belgilash mumkin.

2) ijtimoiy faollikning shakl va usullari:

a) shaxsiy topshiriqlar va amaliy vazifalar;

b) guruhlarda muhokamalar, suhbatlar, bahs-munozaralar;

v) jamoaviy uyinlar (keys, trening, taqdimot, ma'ruza, hikoya, davra suhbat).

Yuqorida ko'rsatilgan tur, shakl va metodlar o'quv tashkiliy bosqichlarga kiradi va faoliyat turlariga shaxsiy, guruh, jamoada shakllanish natijalari refleksiyasi aniqlanadi. Natijalar pedagogik sharoitlarni yaratish asosida qo'lga kiritiladi. Pedagogik sharoitga erishish uchun o'qituvchidan axborot almashuvi bo'yicha shaxsiy va rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Pedagogik jihatdan ijtimoiy faollikni rivojlantirishga yo'naltirish uchun o'qituvchi o'zining bilim doirasidan oqilona foydalanishi – shaxsiy, kasbiy layoqatini rivojlantirishga sharoit yaratishi zarur hisoblanadi. Ijtimoiy faollik o'quvchi-yoshlarning kamolotga erishish jarayonida amalga oshirilib, ma'naviy va intellektual sifatlar rivojini tezlashtiradi. Har qanday boylikdan intellektual, ya'ni insonning ma'naviy dunyosi, ijodiy sifatleri ustun turadi. Chunki har qanday boylik yangi texnika, texnologiya takomiliga ega.

Amaliy metodlar tarkibiga turli faoliyat jarayoni, masalan, ta'lim olish manbalari asosida shaxsiy kamolot: vatanparvarlik tuyg'usi, estetik did, mehnatsevarlik, umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish kiradi.

Ijtimoiy-ma'naviy mazmuni yaratish uchun insoniy sifatlar shakllanishini kuzatamiz. Pedagogik ta'limotlar tarixini o'rganish jarayonida Markaziy Osiyoning buyuk allomalari tomonidan yaratilgan bebaho asarlar tahlili orqali o'quvchi-yoshlarda umuminsoniy fazilatlarini kamol toptirish maqsadiga erishiladi. Ma'naviy-estetik tarbiya yo'nalishida Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlaridagi pand-nasihatlardan unumli foydalanish ijobiy natijalarni kafolatlashi amalda o'z isbotini topgan.



Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zidan kirib kelmaydi. Demak, bu borada o'qituvchidan bilim, ijodkorlik va kasbiy mahorat talab qilinadi. Chunki o'qituvchi faoliyati yangilanmasa, ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. O'qituvchi tomonidan bolalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishiga, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. O'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish ijtimoiy faollikning asosiy belgilari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2. Mirziyoyev Sh. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus. Elektron manba: <https://www.gazeta.uz./oz/2019/04/03/5-tashabbus/>

3. Ziyamuxamedova S, Ziyamuxamedov B. Novaya pedagogicheskaya texnologiya: teoriya i praktika. - T.: Izd-vo med. lit-ry im. Abu Ali Ibn Siny, 2002. - 118 s.

4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun metodiy tavsiyalar. - T.: TDPU, 2004. - 44 b.



UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

F.E.BOQIYEV,

Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashning konseptual asoslari, o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosida shakllangan vatanparvarlik g'oyalari, ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlash, yosh avlod ongida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Tarixiy shaxslar va buyuk allomalar merosida mujassam bo'lgan vatanparvarlik g'oyalari hamda zamonaviy pedagogik qarashlar asosida o'quvchi-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: umumiy o'rta ta'lim, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, tarixiy-madaniy meros, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat.

В статье проанализированы концептуальные основы воспитания патриотической молодежи в системе общего среднего образования, патриотические идеи, сформированные в историко-культурном наследии узбекского народа, и их значение в современном образовательном процессе. Освещены теоретические и практические аспекты сохранения национальной самобытности в условиях глобализации, формирования у подрастающего поколения чувства любви и преданности Родине. На основе наследия исторических личностей и великих мыслителей, а также современных педагогических воззрений обоснована необходимость воспитания учащейся молодежи в духе уважения к национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: общее среднее образование, патриотическое воспитание, национальные ценности, историко-культурное наследие, воспитание молодежи, духовность.

The article analyzes the conceptual foundations of educating patriotic youth in the system of general secondary education, the patriotic ideas formed in the historical and cultural heritage of the Uzbek people, and their significance in the modern educational process. Theoretical and practical aspects of preserving national identity in the era of globalization, as well as shaping the sense of love and devotion to the Motherland in the minds of the younger generation, are highlighted. Based on the heritage of historical figures and great scholars, as well as modern pedagogical views, the necessity of educating students in the spirit of respect for national and universal values is substantiated.

Key words: general secondary education, patriotic education, national values, historical and cultural heritage, youth education, spirituality.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy o'zlikni asrab-avaylash va yosh avlod ongida Vatanga sadoqat tuyg'usini mustahkamlash har bir davlatning



ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki millat taraqqiyoti va davlat barqarorligi, avvalo, uning yosh avlodining vatanparvarlik ruhida kamol topishiga bog'liq. Shu jihatdan qaralganda, O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, yuksak milliy g'oyalari asosida voyaga yetkazishni ham maqsad qilib qo'ygan.

Shu boisdan umumiy o'rta ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasining konseptual asoslarini ishlab chiqish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda, avvalo, o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, tarixiy xotira va ajdodlar merosini chuqur anglash, davlat ramzlariga sadoqatli bo'lishga o'rgatish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida dars jarayonlari, sinfdan tashqari tadbirlar, madaniy-ma'rifiy loyihalar hamda sport musobaqalari muhim tarbiyaviy omil sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar, tarixiy shaxslar hayoti va jasorati, buyuk allomalarimizning ma'naviy merosi o'quvchilarda Vatanga muhabbat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim uslublari va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish orqali vatanparvarlik tarbiyasi jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida vatanparvar yoshlarni tarbiyalash jarayoni milliy qadriyatlarga, tarixiy-madaniy merosga, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayanadi. Bu borada A. Saidov (2015)ning fikrlari e'tiborga molik: «milliy g'oya va ma'naviy merosga asoslangan ta'lim jarayoni yoshlarni Vatan va xalq manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida qabul qilishga undaydi».

Darhaqiqat, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va yozma manbalarida vatanparvarlik g'oyalari keng o'rin olgan. Xalq dostonlari, qo'shiqlari, maqollari hamda afsonalarida yurtni sevish, uni himoya qilish, xalq manfaatini ustun qo'yish g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Masalan, «Alpomish», «G'urug'li» kabi eposlarda qahramonlarning asosiy maqsadi Vatan ozodligi va xalq tinchligini ta'minlash bo'lib, bunda fidoyilik, jasorat va sadoqat asosiy fazilat sifatida targ'ib qilinadi. Shuningdek, yozma manbalarda ham vatanparvarlik yuksak qadriyat sifatida ulug'langan. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi allomalar asarlarida insonning Vatan oldidagi burchi, xalq manfaatiga xizmat qilish, el-yurt ozodligi uchun kurashish g'oyalari asosiy mavzulardan biri sifatida ko'zga tashlanadi.

Xalq maqollari ham yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi: «Elga xizmat qilmagan, yurtga sodiq bo'lmas», «Elning baxti



– Vatanning qudrati» kabi hikmatlar yoshlarni ona yurtga muhabbat, sadoqat va mas’uliyat bilan qarashga undaydi.

Tarixiy-madaniy merosimizda mujassam bo‘lgan vatanparvarlik g‘oyalari bugungi kunda ham yoshlarni barkamol inson sifatida shakllantirish, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va Vatan oldidagi burchini anglashda asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, xalq dostonlari, qo‘shiqlari va rivoyatlarida ham Vatan sha’ni, erkinligi va obodligi uchun kurashgan qahramonlar timsoli o‘z ifodasini topgan.

Bunday ma’naviy boyliklar yoshlar qalbida milliy g‘urur, tarixiy xotira va ajdodlarga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular zamonaviy hayotda ham o‘z Vatanning ravnaqi uchun mas’uliyatli bo‘lishga, bilim va mehnati bilan yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shishga undaydi. Demak, xalq og‘zaki ijodi va tarixiy-madaniy merosimizni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda keng qo‘llash, yosh avlodda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir.

Avvalo, qahramonlik dostonlari milliy o‘zlik va Vatan sha’ni ulug‘lashda muhim o‘rin tutadi. Masalan, «Alpomish» dostoni yurt manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish, millat sha’ni himoya qilish g‘oyalarini ifodalaydi. Adabiyotshunos O. Sharafiddinov uni «xalqning o‘zligini anglatadigan ma’naviy konstitutsiya» sifatida baholagan.

Sharq mutafakkirlari asarlarida ham Vatan ravnaqi va xalq farovonligi asosiy g‘oya sifatida talqin etilgan. Alisher Navoiy insonning eng oliy burchi Vatan uchun xizmat qilish ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanni Vatan manfaatini uchun xizmat qildirishni yuksak qadriyat deb bilgan.

Tarixiy shaxslarning jasorati yoshlar uchun beqiyos ibrat maktabi hisoblanadi. Xususan, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi qahramonlarning fidoyiligi va Vatan sha’ni himoya qilish yo‘lidagi matonati bugungi avlod uchun ham sadoqat namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz tarixchisi D. Morgan Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashini «mardona ozodlik harakati» deb ta’riflagani bejiz emas. Zero, bu tarixiy shaxslarning jasoratlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham yoshlar qalbida milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, xalqimizning milliy urf-odatlari va marosimlarida ham vatanparvarlik g‘oyalari mujassamdir. Xususan, Navro‘z bayrami, xalq qo‘shiqlari, maqollari va rivoyatlarida birlik, hamjihatlik va yurt sha’ni ulug‘lash g‘oyasi targ‘ib etilgan. «El bilan yurt obod» maqoli buning yaqqol dalilidir. Shuningdek,



to'y va marosimlarda kuylanadigan xalq qo'shiqlarida ham Vatan tinchligi, el-ulusning totuvligi, farzandlarni Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash kabi g'oyalar ilgari suriladi. Maqol va matallarda esa insonning halollik, mardlik va fidoyilik fazilatlarini, Vatan oldidagi mas'uliyatini chuqur his qilish zarurligi ta'kidlanadi. Shu jihatdan milliy qadriyatlarimiz yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda bebaho ma'naviy manba hisoblanadi.

Olimlarning ilmiy qarashlari va zamonaviy yondashuvlar

– A. Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida tarbiyani millat kelajagini belgilovchi asosiy kuch sifatida baholagan.

– I. Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida vatanparvarlikni yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashning bosh mezoni sifatida ko'rsatgan.

– H. Yo'ldoshev (2019) vatanparvarlikni «fuqarolik burchi va mas'uliyati» bilan bog'liq tushuncha sifatida izohlagan.

– T. Lickona (1991) yoshlar ongida milliy g'ururni uyg'otish demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil ekanini ta'kidlagan.

– R. Smith (2003) esa milliy tarix va folklorini ta'lim jarayoniga kiritish yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali ekanini ko'rsatgan.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida CHYOT (Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash), tarix, adabiyot va tarbiya darslari orqali o'quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlar shakllantirilmogda. Mazkur fanlar o'quvchilarning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki ularning tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga hurmat va yurt ravnaqi uchun mas'uliyatli bo'lish fazilatlarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari:

«Temurbeklar maktabi» – yoshlarni yuksak maqsadli, qat'iyatli, intizomli va Vatanga fidoyi shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qilmogda;

«Vatanparvar» harbiy-sport o'yinlari – o'quvchilarda jismoniy chiniqish, kuch-g'ayrat, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, Vatan himoyasiga doim tayyor turish ruhini uyg'otmogda;

«Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarashli yoshlar» dasturi esa yoshlarda yangicha tafakkur, keng dunyoqarash, tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik hamda ma'naviy-axloqiy barkamollikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmogda.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim tizimida vatanparvar yoshlarni tarbiyalash – jamiyatning barqaror taraqqiyoti va milliy xavfsizligini ta'minlovchi



eng muhim omillardan biridir. Zero, tarixiy-madaniy merosimiz, buyuk allomalarimizning qarashlari, xalq og‘zaki ijodi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligida amalga oshirilgan vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va mas‘uliyat hissini kamol toptiradi. Natijada, ular nafaqat ilm va bilim egasi, balki o‘z kelajagini Vatan ravnaqi bilan chambarchas bog‘lay oladigan, jamiyat oldidagi burchini teran anglaydigan komil shaxslar bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2023-yil 29 iyundagi 267-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 11 maydagi «Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-241-son Qaror
3. Najimitdinov M. K. «Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash». Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal «Nauchnyy impuls» № 21 (100), chast 2
4. Juraev B.X. «Vatanparvarlik» O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnal. 13-son. 2022.
5. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.
6. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., «Sahhof», 2023. 392-bet.
7. Ota-ona – murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov; - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
8. X.Ibraimov va boshqalar. Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. - 60 b.
9. X.Ibraimov va boshqalar. Go‘zal hulq modellari. - Toshkent.: «Ilm ziyo zakovat» nashriyoti. -2025 y. 80-b.
10. X.Ibraimov va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025. - 68 b.
11. X.Ibraimov va boshqalar. Milliy tarbiya xrestomatiyasi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun. - Toshkent.: «Ilm ziyo zakovat» nashriyoti. -2025 y. 180-b.



MAKTAB TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILAR TOMONIDAN JAMIYATDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH

A. B. AVLAEV,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil izlanuvchi,
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori*

Maqolada globallashuv sharoitida maktab va oila hamkorligiga asoslangan tarbiyaviy yondashuv o'quvchilarning o'ziga, ta'lim jarayonining boshqa subyektlariga, o'qitish jarayonining o'ziga, bilish obyektlariga va o'quv faoliyati natijalariga nisbatan qadriyatli munosabatlar tizimini shakllantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. *Globallashuv muhitida maktab va oilaning samarali hamkorligi, ma'naviy-axloqiy sohasini tarbiyalash, aksiologik salohiyatga ega, metapredmet o'quv ko'nikmalarini shakllantirish.*

В статье рассматриваются возможности формирования системы ценностных отношений учащихся по отношению к самому себе, другим субъектам образовательного процесса, самому процессу обучения, объектам познания и результатам учебной деятельности на основе воспитательного подхода, основанного на сотрудничестве школы и семьи в условиях глобализации.

Ключевые слова. *Эффективное сотрудничество школы и семьи в условиях глобализации, воспитание духовно-нравственной сферы, формирование аксиологических имеющих потенциал, метapредметных навыков обучения.*

The article reflects on the possibilities of forming a system of valuable attitudes in relation to the students themselves, other subjects of the educational process, the teaching process itself, objects of knowledge and the results of educational activities, an educational approach based on school and family cooperation in the context of globalization.

Key words. *Effective cooperation of the school and family in the atmosphere of globalization, the upbringing of the spiritual and moral sphere, the formation of axiological with potential, metapredmet learning skills.*

Ma'naviy-axloqiy tarbiya umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq maktab o'quvchilari ta'limi mazmunining uzviy qismi hisoblanadi. Maktab ta'limi jarayonida o'quvchilar tomonidan jamiyatda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini namoyon qilish, o'z qadr-qimmatini, hayot mazmunini, hayotiy tanlovini anglash, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan umuminsoniy va ijtimoiy-madaniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni anglash sodir bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchilarga belgilangan namunalar ko'rinishidagi ijtimoiy ahamiyatga ega me'yorlarni egallash va o'z xulq-atvorida ularga amal qilish imkonini beradi.



Umumiy o'rta ta'limning asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishning metapredmet natijalariga globallashuv muhitida alohida ahamiyat kasb etuvchi qator kompetensiyalar kiradi. Bular jumlasiga axborot bilan ishlash, uni tanqidiy tahlil qilish, turli manbalardan foydalanish madaniyatini egallashga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirish kabilar kiradi, bularsiz zamonaviy axborotlashgan jamiyatda o'quv va keyingi kasbiy faoliyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, globallashuv muhitida maktab va oilaning samarali hamkorligi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sohasini tarbiyalashda katta aksiologik (qadriyatli) salohiyatga ega, chunki bu hamkorlik axborot bilan ishlash va uni taqdim etish bo'yicha deyarli barcha metapredmet o'quv ko'nikmalarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

«Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida o'quvchilarning kompetensiyasini umumiy foydalanish darajasida shakllantirish va rivojlantirish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallash, axborotni izlash, tuzish va uzatish, bajarilgan ishlarni taqdim etish, axborot xavfsizligi asoslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va Internet tarmog'idan xavfsiz foydalanish ko'nikmalari» – globallashuv sharoitida mutlaqo barcha fan sohalarini o'zlashtirish uchun zarurdir.

Globallashuv muhitida maktab va oila hamkorligi orqali erishilishi lozim bo'lgan natijalar «kompyuter dasturlari va Internetda ishlashda xavfsiz va maqsadga muvofiq xulq-atvor ko'nikma va malakalarini shakllantirish, axborot etikasi va huquqi normalariga rioya qilish ko'nikmalarini» aks ettirishi kerak, buning o'zi o'quvchining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligi ko'rsatkichidir.

Ta'lim dasturlari – maktab ta'lim jarayonida o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash vazifalarining ustuvorligini tasdiqlaydi. «Shaxsiy tanlov asosida axloqiy muammolarni hal qilishda rivojlangan axloqiy ong va kompetentlik, axloqiy his-tuyg'ular va axloqiy xulq-atvorni, o'z xatti-harakatlariga ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish (o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati; diniy bag'rikenglik, odamlarning diniy his-tuyg'ulari, qarashlari yoki ularning yo'qligiga hurmat bilan munosabatda bo'lish; yurtimiz xalqlarining madaniy an'analari saqlanadigan asosiy axloq normalari, axloqiy, ma'naviy ideallarni bilish, ular asosida xatti-harakatlar, xulq-atvor, isrofgarchilik iste'molida ongli ravishda o'zini cheklashga tayyorlik; dunyoviy etika, an'anaviy dinlar madaniyati, ularning insoniyat madaniyati va tarixini rivojlantirishdagi, fuqarolik jamiyati va davlatchiligini shakllantirishdagi o'rni haqida tasavvurlarning shakllanganligi; inson, oila va jamiyat hayotida axloq, e'tiqod



va dinning ahamiyatini tushunish). O'qishga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish; mehnatga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy ahamiyatga ega mehnatda ishtirok etish tajribasining mavjudligi. Inson va jamiyat hayotida oilaning ahamiyatini anglash, oilaviy hayot qadriyatlarini qabul qilish, o'z oila a'zolariga hurmat va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish».

Odatda, ma'naviy-axloqiy tarbiya asosan darsdan tashqari mashg'ulotlarda va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda amalga oshiriladi, deb hisoblanadi, biroq ta'lim dasturlari tahlili shuni ko'rsatdiki, globallashuv muhitida samarali maktab-oila hamkorligi orqali shakllantiriladigan asosiy shaxsiy natijalar bevosita maktab o'quvchisining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligi bilan bog'liqdir. Xususan, bunday hamkorlik natijasida o'quvchida quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:

– shaxs, davlat, jamiyat rivojlanishining eng muhim strategik resursi sifatida axborot haqida tasavvurlarning mavjudligi; zamonaviy dunyoda axborot jarayonlarining o'rini tushunish;

– axborotning tarqalishining huquqiy va axloqiy jihatlarini hisobga olgan holda unga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish;

– olinayotgan axborotni tahlil qilish va tanqidiy baholashning birlamchi ko'nikmalarini egallash;

– atrofda axborot muhitining sifati uchun shaxsiy javobgarlik hissini rivojlantirish;

– o'quv mazmunini o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lay olish qobiliyati, globallashuv sharoitida axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida tayyorgarlikning ahamiyatini tushunish;

– zamonaviy vositalar va usullardan foydalanib, o'z ta'lim darajasini oshirishga va ta'limni davom ettirishga tayyorlik;

– ta'lim, ijtimoiy foydali, o'quv-tadqiqot, ijodiy faoliyat va boshqa jarayonlarda tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish va hamkorlik qilish qobiliyati va tayyorligi.

Shunday qilib, o'quvchilar ta'limi mazmunini tartibga soluvchi hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchisi shaxsini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ustuvor ahamiyat beriladi. Globallashuv muhitida maktab va oila hamkorligi bu borada katta salohiyatga ega, ammo undan to'liq foydalanilmayapti. Bu globallashuv muhitida maktab va oila o'zaro munosabatlari vositasida o'quvchini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik modelni ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi.



Maqsad aslida ta'lim orqali amalga oshiriladigan, O'zbekistonning kelajakdagi to'laqonli fuqarolariga nisbatan jamiyatning ijtimoiy-aksiologik buyurtmasini tegishli pedagogik atamalar bilan ifodalaydi. Modellashtirilayotgan jarayonning maqsadi modelning boshqa komponentlariga nisbatan tizim tashkil etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi va bu holda o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligini: axloqiy dunyoqarashni, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga ongli munosabatni, axloqiy his-tuyg'ularni, vijdonli, mas'uliyatli xulq-atvorni va fuqarolik o'zligini shakllantirishdan iborat.

Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal qilishni taqozo etadi:

1. O'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishlari uchun maktab va oila hamkorligiga asoslangan optimal pedagogik sharoitlarni yaratish;

2. Ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar doirasida o'quvchilarning «dunyo manzarasi»ga o'z vaqtida pedagogik ta'sir o'tkazish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishga (refleksiyaga) undash orqali o'quvchilarni mustaqil axloqiy tanlovga rag'batlantirish.

Ikkinchi vazifaga kelsak, «dunyo manzarasi» tushunchasi nisbatan yangi, ammo ilmiy muhokamalarda allaqachon talabgir ekanini ta'kidlash lozim. Zamonaviy olimlar tomonidan dunyo manzarasi odatda tabiat, jamiyat, madaniyat, tarix, sotsiumdagi odamlarning o'zaro munosabatlari va xulq-atvor normalari haqidagi tasavvurlar tizimi sifatida tushuniladi. Aan shu tasavvurlar odamlarning hayotda amal qiladigan qadriyatli yo'nalishlari va axloqiy tamoyillarini belgilaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida «dunyo manzarasi»ga o'z vaqtida pedagogik ta'sir o'tkazish zarurati shundaki, globallashtirish sharoitida axborot oqimiga sho'ng'ish natijasida o'quvchilar ko'pincha dunyo haqidagi buzilgan tasavvurlarga yoki buzilgan dunyo manzarasiga amal qiladilar. Bunga ommaviy axborot vositalari faol yordam beradi, ular «tushunchalar ierarxiyasi mavjud bo'lgan an'anaviy gumanitar madaniyatni, axloqiy tayanch nuqtasi bo'lmagan, ko'plab fragmentlar rivojlanishidan atrof-muhit manzarasi shakllanadigan mozaik madaniyatga aylantirish» g'oyasini maqsadli ravishda amalga oshiradilar. Shu munosabat bilan, biz o'quvchilarning qadriyatli yo'nalishlariga pedagogik ta'sirni maktab va oila hamkorligi vositasida o'quvchilar tomonidan o'quv materialini ijobiy tahlil qilishni rag'batlantirish va o'quvchi ongida adekvat dunyo manzarasi-ning ma'naviy-axloqiy asoslarini shakllantirish deb tushunamiz.

Globallashtirish sharoitida maktab va oila hamkorligi bu jarayonda alohida o'rin



tutadi, chunki u o'quvchilarning dunyoqarashini va ularning axborotni qayta ishlash bilan bog'liq metapredmet ko'nikmalarini shakllantiradi, bular barcha o'quv fanlarini o'rganishda dolzarbdir. Bu yondashuv katta tarbiyaviy resursga ega bo'lib, uni amalga oshirish pedagogik tamoyillarga, ya'ni ta'limning yo'nalishini, mazmunini, shakllari va usullarini tanlashni belgilovchi rahbariy g'oyalarga tayanish bilan bog'liq. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tamoyillarini belgilashda biz birinchi navbatda ilmiylik, tushunarlilik, tizimlilik, izchillik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ko'rgazmalilik va boshqa didaktik tamoyillarga tayandik. Bundan tashqari, tadqiqot maqsadini va globallashuv muhitida maktab-oila hamkorligining ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini hal qilishdagi o'ziga xos rolini hisobga olib, biz o'rganilayotgan jarayon samaradorligini oshiradigan bir qator tamoyillarni aniqladik va asosladik.

Didaktik materialning ma'naviy-axloqiy tarkibiy qismining ustuvorligi tamoyili axborotni o'quvchining qadriyatlar tizimi (aksiosfera)ni shakllantiruvchi ma'no hosil qiluvchi omil sifatida tan olishni nazarda tutadi. Bu, globallashuv sharoitida maktab va oila hamkorligi orqali, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy-axloqiy yo'naltirilgan axborotni maqsadli tanlashni taqozo etadi. O'quvchilar zamonaviy hayotning turli jihatlarini (masalan, axborot muhiti, inson va axborot munosabatlari, ijtimoiy modellashtirish kabi mavzularni) o'zlashtirish jarayonida aynan shunday axborot bilan ishlashlari kerak bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik (zamonaviy vositalar) va aksiologik (qadriyatli) komponentlarini to'g'ri nisbatda olib borish tamoyili asosida umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida shakllantirilgan ta'lim-tarbiya maqsadlarini teng huquqlilik va izchil amalga oshirish g'oyasi yotadi. Bu maqsadlar, bir tomondan, axborot jarayonlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek, zamonaviy vositalar yordamida turli xil axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bog'liq. Boshqa tomondan esa, olingan axborotning zamonaviy dunyo manzarasini shakllantirishdagi rolini tushunishga asoslangan holda unga nisbatan tanlovchan munosabatni tarbiyalash bilan bog'liq. Bu axborotning tarqalishining huquqiy, axloqiy va ma'naviy jihatlarini hisobga olgan holda unga nisbatan mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashni taqozo etadi.

O'quvchilarning «dunyo manzarasi»ni shakllantirish va tuzatish usullarini tanlashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili shu bilan bog'liqlik, o'quvchilik yoshi, bir tomondan, namoyishkorona xatti-harakatlar, impulsivlik, ta'sirchanlik, kattalarga o'z ta'siri doirasini kengaytirishga intilish kabi emotsional beqarorlik bilan tavsiflangani uchun juda murakkabdirlar. Boshqa tomondan,



o'quvchilarda mustaqillik rivojlanadi, qadriyatlar haqidagi tasavvurlar qayta ko'rib chiqiladi, o'z qadriyatlar ierarxiyasi shakllanadi, bu esa «dunyo manzarasi»ni tuzatish va ma'naviy-axloqiy tarbiya uchun qulay psixologik zamin hisoblanadi. Shu sababli, maktab va oila hamkorligidagi yondashuvlar ushbu yosh xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

Ko'p madaniyatlilik qadriyatlari va bag'rikenglik kontentini alohida matritsaga ajratish zamonaviy maktab o'quvchisining migratsiya jarayonlari va «madaniyatlar muloqoti» bilan tavsiflanadigan jadal o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhitga sho'ng'iganligi bilan bog'liq. Ko'p madaniyatli ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilar tomonidan gumanizm va bag'rikenglik qadriyatlarini ichkilashtirishi (interiorizatsiyasi), shuningdek, turli xalqlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga e'tibor qaratish zarur, bu esa shaxsning jahon madaniy va ta'lim makoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Bu jarayonda maktab va oilaning yo'naltiruvchi roli kattadir.

Aksiologik bosqichda, o'quvchilar ongida asosiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mazmun, usul va vositalar orqali yetkazish va dolzarblashtirish ko'zda tutilganda, asosan ta'limni tashkil etishning jamoaviy (omniy) shaklidan foydalaniladi (masalan, oilaviy davradagi suhbatlar, maktab miqyosidagi oilaviy tadbirlar). Uning doirasida quyidagi usullar qo'llaniladi: taqdimot usuli; hikoya qilish (hissiy kechinmalar orqali o'rgatish g'oyasini amalga oshiruvchi rag'batlantiruvchi qiziqarli mazmunda); virtual ekskursiya; syujetli rasm chizish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ-637-сонли «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги «Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ- 5812-сонли Фармони. www.lex.uz
4. «Мақтаб – ота-она – маҳалла» ҳамкорлиги узвий ташкил этилади – Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги – расмий хабарлар, тезкор янгиликлар, таҳлилий-танқидий материаллар, қонун ҳужжатлари, фото ва видеорепортажлар, дата последнего обращения: апреля 11, 2025, https://uz.uz/uz/posts/maktab-ota-ona-mahalla-hamkorligi-uzviy-tashkil-etiladi_567716



KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARBIYAVIY JARAYONLARNI LOYIHALASHGA TAYYORLASH OMILLARI

F.X.IBRAIMOVA,

Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

Bo‘lajak o‘qituvchi tarbiyaviy jarayon tarkibiga uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan o‘zgartirishlar kiritishi talab etiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi hamda o‘quvchi-larning faoliyati ham kiritilgan o‘zgarishlarga muvofiq kelishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv yondashuv asosida tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashning mazmuni, omillari va muhim vositalari haqidagi fikrlar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash, kognitiv yondashuv, bo‘lajak o‘qituvchilar, talabalar.

The future teacher is required to make changes to the educational process that correspond to its goals and objectives. In this process, it is important that the activities of the teacher and students also correspond to the changes introduced. This article reflects ideas about the content, factors and important tools for preparing future teachers to design educational processes based on a cognitive approach.

Key words: educational process, design of educational processes, cognitive approach, future teachers, students.

Tarbiyaviy jarayon loyihasi – bo‘lajak o‘qituvchi ijodiy izlanishining dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, ushbu jarayonni samarali tashkil etish vositasi hisoblanadi. Loyihada bo‘lajak o‘qituvchining fikrlari, g‘oyalari, qarashlari, yondashuvlari, iqtidorlari, layoqatlari o‘z ifodasini topadi. Unda tarbiyaviy jarayon mavzusi, sinfdagi o‘quvchilarning shaxsiy sifatleri, rivojlanish darajalari, layoqatlari aks etadi. Tarbiyaviy jarayon maqsadlari pedagogik vaziyatlarda oydinlashtiriladi. Tarbiyaviy jarayonda o‘zlashtiriladigan didaktik materiallarining mazmuni o‘z ifodasini topadi. O‘quvchilarning rivojlanish darajalari, shakllari, vositalari, metodlari, topshiriqlar tizimi, vazifalarda namoyan bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘zlashtirgan axborotlarini faollashtirish, ularda tayanch kompetensiyalarni tizimli tarzda shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi. O‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar, xulq-atvor ko‘rinishlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llash tajribalari o‘z ifodasini topadi. Tarbiyaviy jarayonning loyihasida uning tarkibi oydinlashtiriladi, turli ish turlariga taqsimlanadigan vaqt me‘yorlashtiriladi, o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy jihatdan rivojlanish darajalarini tekshirish va nazorat qilish usullari ko‘rsatiladi.



Tarbiyaviy jarayonning muvaffaqiyati nafaqat o'qituvchining unga astoydil tayyorlanishi, balki o'quvchilarning unga tayyorliklari hamda tarbiyaviy jarayon loyihalasining muvaffaqiyatli tuzilganligiga ham bog'liq. Ayni bir mavzudagi tarbiyaviy jarayonlar tizimida o'quvchilarni navbatdagi tarbiyaviy jarayonga tayyorlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– o'quvchilarni navbatdagi tarbiyaviy jarayonda amalga oshiradigan ishlar rejasi bilan tanishtirish;

– o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonlikning alohida mavzulari yoki bo'limlari bilan tanishishga yo'naltirish;

– o'quvchilarning yangi didaktik materiallarini o'zlashtirish imkonini beradigan tajribalarni o'rganishlariga sharoit yaratish kabilar.

Chunki bugungi kunda tarbiyaviy jarayon sifatiga muayyan ijtimoiy omillar ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash ko'nikmasini puxta egallashlari uchun mana shu omillarni yaxshi bilishlari kerak. Ular quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatda axborot oqimining tezlashuvi, ijtimoiy tarmoqlarga o'quvchilarning tobora ko'proq bog'lanib qolayotganligi;

2. «Ommaviy madaniyat»ning yoshlarga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirining ortib borayotganligi;

3. Shaxslararo munosabat va tolerantlik sifatlarini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyojning kuchayotganligi;

4. Tarbiyaviy jarayonlarning funksiyasini kengaytirish zaruriyatining kuchayotganligi;

5. Tarbiyaviy jarayonlarning sifatini oshirishga xizmat qiladigan metodikalarining qo'llashga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelayotganligi kabilar.

Biz oliy pedagogik ta'limning sifati ustida fikr yuritish jarayonida dastlab ta'lim sifati tushunchasiga to'xtalamiz. Ta'lim sifati – 1. ta'lim jarayoni subyektlari erishadigan natijalari va maqsadlarining o'quv muassasasi tomonidan ko'rsatilgan pedagogik xizmat yordamida qondirilish darajasini ifodalovchi ko'rsatkich. 2. ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalarga erishilganlik darajasini ifodalovchi tushuncha.

Ta'lim sifati quyidagi o'ziga xos uchta jihat bilan ajralib turadi: ta'lim natijalari va maqsadlarining aniq pedagogik tizim yoki o'quv muassasasi darajasiga mosligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; o'quvchi yoki bo'lajak o'qituvchi tayyorgarlik darajasining belgilangan parametrlarga muvofiqligi; ta'lim jarayoni subyektlarining nazariy bilim va ko'nikmalarni shaxsiy-kasbiy faoliyatda qo'llay olish darajasi[.].



Ta'lim sifati o'ziga xos usullar yordamida aniqlanadi. Ular:

- oliy pedagogik ta'limga bo'lgan ehtiyojlarning kelib chiqishini aniqlash;
- mavjud bo'shliqlarning aniqlanishi va bartaraf etilishini ta'minlash;
- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan muntazam takomillashish layoqatiga ega bo'lishlariga erishish;
- ta'lim maqsadlarining o'zaro mosligini ta'minlash;
- ta'lim mazmuni va egallangan kasbiy bilimlarning oliy pedagogik ta'lim mazmuniga mos bo'lishiga erishish;
- tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash kabilar.

Ta'lim sifatini belgilovchi ushbu hodisalar orasida o'zaro aloqadorlik mavjud. Ulardan har biri ta'lim sifatining muayyan yo'nalishini ifodalaydi. Biz quyidagi ikki holatga alohida e'tibor qaratdik: 1) ta'lim maqsadlarining o'zaro mosligi; 2) tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning raqobatbardoshligi.

Har bir shaxs oldida turgan muhim vazifalardan biri o'z o'zini shaxsiy-kasbiy jihatdan rivojlantirishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchi uchun kasbiy ijodkorlik muhim ahamiyatga ega. Oliy pedagogik ta'lim sifatini ta'minlash uchun bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlik, shu jumladan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash kompetensiyasini tizimli tarzda shakllantirish talab etiladi. Ta'lim maqsadlarini aniqlashda ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni aniq hisobga olish talab qilinadi.

Zamonaviy nuqtai nazardan yondashganda ta'lim sifati muhim pedagogik kategoriya sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatleri bilan o'zaro aloqadordir. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini aniqlash zaruriyati mavjud ekan, bu birinchi navbat oliy pedagogik ta'lim sifati bilan bog'liq. Shu bilan bir qatorda ta'lim dasturlarida tanlangan istiqbolli yo'nalishlar sirasiga insonni kamol toptiradigan, uni kognitiv jihatdan rivojlantiradigan, kasbiy pedagogik sifatlar modelini yaratishga asos bo'ladi. Chunki ta'lim inson kapitalini shakllantiradi. Bu o'z navbatida, moddiy-ma'naviy boylıklar bilan uyg'unlashadi. Shu asosda kasbiy sifatlarining rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda sifat tushunchasi ikki yo'nalishda tahlil etilmoqda:

1. Talablar, ehtiyojlar va kutilayotgan natijalarni qanoatlantiruvchi amaliy yo'nalishlar sifatida;

2. Obyektlar va hodisalarning xarakterini ochib beruvchi texnik yo'nalish, sifatni tavsiflovchi tushunchalar yig'indisi tarzida.



Bugungi kunga kelib oliy pedagogik ta'lim mazmunini yangi talqin etishga oid g'oyalar, qarashlar va strategiyalar shakllanmoqda. Shunga ko'ra ta'lim mazmunini yangilashda quydalilarga e'tibor qaratish taqozo qilinmoqda:

- 1) bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan bilimlarni tanlash va tizimlashtirish;
- 2) bo'lajak o'qituvchilarda bilimlarni puxta egallash motivlarini shakllantiradigan prinsiplarga tayangan holda didaktik birliklarni tanlash;
- 3) pedagogik jarayon sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan didaktik vositalar va ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish;
- 4) pedagogik jarayonlarda yuqori kasbiy layoqatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning faol o'qitish texnologiyalaridan foydalanishlariga erishish;
- 5) ta'lim mazmunini ifodalovchi o'quv rejaları va dasturlari orasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash;

6) raqamli ta'lim resurslarining samarali boshqarilishi, o'zaro mos tarzda taqsimlanishi, ulardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanilishiga erishish orqali.

Oliy pedagogik ta'lim mazmuni haqida fikr yuritilganda dastlab uning maqsadi va vazifalari orasidagi mutanosiblikni ta'minlash haqida o'ylash talab etiladi. Oliy pedagogik ta'lim mazmuni bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlik, shu jumladan tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga oid ko'nikmalarni shakllantirishna nazarda tutish talab etiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni samarali o'zlashtirishlariga erishish, bu sohadagi tajribalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, uni pedagogik amaliyotga ijodiy tatbiq etish yo'llarini bilishlari, buning uchun pedagogika va psixologiyaga oid innovatsion yondashuvlarni bilishlari va unga tayanishlari, ular ustida kreativ fikrlay olish layoqatiga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Bo'lajak o'qituvchilarga umumpedagogik bilimlarni singdirish oliy pedagogik ta'lim mazmunining asosiy negizini tashkil qiladi. Umumpedagogik tayyorgarlikning umumiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish bu sohada vujudga kelgan bo'shliqlarni, ularning ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini aniqlash natijalari ijodiy fikrlovchi pedagoglarni tayyorlashda bir qator muammolar mavjudgini ko'rsatmoqda. Buning natijasida yosh pedagoglar tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash va tashkil etish ko'nikmasiga yetarlicha ega emasliklari va ular umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga qo'yilayotgan talablarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelayotganliklari ayon bo'lmoqda. Eng muhim vazifalardan biri mavjud kamchiliklarni tahliliy, tanqidiy o'rganish, pedagogik fanlarini o'qitish sohasida innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish va tatbiq qilishda iborat.



Bugungi kundagi o'qituvchilar tayyorlash tizimiga faqatgina har tomonlama chuqur tahlil asosida aniq tavsif berish mumkin. Mazkur jarayonni tavsiflashda, bir tomondan, uning tarkibi, mazmuni, metodlari, ikkinchi tomondan pedagogika oliy o'quv yurtlarida yosh olimlar faoliyati sifatini o'rganish asosida yondashiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning tarkibi va mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturi, tarbiyaviy jarayonliklar va pedagogika turkum fanlari bo'yicha tuzilgan o'quv qo'llanmalarida o'z ifodasini topadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorlashning ilmiy pedagogik yo'nalishlari, ularni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga o'rgatish usullari nazariy jihatdan yetarlicha asoslanmagan. Shuning uchun ham biz bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashning mazmuni uning nazariy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr yuritishga harakat qildik. Buning uchun pedagogik-psixologik bilimlarning o'zaro integratsiyasiga e'tibor qaratdik. Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilarga umumpedagogik bilimlarni taqdim etishda kognitiv yondashuvga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Asosiy e'tibor bo'lajak o'qituvchilarning nazariy tayyorgarligini ta'minlashga qaratilmoqda, pedagogik amaliyot davrida esa bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash faoliyatiga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ijodiy ishlariga yetarlicha vaqt ajratilmaydi. Amaliy mashg'ulotlarda tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

Pedagogik ta'lim mazmunini kognitiv yondashuv asosida boyitishda bir qator omillarga tayanish talab qilinadi. Ular:

- kognitiv yondashuvga asoslangan pedagogik ta'lim mazmunini yangi ilmiy axborotlar bilan boyitish;
- ta'lim vositalarining pedagogik-psixologik bilimlarga tayangan holda integratsiyalash;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchining tayanch hayotiy kompetensiyalar va kasbiy bilimlarini kengaytirish;
- yangi kasbiy-madaniy qiyofaga ega bo'lgan o'qituvchini tayyorlash va uning kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish;
- bo'lajak o'qituvchilarda butun hayot davomida kasbiy bilimlar va pedagogik tajribalarni o'zlashtirish motivlarini shakllantirish kabilar.

Mazkur omillar ta'lim sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda ta'lim sifati hamda o'qituvchining kasbiy faoliyati haqidagi nazariy-amaliy yondashuvlarni boyitadi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining malaka sifatini ta'minlash umumiy o'rta ta'lim muassasasining buyurtmasiga asoslangan holda uning kasbiy mahoratini rivojlantirish, egallangan bilimlar darajasining sifati umumiy o'rta ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi hayotiy faoliyatining turli sohalarini rivojlantirish layoqati, butun umr davomida bilim olishga



bo'lgan barqaror motivlar, bo'lajak o'qituvchining kognitiv ko'nikmalarini ta'minlashga asos bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimining asosiy mazmun-mohiyati o'quvchining intellektual imkoniyatlarini kengaytirish va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdan iborat. Bunda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish traektoriyalaridan kelib chiqqan holda ularni tarbiyalash yo'nalishlari belgilanadi. Bugungi kunda o'quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantirish nazarda tutilmoqda: tashabbuskorlik, mustaqil qarorlar qabul qilish, uzluksiz o'qib o'rganish va munosib kasb tanlash motivlariga, faol fuqarolik potsichiyasi, axloqiy tanlovni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish kabilar. Bu sifatlar o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish imkonini beradi. Bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy jarayonlarni loyihlashda o'quvchilarda mazkur sifatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son «2022 - 2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.

2. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika[Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.

3. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., "Sahhof", 2023.392-bet.

4. Ота-она - мураббий [Матн] / Х.Ибраимов, М.Курунов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; - Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. - 220 б.

5. Ibragimova F.X. Bo'lajak o'qituvchilarni kognitiv ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishga tayyorlashning pedagogik jihatlari// «Xalq ta'limi» ilmiy metodik jurnali, 2024 № 1-son. -B. 122-125.

6. Ibragimova F.X. Развитие профессионального творчества будущих учителей с помощью когнитивных заданий// Pedagogika, ilmiy-nazariy va metodik jurnali, 2024 № 3-son. -B. 3-7.

7. Ибрагимова Ф.Х. Когнитив yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlash mexanizmlari// Xalq ta'limi, ilmiy metodik jurnali, 2024 № 6-son. -B.7-11.



QIZLAR TARBIVASINING MA'NAVIV-AXLOQIV VA MILLIV QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

D.I. CHORIYEVA,

*Qori Niyoziv nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliv instituti katta ilmiy xodimi*

Ushbu maqolada qizlar tarbiyasining jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlod kamolotidagi o'rni yoritilgan. Unda oilada, maktabda va ijtimoiy muhitda qiz bolalar uchun ma'naviy-axloqiv tarbiyaning ahamiyati tahlil qilinadi. Qizlar tarbiyasida milliv qadriyatlar, odob-axloq me'yorlari, ta'lim-tarbiya jarayonida ota-ona va ustozlarning mas'uliyati, shuningdek, zamonaviy tarbiya usullarining qo'llanilishi muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: qizlar tarbiyasi, ma'naviyat, odob-axloq, milliv qadriyatlar, oilaviy tarbiya, ta'lim, jamiyat, vatanparvarlik, or-nomus, ustoz, ota-ona, tarbiya usullari.

В статье рассматривается роль образования девочек в развитии общества и формировании будущего поколения. Анализируется значение духовно-нравственного воспитания девочек в семье, школе и социальной среде. В качестве важных факторов воспитания девочек указаны национальные ценности, моральные нормы, ответственность родителей и учителей в образовательном процессе, а также использование современных методов воспитания.

Ключевые слова: образование девочек, духовность, нравственность, национальные ценности, семейное воспитание, образование, общество, патриотизм, честь, учитель, родители, методы воспитания.

This article highlights the role of girls' education in the development of society and the development of the future generation. It analyzes the importance of spiritual and moral education for girls in the family, school and social environment. National values, moral standards, the responsibility of parents and teachers in the educational process, as well as the use of modern educational methods are indicated as important factors in the education of girls.

Key words: girls' education, spirituality, morality, national values, family education, education, society, patriotism, honor, teacher, parents, educational methods.

Insoniyat tarixining har qanday davrida ayol, ayniqsa, qiz bola tarbiyasi alohida e'tibor va mas'uliyat talab qilgan. Chunki har bir jamiyatning ma'naviy, madaniy va axloqiv qiyofasi, avvalo, onalar timsolida shakllanadi. Onalik esa - mehr, sabr, halollik, fidoyilik va tarbiyaning eng yuksak namunasi bo'lib, bu fazilatlar qiz bolalik davridanoq shakllana boshlaydi.

O'zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosida, an'ana va urf-odatlarida qiz bolani tarbiyalashga doimo alohida e'tibor qaratilgan. «Qizni erkalatma, xalqni yerga qaratma» degan maqolda aytilganidek, qiz bolaga berilgan tarbiya butun



jamiyat madaniyatining, axloqiy darajasining o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois qiz bolaning axloqiy, ma'naviy, jismoniy va ruhiy kamoloti – nafaqat oilaning, balki maktab, jamiyat va davlat siyosatining ham ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Bugungi globallashuv asrida, internet va texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir paytda, qiz bolalarning ruhiy dunyosini asrash, ularni milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimiz asosida tarbiyalash nihoyatda dolzarb masaladir. Ommaviy madaniyatning ta'siri, ijtimoiy tarmoqlardagi noto'g'ri axborotlar, ba'zida ota-onalarning befarqligi yoki yetarli bilimga ega emasligi - bularning barchasi yosh qizlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa kelajakda jamiyatda bir qator muammolar, oilaviy murosasizliklar, axloqiy inqirozlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ulug' mutafakkir Abdurauf Fitrat bola tarbiyasida, ayniqsa, onaning o'rniga alohida e'tibor qaratgan. U shunday degan edi:

«Har bir bola go'dakligidan onasining tarbiyasiga mahkum, binobarin, biz dastlabki tarbiyani o'z onamizdan olamiz. Shu sababli onalarimiz bilimli bo'lsinlar».

Bu so'zlar bekorga aytilmagan. Chunki bola – tuproq kabi, unga qanday urug' eksangiz, shunday meva beradi. Ona qo'lidagi bola – cho'qqiga chiqishi ham, yo'ldan adashishi ham uning qo'lida. Shuning uchun ona yuragida mehr, tilida shirin so'z, qo'lida ezgu tarbiya bo'lishi kerak.

Tarbiya – bu uzluksiz mehnat. U faqat qo'lga cho'p olib, bolaga nasixat qilish emas. Tarbiya – ota-onaning har kunida, har bir so'zida, har bir amalida namoyon bo'ladi. Bolalar ko'pincha eshitganidan ko'ra ko'rganiga ko'proq amal qiladi. Shuning uchun ota-ona o'zini ham doim tarbiya qilishi shart.

Yaxshi tarbiya – bolaga berilgan eng qimmatli meros. U yo'qolmaydi, sotilmaydi, eskirmaydi. Va eng muhimi – u faqat farzandingizga emas, balki kelajak avlodga ham ta'sir qiladi.

Imom G'azzoliy «Qiz bolani tarbiya qilish – kelajakni tarbiya qilishdir. Chunki u onadir, tarbiyachidir, ustozdir» deya ta'kidlaydi.

Bu fikr shuni anglatadiki, qiz bolaning tarbiyasi – faqat bir odamning tarbiyasi emas, balki u orqali butun jamiyatga, hatto kelajak avlodga ta'sir ko'rsatiladi. Qiz bola ertaga ona bo'ladi. Ona esa bola uchun birinchi maktab, birinchi ustoz, birinchi do'stdir. Bolaga dastlabki hayotiy saboqlar, odob-axloq, mehr-oqibat, halollik, sabr-toqat – bularning barchasini ona o'rgatadi. Shuning uchun qiz bola qanday tarbiya olsa, kelajakda u o'z farzandiga shuni beradi. Faqat o'z farzandiga



emas, balki atrofidagi odamlarga ham o'z axloqi, odobi bilan ta'sir ko'rsatadi. Masalan, oila muhitini iliq qilishda, qarindosh-urug'lar orasida mehrni mustahkamlashda, do'stlariga ijobiy o'rnatilishda uning tutgan o'rni beqiyos.

Ulug' xitoy donishmandi Konfutsiy shunday degan ekan: «Bir yurtni isloh qilmoqchi bo'lsang, avval oila ayollarini tarbiya qil».

Bu so'zlar oddiy ko'rinsa-da, aslida butun jamiyat hayotini o'zgartira oladigan katta haqiqatni o'z ichiga oladi. Konfutsiy fikricha, jamiyatdagi har qanday islohotning ildizi oilada yotadi. Chunki oila – jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim poyasi.

Oila degani – faqat bir necha insonning bir uyda yashashi emas. Oila - mehr-muhabbat, hurmat-ehтиrom, odob va axloq maktabi. Shu maktabning asosiy ustozlari ko'pincha ona bo'ladi. Chunki bola hayotning ilk saboqlarini ona tilidan, ona qo'lidan, ona mehridan oladi.

Ona – yuning qal'asi, oilaning qo'rg'oni. Uning qalbi nurli bo'lsa, oila ichida ham nur, ham iliqlik hukm suradi. Ona ma'naviy jihatdan boy, tarbiyali va bilimli bo'lsa, bola ham shu fazilatlarini o'z qalbiga singdiradi. Shunday qilib, tarbiyali bolalardan tarbiyali avlod, tarbiyali avloddan esa tuzuk jamiyat paydo bo'ladi.

Agar onalar ma'naviy jihatdan beqaror, beparvo yoki savodsiz bo'lsa, u uyda muhit ham beqaror bo'ladi. Bu hol, vaqt o'tishi bilan, butun jamiyatga ta'sir qiladi. Shuning uchun Konfutsiy aytayotgan «avval oila ayollarini tarbiya qilish» – jamiyat islohotining ilk va eng muhim qadami.

Xalqimizda ham shu ma'noga yaqin naqllar bor: «Ona uy – jamiyat uyining kaliti», «Ona bilimli bo'lsa, avlod nurli bo'ladi».

Yurtning tinchligi, xalqning farovonligi, avlodning sog'lomligi – bularning barchasi oiladagi ma'naviy muhitga bog'liq. Shuning uchun har bir ona o'zini tarbiya qilishni, bilim olishni, qalbi va ma'naviyatini boyitishni doimiy burchi deb bilishi kerak.

Chunki oila isloh bo'lsa – mahalla isloh bo'ladi, mahalla isloh bo'lsa – yurt isloh bo'ladi.

Ulug' tasavvuf shoiri va mutafakkir Jaloliddin Rumiy shunday degan: «Ayol – bir millatning qalbidir. Qalbi toza bo'lgan millatning kelajagi porloq bo'ladi».

Bu so'zlar, go'yo nurli shamchiroq kabi, jamiyat yo'lini yoritadigan haqiqatdir. Chunki millatning qalbi – uning onalari, qizlari va opa-singillaridir. Qalb toza bo'lsa, unda mehr, halollik, viqor va tarbiya bo'ladi. Shu fazilatlar esa avloddan-avlodga o'tib, millatning yuzini yorug' qiladi.



Rumiy fikricha, ayol qalbiga solingan nur – bu oddiy yorug‘lik emas. U bolaning ko‘zlaridagi ishonch, oiladagi mehr, mahalladagi birdamlik, butun yurtdagi tinchlik va barakadir. Qalbi nurga to‘lgan ona farzandiga mehr-muhabbat, insof va adolat urug‘ini ekishga qodir. Shu urug‘lar esa ertaga butun jamiyatni yashnatadi.

Millatning taqdiri ko‘p jihatdan ayolning qo‘lida. Agar onalar va qizlar ma‘naviy jihatdan toza, bilimli va hurmatli bo‘lsa, yurtning kelajagi ham to‘g‘ri yo‘ldan boradi. Aksincha, agar ayol qalbida beparvolik, ma‘naviy zaiflik va yomon odatlar o‘rin olsa, jamiyatning qadamlari ham beqaror bo‘ladi.

Xalqimizda bekorga aytilmagan: «Ona uy – millat uyining qalbi», «Ona yaxshi bo‘lsa, yurt ham yaxshi bo‘ladi». Chunki ayol – hayot beshigini tebratuvchi qo‘l, millatning ruhini saqlovchi qalb, kelajakka nur sochuvchi chiroqdir. Shuning uchun har bir ona, har bir qiz o‘z qalbini pok tutishi, bilim va ma‘rifat bilan bezashi, mehr va odob bilan to‘ldirishi kerak. Chunki ularning qalbidagi nur ertaga butun millatni yoritadi.

Qiz bola tarbiyasi – gul parvarishlashdek nozik va e‘tibor talab qiladigan ish. Xalqimizda bekorga «Onasini ko‘r, qizini ol» degan so‘z aytilmagan. Bu gap ortida ulkan hayotiy haqiqat yotadi. Chunki qiz bola, eng avvalo, onasining yurish-turishidan, qo‘l mehnati va hunarmandligidan, so‘zlaridagi shirinlik va xulqidagi nafasatdan ibrat oladi. Ona qanday bo‘lsa, qizining ko‘p jihatlari ham shunday shakllanadi.

Qiz bola – oilaning gulzoridagi eng nozik gul. Uning iffati, or-nomusi – butun oilaning, hatto butun mahallaning sharafi. Shuning uchun xalqimiz qiz tarbiyasiga alohida e‘tibor bergan, yoshlikdan uni ozodalikka, shirinsuxanlikka, mehr-oqibatga, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat qilishga o‘rgatgan.

Ammo afsuski, bugungi kunda qizlar tarbiyasida ayrim nuqsonlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Turmushga chiqqan ba‘zi qizlar turmushning biroz og‘irligini ko‘tarolmay, guldek oilasini tashlab ketmoqda. Bu holatning oldini olish uchun, avvalo, ota-onalar zimmasiga katta mas‘uliyat tushadi. Chunki qiz bolani nafaqat bilimli, balki sabrli, matonatli, hayotning achchiq-shiriniga tayyor qilib tarbiyalash – bu ota-ona uchun eng ulug‘ vazifadir.

Qiz bola –9 shunchaki oiladagi farzand emas, u kelajak avlodning onasi, uying guldek bezagi, qalbning eng nozik qirralarini uyg‘otuvchi bir mavjudot. Uning qiyofasi, yurish-turishi, so‘zlashi, hatto bir qarashida ham uydagi tarbiya, buvi-bobo merosining izlari ko‘rinib turadi. Shuning uchun ham xalqimizda qiz bolaga nisbatan qo‘yilgan talablar har doim o‘lchovdan yuqori bo‘lgan.



Qiz bola – nazokatda guldan, iffatda oydan, iboda esa bahorning ilk shamolidan ham nozik. U sabr-bardoshli, oqila, mehribon bo'lishi shart. Uning yuragida mehr daryo bo'lib oqishi, tilidan shirin so'z tomishi, qadamida or-nomusning soyasi yurib turishi lozim.

Har bir ota-ona yaxshi bilishi kerakki, qiz bolaga berilgan mezonlar hech qachon o'rtamiyona bo'lmaydi: yo eng tepada, yo eng pastda. Uning birgina xatti-harakati butun oilaga yo nur sochishi, yo soya solishi mumkin. Shuning uchun ayrim hollarda oddiy xatoga ko'z yumish mumkin bo'lgan o'g'il bolaga nisbatan kechirim beriladi, ammo qiz bolaga kelganda xalqona hukm qattiq:

– «O'g'il bola shu ishni qilsa – boshqa gap edi. Lekin u – qiz bola-ku!»

Bu gapda hayotning achchiq-shirin tajribalari, ming yillik an'analar, or-nomus tuyg'usining butun og'irligi mujassam. Chunki qiz bolaning ismi, jismi, ma'naviyati, xatti-harakati har doim alohida o'lchovda baholangan. Uning oyog'i ozgina og'ishsa ham, e'tiborsizlik yoki bir lahzali ehtiyotsizlik butun umriga dog' bo'lib qolishi mumkin.

Shuning uchun ota-ona qiz tarbiyasida faqat nasihat bilan emas, o'z hayoti, o'z yurish-turishi bilan ham namuna ko'rsatishi kerak. Chunki qiz bola guldek -parvarish qilsangiz, xonadonni xidga to'ldiradi; e'tiborsiz qoldirsangiz, tikan chiqaradi.

Qizlar tarbiyasi – jamiyatning kelajagiga zamin yaratadigan eng muhim tarbiyaviy jarayonlardan biridir. Zero, bugunning ma'rifatli, vatanparvar, mehribon va sabrli qizi – ertangi fidoyi ona, oilaning tayanchi, jamiyatning faol a'zosi bo'ladi. Shu boisdan, qiz bola tarbiyasi faqat oila doirasida emas, balki maktab, mahalla, keng jamoatchilik e'tiborida bo'lishi lozim.

Qizlar tarbiyasi qadimdan millatning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri bo'lgan. O'zbekiston xalqining urf-odatlarini, udumlari va qadriyatlarini asrlar davomida qiz bolani oriyatli, iffatli, vatanparvar qilib tarbiyalashga xizmat qilgan. Bugungi zamon talablari bilan uyg'un holda, shu boy merosni asrab-avaylab, uni yangicha yondashuv bilan boyitish zarur. Qiz bolaga bo'lgan munosabat –gi mas'uliyatni chuqur anglab yetishi lozim.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qiz bola shaxs sifatida barkamol rivojlanishi uchun sevgi, e'tibor va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhitiga muhtoj. Uning his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, dunyoqarashi oilaviy tarbiya bilan shakllanadi. Shuning uchun tarbiyada qat'iylik bilan birga muloyimlik, nazokat bilan birga talabchanlik muvozanatini topish muhimdir.



Bugungi globallashuv davrida qizlarimizni begona g'oyalardan, noto'g'ri qarashlardan himoya qilish uchun ularni ongli, bilimli va mustaqil fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalash zarur. Kitobda ta'lim tizimi, mahalla, oilaning birgalikdagi sa'y-harakati bilan qanday qilib ideal ayol timsolini shakllantirish mumkinligi ko'rsatib berildi. Qiz bola – kelajak jamiyatining ma'naviy mezonini, shuning uchun unga beriladigan tarbiya – millat kelajagining kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5325-son Farmoni, 2018 yil 2-mart.

2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi 2019-yil 3-maydagi PK-4307-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-yil 31-dekabr.

3. O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24-yanvar 2019-yil.

4. D.I.Choriyeva. «Qiz bola tarbiyasida keksa avlod vakillari(buvi)ning o'rnini va hamkorligi». – «Farzand tarbiyasida kollaborativ texnologiyalardan foydalanish sohasidagi xalqaro tajribalar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2025. - 77 b.

5. D.I.Choriyeva. «Raqamli ta'lim muhitida qizlar tarbiyasiga oid milliy kontentlarni yaratish: muammolar va yechimlar». - «Raqamli ta'lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tatbiq etish: muammolar va yechimlar» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami, 2025. - 284 b.



FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

S.A. MAXMUDOVA,

Farg‘ona davlat universiteti,
(PhD), dotsent

Ushbu maqolada fanlararo integratsiya asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari o‘rganilgan. Zamonaviy ta‘lim tizimida pedagoglarning yuqori malakali kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv orqali bilimlarni turli fanlar doirasida uyg‘unlashtirish pedagogik jarayonni yanada samarali qiladi va bo‘lajak pedagoglarning nazariy hamda amaliy tayyorgarligini oshiradi. Maqolada integratsiyaning pedagogik ta‘limdagi nazariy asoslari, metodologik jihatlari va amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot oliy ta‘lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: fanlararo integratsiya, kasbiy kompetensiya, pedagog, ta‘lim, malaka, kompetensiyalarni shakllantirish.

В статье рассматриваются вопросы формирования профессиональных компетенций будущих педагогов на основе междисциплинарной интеграции. В современной системе образования развитие высококвалифицированных профессиональных навыков педагогов имеет важное значение. Интегративный подход способствует эффективному объединению знаний из различных дисциплин, что улучшает теоретическую и практическую подготовку будущих педагогов. В статье рассматриваются теоретические основы интеграции, методологические аспекты и практические рекомендации. Исследование направлено на повышение качества подготовки педагогических кадров в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, профессиональная компетенция, педагог, образование, квалификация, формирование компетенций.

This article explores the issues of forming professional competencies of future teachers based on interdisciplinary integration. In the modern education system, developing highly qualified professional skills of educators is of great importance. The integrative approach facilitates the effective unification of knowledge across various disciplines, enhancing both theoretical and practical training of future teachers. The article discusses the theoretical foundations of integration, methodological aspects, and practical recommendations. The study aims to improve the quality of pedagogical staff training in higher education institutions.

Key words: interdisciplinary integration, professional competence, teacher, education, qualification, competence formation.



Hozirgi kunda ta'lim tizimi global jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish zaruratini taqozo etadi. Bu esa pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantiradi. Fanlararo integratsiya ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarga bilimlarni keng qamrovli va amaliy tarzda egallash imkonini berish uchun samarali yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida turli fanlarning nazariy va amaliy bilimlarini uyg'unlashtirishga imkon berib, bo'lajak pedagoglarning nazariy asoslarini mustahkamlash hamda kasbiy ko'nikmalarini yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, oliy pedagogik ta'limda fanlararo integratsiya asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Zamonaviy pedagogik ta'limda fanlararo integratsiya yondashuvi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'riladi. L.S. Vygotskiy «yaqin rivojlanish zonasi» nazariyasi orqali o'quvchining bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich, o'qituvchi yordamida chuqurlashtirish jarayonining ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa, J. Brunerning konstruktivistik yondashuvi o'quvchilarning o'z tajribasi asosida yangi bilimlarni mustaqil ravishda kashf etishi va ularni boshqa fanlar kontekstida qo'llashiga imkon yaratadi. Shu tarzda, fanlararo integratsiya pedagogik jarayonda o'quvchilarning multidisiplinar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi (Vygotskiy, 1978; Bruner, 1966).

A.V. Mudrikning ta'kidlashicha, integratsiya ta'lim mazmunini kengaytirib, o'quvchilarni murakkab va ko'p qirrali vazifalarni hal qilishga tayyorlaydi, bu esa bo'lajak pedagoglarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega (Mudrik, 2005). Bu fikrni O.E. Pirojkovning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. U pedagoglarning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki ularni amaliyotga integratsiyalashda malakali bo'lishi zarurligini qayd etadi (Pirojkov, 2010).

Bundan tashqari, G.Shon pedagoglarning doimiy professional rivojlanishi, o'z faoliyatini tahlil qilish va yangi pedagogik yondashuvlarni qabul qilish orqali kasbiy malakalarini muntazam oshirib borishlari muhimligini ta'kidlaydi. Fanlararo integratsiya esa pedagoglarga bu jarayonda innovatsion metodlarni joriy etishga keng imkoniyatlar yaratadi (Shon, 2013).

Shuningdek, D.E. Kellerning ARCS motivatsiya nazariyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish, ular uchun ta'lim mazmunini dolzarb qilish va natijada o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlashda fanlararo integratsiyaning o'rni alohida ta'kidlanadi (Keller, 1987). J. Dewey esa ta'limda tajriba asosida o'rganish konsepsiyasini ilgari surib, fanlararo yondashuv



orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog‘lash mumkinligini bildiradi (Dewey, 1938).

Bunday yondashuv xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. UNESCO ta‘limda fanlararo integratsiyani joriy etish orqali zamonaviy kasbiy malakalarni shakllantirish va ta‘lim sifatini oshirishni strategik vazifa sifatida belgilagan (UNESCO, 2015). Shu sababli, fanlararo integratsiya bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy ta‘lim jarayonining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Fanlararo integratsiya – bu ta‘lim jarayonida turli fanlarning bilimlari, metodlari va amaliyotlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada boyitish maqsadida tashkil etilgan pedagogik yondashuvdir. Ushbu yondashuvning nazariy asoslarini zamonaviy psixologik-pedagogik konsepsiyalar tashkil etadi. Masalan, L.S. Vygotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» nazariyasi o‘quvchilarning yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashiga yordam beruvchi sharoitlarni yaratishga urg‘u beradi. J. Brunerning konstruktivistik yondashuvi esa o‘quvchining o‘z tajribasi va avvalgi bilimlari asosida yangi bilimlarni qurish jarayonini ta‘kidlaydi. Shu tarzda, fanlararo integratsiya o‘quvchilarning multidisiplinar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi va ta‘lim mazmunining chuqurlashuvini ta‘minlaydi. A.V. Mudrik va T.S. Komissarova kabi olimlar ham integrativ yondashuv ta‘lim jarayonining sifatini oshirishda, fanlararo bog‘liqlikni hisobga olishda muhim ekanligini ta‘kidlaydilar.

Kasbiy kompetensiyalar pedagogning zamonaviy ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning kompleksidir. Bu kompetensiyalar samarali pedagogik aloqa, muammolarni hal qilish, innovatsion metodlarni qo‘llash kabi ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Fanlararo integratsiya nafaqat nazariy bilimlarni birlashtirish, balki ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga imkon yaratadi. O.E. Pirojkovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuv ta‘lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. G.Shon esa pedagoglarning doimiy professional rivojlanishi va o‘z faoliyatini tahlil qilib borishi ularning kasbiy malakasini oshirishning asosiy omili ekanligini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga rag‘batlantirish juda muhimdir.

Oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida fanlararo integratsiyani samarali joriy etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

Ta‘lim dasturlarini fanlararo integratsiyani hisobga olgan holda qayta tashkil etish, bu esa o‘quvchilarga kompleks bilimlar olish imkonini yaratadi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini interaktiv va samarali qilish;



Talabalarni mustaqil ishga jalb etish va ijodiy fikrlashini rag'batlantirish maqsadida loyiha asosida o'qitishni rivojlantirish;

Refleksiv faoliyat va o'z-o'zini baholash tizimini joriy etish orqali talabalar kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirishni ta'minlash.

Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonining mazmunini yanada boyitib, o'quvchilarning ko'p qirrali bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, pedagoglarning zamonaviy kasbiy talablar asosida tayyorlanishi va o'z faoliyatlarida yuqori samaradorlikka erishishi ta'minlanadi. Fanlararo integratsiya pedagogik ta'limda innovatsion yondashuvlar joriy etishga, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi va oliy ta'lim muassasalarida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. (O'zbek tilida: Vygotskiy L.S. (2000). *Ijtimoiy muhit va rivojlanish*. Toshkent: Sharq, 320-bet.)

2. Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Cambridge, MA: Harvard University Press. (O'zbek tilida: Bruner J. (1997). *Ta'lim nazariyasiga tomon*. Toshkent: O'zbekiston, 280-bet.)

3. Mudrik, A.V. (2005). *Pedagogika: fanlararo integratsiya muammolari*. Moskva: Akademiya. 145-163-bet.

4. Pirojkov, O.E. (2010). *Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasi*. *Pedagogika jurnal*, №4, 55-68-bet.

5. Shon, G. (2013). *Pedagoglarning doimiy professional rivojlanishi va malaka oshirish*. *Ta'lim nazariyasi va amaliyoti*, №2, 78-85-bet.

6. Keller, J.M. (1987). *Development and use of the ARCS model of instructional design*. *Journal of Instructional Development*, 10(3), 2-10.

7. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.

8. UNESCO. (2015). *Education 2030 Framework for Action*. Paris: UNESCO Publishing. 23-45-bet.



TALABALARNING IJTIMOYIY-METODIK KO'NGILLI FAOLIYATI ORQALI UY TA'LIMIGA JALB QILINGAN NOGIRON BOLALARNING RIVOJLANISH DINAMIKASIGA IJOBIY TA'SIR KO'RSATISH METODIKASI

Ф.Ҳ. ҚОДИРОВА,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d. (DSc).

Ushbu maqola talabalarning ijtimoiy-metodik ko'ngilli faoliyatini inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan yondashuv orqali tashkil etish yo'li bilan nogiron yoki uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarning uy tavlimida rivojlanish dinamikasiga ijobiy tavsir ko'rsatishga bag'ishlanadi. Nogiron bolalarning virtual muhitga berilib ketish xavfi va ularning psixik va jismoniy inkoniyatlarining cheklanganligi tufayli virtual texnologiyalarni qo'llashdagi qiyinchiliklar inobatga olindi. Tadqiqotda inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan ko'ngilli faoliyatning bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ta'siri aralash metodologiya (miqdoriy va sifat) yordamida o'rganildi. Tadqiqot O'zbekistondagi maxsus ta'lim muassasalari va oliy ta'lim talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Natijalar inklyuziv ta'limni rivojlantirish va bolalarning rivojlanish dinamikasini qo'llab-quvvatlash uchun amaliy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-metodik ko'ngilli faoliyat, uy ta'limi, nogiron bolalar, rivojlanish dinamikasi, inson-inson o'zaro ta'siri, inklyuziv ta'lim.*

Nogiron yoki uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarning uy ta'limi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmonida inklyuziv ta'limning ahamiyati ta'kidlanadi. Uy ta'limi ushbu bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Biroq, nogiron bolalarning aksariyati psixik va jismoniy imkoniyatlarining cheklanganligi tufayli virtual texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi, shuningdek, virtual muhitga berilib ketish xavfi mavjud. Shundan kelib chiqib, inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan ko'ngilli faoliyat ushbu bolalarning rivojlanish dinamikasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola talabalarning ijtimoiy-metodik ko'ngilli faoliyatini inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan yondashuv orqali tashkil etish yo'li bilan nogiron bolalarning uy ta'limida rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga bag'ishlanadi. Tadqiqotning maqsadi – inson-inson o'zaro ta'siri asosida tashkil qilingan ko'ngilli faoliyatning bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga



ta'sirini aralash metodologiya yordamida o'rganish va ushbu faoliyatni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullarini ishlab chiqishdir.

Nogiron bolalarning ta'limi va rivojlanish dinamikasiga oid tadqiqotlar ko'plab xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarda ko'rib chiqilgan. UNESCO (2015) inklyuziv ta'limning nogiron bolalarning ijtimoiy moslashuvi va rivojlanish dinamikasini kuchaytirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. I.Zimnyaya (2002) ijtimoiy o'zaro ta'sirining bolalarning emotsional va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. O'zbekistonda R.Ishmuxamedov (2005) innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligi va bolalarning rivojlanishiga ta'sirini ta'kidlaydi.

Inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan ta'lim yondashuvlari bo'yicha tadqiqotlarda L.Vigotskiy (1978) ijtimoiy o'zaro ta'sirining bolalarning kognitiv rivojlanishidagi muhimligini ko'rsatgan. J.Smit va boshqalar (2017) nogiron bolalar uchun inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan ta'limning ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlikka ta'sirini o'rgangan. O'zbekistonda G.Abdullayeva (2021) oliy inklyuziv ta'limning talabalarda o'quv-bilish kompetentligiga ta'sirini o'rgangan, ammo nogiron bolalarning uy ta'limida inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan ko'ngilli faoliyatning rivojlanish dinamikasiga ta'siriga oid tadqiqotlar kam uchraydi. Aralash metodologiya ushbu bo'shliqni to'ldirishga imkon beradi, chunki u miqdoriy natijalarni sifat tahlili bilan boyitadi.

Tadqiqot aralash metodologiya (miqdoriy va sifat) yondashuvi asosida 2024-2025 o'quv yilida O'zbekistonning Chirchiq davlat pedagogika universiteti va inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Tadqiqotda 50 nafar talaba (25 nafar eksperimental va 25 nafar nazorat guruhi) va 30 nafar nogiron va uzoq muddatli davolanishga muhtoj bola ishtirok etdi. Eksperimental guruhda talabalar an'anaviy inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan ko'ngilli faoliyatga jalb qilindi, nazorat guruhi esa IT ilovalari yordamida, virtual uy ta'limi usullari bilan ishladi.

Ko'ngilli faoliyatni tashkil qilish

Ko'ngilli faoliyat inson-inson o'zaro ta'siriga asoslanib, yuzma-yuz muloqot va individual yondashuvga e'tibor qaratilgan holda tashkil qilindi.

Faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- nogiron bolalar uchun individual uy ta'limi darslari (talabalar tomonidan bevosita uyda o'tkazildi);
- ijtimoiy-madaniy tadbirlar (masalan, ijodiy mashg'ulotlar, o'yinlar, muhokamalar);
- ota-onalar va bolalar bilan ko'ngillilarning yaqin muloqotiga asoslangan qo'llab-quvvatlash guruhlari.



Virtual texnologiyalardan foydalanish minimal darajada (masalan, ta'lim materiallarini taqdim etishda) amalga oshirildi, asosiy e'tibor yuzma-yuz muloqotga qaratildi.

Ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish

Mixed(aralash) metodologiyaga muvofiq, ma'lumotlar yig'ish uchun miqdoriy va sifat usullari qo'llanildi.

Miqdoriy usullar:

– kognitiv rivojlanish: test va vazifa natijalari (matematika, o'qish, muammo hal qilish);

– ijtimoiy moslashuv: so'rovnomalalar (bolalarning jamoaviy faoliyatda ishtirok darajasi);

– emotsional rivojlanish: o'ziga ishonch va motivatsiyani baholash (so'rovnoma).

– ma'lumotlar SPSS dasturida t-test va korrelyatsion tahlil usullari orqali tahlil qilindi.

Sifat usullar:

– yarim strukturivovaniy intervyular: bolalar, ularning ota-onalari va talabalar bilan suhbatlar;

– pedagogik kuzatuv: uyda o'tkazilgan darslar va tadbirlarda bolalarning faolligi;

– tanqidiy tahlil: bolalarning ijodiy vazifalari (masalan, esse, rasmlar) tahlili.

Sifat ma'lumotlari NVivo dasturida kodlashtirildi va tematik tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, inson-inson o'zaro ta'siriga asoslangan ko'ngilli faoliyatga jalb qilingan bolalarning rivojlanish dinamikasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi:

– kognitiv rivojlanish: Eksperimental guruhda test natijalari o'rtacha 20% yuqori bo'ldi ($p < 0.01$).

– ijtimoiy moslashuv: So'rovnomalarga ko'ra, jamoaviy faoliyatda ishtirok darajasi 18% ga oshdi ($p < 0.05$).

– emotsional rivojlanish: O'ziga ishonch va motivatsiya darajasi 22% ga yuqori bo'ldi ($p < 0.01$).

Intervyular va kuzatuvlar natijalari bolalarning talabalar bilan yuzma-yuz muloqotiga yuqori qiziqishi va emotsional barqarorligini ko'rsatdi. Ota-onalarning fikriga ko'ra, talabalarning ko'ngilli faoliyati bolalarning ijtimoiy izolyatsiyasini kamaytirdi va ularning o'ziga ishonchini oshirdi. Ijodiy vazifalar tahlili bolalarning



o‘z fikrlarini ifoda qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarining rivojlanganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, yuzma-yuz muloqot bolalarning emotsional aloqaga bo‘lgan ehtiyojini qondirdi va ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini kuchaytirdi.

Miqdoriy va sifat natijalarining integratsiyasi inson-inson o‘zaro ta‘siriga asoslangan ko‘ngilli faoliyatning bolalarning rivojlanish dinamikasiga ko‘p qirrali ta‘sirini ko‘rsatdi. Miqdoriy ma‘lumotlar kognitiv va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘shishni tasdiqlasa, sifat ma‘lumotlari kishilar muloqotining emotsional barqarorlik va ijodiy faollikka ijobiy ta‘sirini aniqladi. Asosiy omillar:

1. Individual yondashuv: Yuzma-yuz muloqot bolalarning maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan ta‘lim usullarini qo‘llash imkonini berdi.

2. Emotsional aloqa: Talabalar bilan bevosita muloqot bolalarning o‘ziga ishonchi va motivatsiyasini oshirdi.

3. Ijtimoiy o‘zaro ta‘sir: Ko‘ngilli faoliyat bolalarning ijtimoiy izolyatsiyasini kamaytirdi va jamoaviy faoliyatda ishtirokini kuchaytirdi.

To‘siqlar:

– yuzma-yuz faoliyatni tashkil qilishda logistik qiyinchiliklar (masalan, transport va vaqt boshqaruvi).

– sifat tahlilida subektiv omillar (masalan, intervyulardagi fikrlar) ta‘siri.

– uzoq muddatli ta‘sirni baholash uchun ma‘lumotlarning yetarli emasligi.

Xulosa va tavsiyalar

Inson-inson o‘zaro ta‘siriga asoslangan ijtimoiy-metodik ko‘ngilli faoliyatning nogiron bolalarning uy ta‘limida kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Yuzma-yuz muloqot bolalarning emotsional va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘ziga ishonchi va ta‘limga qiziqishini oshirdi. Tavsiyalar:

– nogiron bolalarning maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan yuzma-yuz ta‘lim usullarini kengaytirish;

– talabalar uchun ko‘ngilli faoliyatni tashkil qilishda maxsus pedagogik treninglar uyushtirish;

– logistik infratuzilmani (transport, jadval boshqaruvi) yaxshilash;

– rivojlanish dinamikasini baholash uchun miqdoriy va sifat usullarini birlashtirgan standartlashgan metodik vositalar yaratish.

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish va nogiron bolalarning uy ta‘limida rivojlanish dinamikasini qo‘llab-quvvatlash uchun amaliy



asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida virtual va jonli muloqotning integratsiyasiga asoslangan ko'ngilli faoliyatning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005.

3. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. - M.: Logos, 2002.

4. Vigotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Harvard University Press, 1978.

5. Raximov Z.T. Masofaviy ta'lim talabalar o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirishning zarur omili sifatida. 2021.

6. UNESCO. Education for All 2015: Achievements and Challenges. 2015.

7. Smith, J., et al. Virtual Learning Environments for Students with Disabilities: Enhancing Social Inclusion. Journal of Special Education Technology, 2017.



O'QUVCHINING TADBIRKORLIK KOMPETENSIYASI EPISTEMOLOGIYA VA ETIMOLOGIYA KO'ZGUSIDA

S.B. RAJABOV,

iqtisodiyot fanlari

bo'yicha falsafa (PhD) doktori,

Qori Niyoziy nimidagi TPMI mustaqil tadqiqotchi (DSc)

XXI asrda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – tayyorlash, turli vaziyatlarda optimal yechim topish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bugungi kunda jahon pedagogikasida «entrepreneurship education» (tadbirkorlik ta'limi) asosiy trendlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Uning mohiyati yoshlarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, xatarni oldindan baholash va to'g'ri qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishdir.

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, o'quvchi shaxsi, hayotiy ko'nikmalar, hayotiy muammolarga yechim topish, nazariy va amaliy bilimlar majmuasi.*

One of the main tasks of the education system in the 21st century is to prepare students not only for knowledge and skills, but also for solving life problems, developing the ability to find optimal solutions in various situations. Today, "entrepreneurship education" is recognized as one of the main trends in world pedagogy. Its essence is to form in young people the competencies of initiative, creativity, risk assessment and correct decision-making.

Key words: *educational process, student personality, life skills, finding solutions to life problems, a set of theoretical and practical knowledge.*

Pedagogikaning O'zbekistonda shakllanayotgan yangi yo'nalishi – biznespedagogika, o'quvchilarda tadbirkorlik, uddaburronlik kompetensiyasini rivojlantirish masalani nazariy o'rganish, jumladan, ushbu kompetensiyaning epistemologik asoslarini o'rganishni taqozo qiladi.

Epistemologiya (grek tilidagi επιστήμη «ilmiy bilish, fan», «haqqoniy bilim»[5] + λόγος «so'z», «fikr») so'zlaridan tashkil topgan falsafiy metodologik fan sohasi sifatida) bilim, uning tuzilishi, tarkibi, qo'llanilishi va rivojlanishini o'rganadi[6].

Epistemologiya nuqtai nazaridan tadbirkorlik kompetensiyasini tahlil qilish – uning bilim manbalari, shakllari va asosiy mazmun-mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Chunki har qanday kompetensiya, avvalo, bilim, ko'nikma va tajribaning uyg'un tizimidir. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini metodologik o'rganishda masalaga epistemologik yondoshuv o'ta zarurdir. Chunki bu O'zbekiston asos solinayotgan biznespedagogikaning nazariy asoslarini ochib beradi.



Epistemologiya nuqtai nazaridan tadbirkorlik kompetensiyasi quyidagi bilim turlariga asoslanadi:

– Nazariy bilimlar – iqtisod, boshqaruv, huquq va ijtimoiy munosabatlar haqidagi umumiy tushunchalar.

– Amaliy bilimlar – hisob-kitob qilish, resursni tejash, muloqot qilish, kelishuv topish.

– Tajribaviy bilimlar – hayotiy vaziyatlarda sinovdan o‘tgan uddaburronlik ko‘nikmalari.

– Intuitiv bilimlar – tezkor vaziyatda oqilona qaror qabul qilish qobiliyati.

Tadbirkorlik kompetensiyasi masalaga bir necha fanlar nuqtai nazaridan yondoshish taqozo qilinadi. Falsafa nuqtai nazaridan tadbirkorlik – insonning hayotga oqilona munosabati, uning irodasi va mas’uliyati ifodasidir. Bunda masalaning to‘rtta qirrasini namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, ratsionallik. Zero, tadbirkor shaxs har qanday holatda aql bilan fikrlaydi, xisob-kitob qiladi.

Ikkinchidan, irratsionallik. Zero ba’zan intuitsiya, tajriba va ichki hissiyot ham shaxsning qaror qabul qilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ma’naviy-axloqiy jihat, ya’ni tadbirkorlik kompetensiyasi axloqiy me’yorlar bilan uyg‘un bo‘lmasa, uning ijtimoiy qiymati yo‘qoladi. Shuning uchun ham milliy og‘zaki ijod namunalarida, xalq pedagogikasida tadbirli shaxslar doim el boshiga ish tushganida to‘g‘ri tadbir qilib, uning mushkullarini oson qilgani maqtaladi.

To‘rtinchidan, tadbirkorlik bu faol fuqarolik mas’uliyati bo‘lib hisoblanadi. Chunki falsafiy jihatdan tadbirkorlik shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini, jamiyat taraqqiyotidagi hissasini anglatadi.

Pedagogika va uning yangi yo‘nalishi biznespedagogika tadbirkorlik kompetensiyasini shaxsning ijtimoiylashuvi va rivojlanishida asosiy ko‘nikma sifatida talqin qiladi. Bunda ta’limiy yo‘nalish o‘quvchida foyda va zararni hisoblash, tejamkorlik, resursdan unumli foydalanishni o‘rgatadi. Tarbiyaviy yo‘nalish esa masalaning axloqiy jihatiga e’tibor qaratadi. Chunki tadbirkorlik faqat iqtisodiy emas, balki ma’naviy-axloqiy kompetensiya sifatida shakllanishi lozim. Masalaning metodik yo‘nalishi keysli mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vositadir. Milliy pedagogikamizda xalq ertaklari, maqol va hikmatlarda tadbirkorlik fazilati tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llanilgan.

Psixologiya fani tadbirkorlik kompetensiyasini shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy qobiliyatlari bilan bog‘laydi. Bunda kognitiv jihat: o‘quvchida tahlil qilish, rejalashtirish va prognoz qilish qobiliyatini, emotsional



jihāt – stress sharoitida qaror qabul qilish, xatardan qo‘rqmaslikni, ijtimoiy jihāt muloqot, kelishuvchanlik, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini va motivatsiya – tadbirkorlikning psixologik poydevori – shaxsiy maqsad, orzu va g‘oyalarni amalga oshirishdagi kuchli ichki ehtiyojga e‘tibor qaratadi.

Epistemologiya bilimning uch shaklini ajratadi. Bular:

1. Deklarativ bilim («Bu nima?») – tadbirkorlik tushunchasi, nazariyasi.
2. Protessual bilim («Qanday qilib?») – hisob-kitob, resursni boshqarish, kelishuv jarayonlari.

3. Shartli bilim («Qachon va qaerda?») – muayyan vaziyatda tadbirkorona qaror qabul qilishdan iboratdir. Ushbu bilim turlarining uyg‘unligi o‘quvchida tadbirkorlik kompetensiyasini to‘liq shakllantiradi.

Yuqoridagi fanlararo tahlil ham tadbirkorlik kompetensiyasi shaxsning nazariy, amaliy, tajribaviy va ma‘naviy bilimlar uyg‘unligida shakllanadigan integral kompetensiyasi ekanligini tasdiqlaydi.

Epistemologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik falsafiy jihattan – insonning hayotga oqilona munosabatini, pedagogik jihattan – ta‘lim va tarbiyaning asosiy yo‘nalishini va psixologik jihattan – shaxsning motivatsiyasi va ijtimoiy qobiliyatlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish faqat iqtisodiy samara emas, balki jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma‘naviy muhitni ta‘minlaydigan strategik vazifa sifatida qaralishi kerak.

O‘zbek milliy tarbiyasida tadbirkorlik ma‘naviy-axloqiy fazilat sifatida qadimdan qadrlangan: Maqollarda: «Tadbirli – elning boshi, tadbirsiz – yo‘lning toshi», «Tadbirkorlik – boylikning kaliti» kabi hikmatlar targ‘ib qilinadi. Ertak va dostonlarda: uddaburron, aqlli, vaziyatdan chiqib ketadigan qahramonlar «tadbirli», «ishning ko‘zini biluvchi» sifatida ideallashtirilgan. Bu ildizlar tadbirkorlikni yosh avlodda faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, ma‘naviy va hayotiy kompetensiya sifatida tarbiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadbirkorlikka ilmiy pedagogik yondashuv bu tushunchani faqat savdo-sotiq yoki iqtisodiy faoliyat doirasida emas, balki o‘quvchining hayotiy muammolarni yechishga qaratilgan integrativ kompetensiyasi, qobiliyati sifatida universal talqin qilishni talab qiladi.

«Tadbirkor» so‘zining etimologiyasini turli til manbalari asosida qiyosiy o‘rganish bu tushunchaning faqat savdo, tovar ishlab chiqarish bilan cheklab bo‘lmazligini ko‘rsatdi. Buni «tadbirkor» so‘zining etimologiyasini o‘rganish, bir necha tillarda uning epistemologik mazmunini o‘rganish natijalari tasdiqladi. Masalan, arab tilidagi manbalarga ko‘ra «tadbir» so‘zi arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, «tadbir» (تدبير – tadbir) – «rejalashtirish», «yo‘l-yo‘riq belgilash», «idora

qilish» ma'nolarini anglatadi. Bu tushuncha arablarda «**الأمر تدبير**» (tadbir al-umir) – «ishlarni boshqarish» degan ma'noda ishlatiladi[7]. Shunday qilib, «tadbirkor» – bu ishlarga boshqaruv va reja bilan yondashuvchi uddaburron shaxs, degan mazmun namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida «tadbir» – aql bilan o'ylangan chora, reja, yo'l-yo'riq. «Kor» – ish, amalni bildiradi[8]. Ularning birikuvi orqali «tadbirkor» = ishga reja bilan yondashuvchi, uddaburron inson degan ma'no paydo bo'lgan.

Rus tilida tadbirkor «predprinimatel» atamasini anglatadi. Bu «predprinyat» (chora ko'rish, ish boshlash) fe'lidan olingan[9] va bu o'zbekcha «tadbirkor» so'zining ma'no jihatdan mutanosib ekvivalentidir. «Predprinimatel» – bu muayyan ishni reja bilan amalga oshiruvchi, xatarni o'ziga olib, foyda izlovchi insonni anglatadi.

Ingliz tilida «entrepreneur» (fr. *entreprendre* – ish boshlash, yuklanish) atamasi tadbirkor ma'nosida ishlatiladi. Zamonaviy ingliz tilida *entrepreneur* – risk-taking innovator (xatarni o'z zimmasiga olib, yangilik kirituvchi shaxs), degan ma'noni bildiradi[10]. Yuqoridagi etimologik talqinlardan kelib chiqadigan bo'lsak, «tadbirkor» so'zining etimologiyasi turli tillarda ham asosan «reja bilan ish qilish, tashabbus ko'rsatish, tavakkal qilib, bir ishni boshlab, foyda topish» ma'nolarini ifodalaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda «o'quvchining tadbirkorligi» – bu o'quvchining shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligi jarayonida namoyon bo'ladigan, turli muammoli vaziyatlarda optimal yechim topishga qaratilgan integral kompetensiya bo'lib, unda tashabbuskorlik, uddaburronlik, tejamkorlik, muloqot va kelishuvchanlik, foyda va zararni baholay olish, imkoniyatdan unumli foydalanish kabi ko'nikmalar uyg'un holda shakllanadi.

Tadbirkor o'quvchi faqat iqtisodiy faoliyatga emas, balki kundalik hayotdagi turli ijtimoiy, madaniy va maishiy vaziyatlarda ham uddaburronlik bilan, yoshiga mos qarorlar, yechimlarni topishga o'rgatadi. O'quvchining tadbirkorligi bu – faol hayotiy pozitsiya, ijobiy tashabbuskorlik, to'g'ri hisob-kitob qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy jihatdan, bu kompetensiya shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va faol fuqarolik tarbiyasi bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan tadbirkorlik kompetensiyasi o'quvchida quyidagi hayotiy vaziyatlarda ko'rinib borishi ma'lum bo'ladi:

1. Muammoli vaziyatlarda yechim topish – sinfdagi nizo, sinfdosh, mahalladagi bolalar bilan hamjihatlik, kundalik hayotiy vaziyatlarda optimal yechimni topish.

2. Iqtisodiy ong va tejamkorlik – resursdan unumli foydalanish, foyda va



zararni hisoblay olish, maqsadga muvofiq qaror qabul qilish.

3. Muloqot va kelishuvchanlik – adolatli taqsimot, jamoa bilan kelishish, kompromiss topish.

4. Tashabbuskorlik va ijodkorlik – yangi g‘oya taklif qilish, noan’anaviy yo‘l topish, innovatsion fikrlash.

5. Mas’uliyat va javobgarlik – qabul qilingan qaror va uning natijasi uchun javobgarlikni his qilish.

Demak, milliy va jahon pedagogikasi nuqtai nazaridan tadbirkorlik tushunchasi faqat savdo-sotiq yoki iqtisodiy faoliyat bilan cheklanmaydi. U avvalo, o‘quvchining kundalik hayotida uchraydigan turli muammoli vaziyatlarda oqilona yechim topish qobiliyati, ya’ni integral kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Biznespedagogik yondashuv nuqtai nazaridan tadbirkorlik kompetensiyasini o‘quvchilarda rivojlantirishda keysli mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, biznes-simulyatsiyalar, debat va jamoaviy loyihalar, startaplar samarali hisoblanadi. Masalan, sinfda tug‘ilgan muammoli vaziyatga tez, samarali yechim topish, xarajatlarni taqsimlash, kichik startap g‘oyasi tuzish kabi holatlar orqali yoshlar hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘zini faqat bilim beruvchi emas, balki biznespedagog, ya’ni hayotiy qarorlarni simulyatsiya orqali o‘rgatuvchi trener sifatida namoyon qilishi talab qilinadi. Bunda o‘quvchilarning yosh imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni keyslarni yechishga jalb qilish samarali hisoblanadi.

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston sharoitida buning ko‘plab tasdiqlarini ko‘rish mumkin [1]. Jahon tajribasida (Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya) tadbirkorlik ta’limi maktab bosqichidanoq joriy etilgan. Ularda o‘quvchilar kichik startap loyihalar, jamoaviy biznes-o‘yinlar, amaliy topshiriqlar orqali «tashabbuskor shaxs» sifatida shakllantiriladi.

O‘zbekistonda «Yoshlar – kelajagimiz» dasturi, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun huquqiy va tashkiliy zamin yaratib bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchining tadbirkorlik kompetensiyasi – bu uning hayotga tayyorligi, ijtimoiy rivojlanishi va ma’naviy yetukligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichdir. Unda milliy an’analar, xalq hikmatlari va zamonaviy ta’lim usullari uyg‘unlashib, yoshlar faqat iqtisodiy emas, balki ma’naviy jihatdan ham mustaqil va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanadi. Shu ma’noda o‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish – bu faqat iqtisodiy samara emas, balki jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning muhim poydevoridir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - 350 b. UNESCO. Entrepreneurship Education for the Future. - Paris: UNESCO Publishing, 2015. - 220 p.
2. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.
3. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., «Sahhof», 2023. 392-bet.
4. Ота-она – мураббий [Матн] / Х.Ибраимов, М.Курунов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; - Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. - 220 б.
5. Теория познания // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). - СПб., 1890-1907.
6. Новейший философский словарь / гл.науч.редактор и составитель А. А. Грищанов. - Минск: Книжный Дом, 1999.
7. Ибн Мандхур. Лисон ал-Араб. Қоһира: Дор ал-Маъориф, 1981. - 12 жилд. (تدبير - tadbir).
8. Ўзбек тили изоҳли луғати. Т. 5 жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 3-жилд. - Б. 422. («тадбир», «тадбиркор» сўзлари).
9. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. - М.: Азбуковник, 2003. - С. 587. («предприниматель»)
10. Oxford English Dictionary. - Oxford: Oxford University Press, 2010. - P. 1154. («entrepreneur»).



YOSH O‘QITUVCHINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIDA USTOZ-SHOGIRDLIK TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK SHARTLARI

M.B.ABDOFATTOXOVA,

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
Milliy Instituti 2 bosqich tayanch-doktoranti*

Maqolada ustoz-shogirdlik masalalari bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish uning asosiy tamoyillarini aniqlashga haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o‘qituvchining malakasini oshirishga hissa qo‘shadigan ustoz-shogirdlik institutini rivojlantirish uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni ishlab chiqish vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Ustoz-shogirdlik tizimi, tamoyil, rivojlanish genezisi, strategik vazifa, individual, individual jamoa elementlari.*

В статье рассматривается анализ литературы по вопросам наставничества и ученичества для определения его основных принципов. Также освещены задачи разработки организационных и педагогических условий для развития института наставничества, способствующего повышению квалификации учителя.

Ключевые слова: *Система «учитель-ученик», принцип, генезис развития, стратегическая задача, индивидуальные и индивидуальные элементы коллектива.*

The article discusses the analysis of literature on teacher-student relations to identify its main principles. The tasks of developing organizational and pedagogical conditions for the development of the teacher-student institute, contributing to the improvement of the teacher's qualifications, are also highlighted.

Key words. *The teacher-student system, principle, genesis of development, strategic task, individual, individual team elements.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.03.2022 yildagi «Davlat organlari va tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan yosh o‘qituvchilar va yosh vatandoshlarga zarur shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 101-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya xizmat qiladi.

Yosh o‘qituvchining malakasini oshirishga hissa qo‘shadigan ustoz-shogirdlik institutini rivojlantirish uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni ishlab chiqish lozim. Vazifalari:

1. Ustoz-shogirdlik institutini tashkil yetishning mohiyati, mazmuni, rivojlanish genezisini va tuzilishini ko‘rsatish.



2. Ustoz-shogirdlik tizimida yosh o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish mezonlari, darajalari va modelini ishlab chiqish.

3. Zamonaviy ta'lim muhitida ustoz-shogirdlik institutini rivojlantirish, yosh o'qituvchining malakasini oshirishni ta'minlash uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash.

4. Ustoz-shogirdlik faoliyati jarayonida ustoz-shogirdlik tizimining samaradorligi va yosh o'qituvchining kasbiy rivojlanish darajasi dinamikasini aniqlash.

5. Maktabda yosh o'qituvchilar bilan ustoz-shogirdlik faoliyatini tashkil qilish.

Ish jarayonida nazariy va empirik tadqiqot usullari to'plami qo'llanildi: tadqiqot muammosi bo'yicha falsafiy, psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; ustoz-shogirdlik amaliyotini tahlil qilish; ustoz o'qituvchi sifatida o'z pedagogik faoliyatini retrospektiv tahlil qilish; ustozlarning kasbiy faoliyatini kuzatish va o'qitish, yosh o'qituvchilarning malakasini oshirish; respondentlar va ekspertlarning so'rovnomasi; yosh o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida duch kelgan qiyinchiliklarni aniqlash bo'yicha tajriba tadqiqoti; ustoz o'qituvchilar va yosh o'qituvchilar bilan suhbatlar; tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash; tadqiqot natijalarini pedagogik amaliyotga tatbiq etish tajribasini tahlil qilishdan iborat. Ustoz-shogirdlik sohasida mavjud yangiligi quyidagilardan iborat:

– yosh o'qituvchining malakasini oshirishda tizimni tashkil etuvchi omil sifatida ustoz-shogirdlik salohiyati aniqlandi;

– yosh o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, individual faoliyat uslubini shakllantirish, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga asoslangan yosh o'qituvchilar bilan ishlashning maxsus shakli sifatida ustoz-shogirdlik xususiyatlari; ustozning o'zini o'zi anglashi va o'zaro o'rganish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish aniqlandi;

– yosh o'qituvchining malakasini oshirish jarayonini didaktik qo'llab-quvvatlash, mezonlar, darajalar aniqlandi va model ishlab chiqilgan;

– yosh o'qituvchining malakasini oshirish jarayonida ustoz-shogirdlik tizimini samarali tashkil etishning tashkiliy-pedagogik shartlari aniqlandi va eksperimental ravishda tasdiqlandi.

Ustoz-shogirdlik, shuningdek, bilimlarni uzatish, o'quv jarayonida va yosh o'qituvchining martaba rivojlanishida yordam berish usulidir. Shuningdek, u boshqa usullarni (ish joyida o'qitish; ilmiy-tadqiqot ishlari; qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida masofaviy o'qitish; tajriba almashish uchun xizmat safarlari va boshqalar) istisno qilmasligi, balki ularni to'ldirishi, qiymatini oshirishi muhimdir. Ustoz-shogirdlik – bu ikki tomonlama jarayon: bir tomondan – ustozning



faoliyati, boshqa tomondan – o‘quvchining faoliyati. Ushbu jarayon tabiatda subyekt-subyekt xarakter bo‘lib, pedagogik o‘zaro ta‘sir turlaridan biridir.

Ustoz-shogirdlik tizimi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta komponentdan iborat:

– ish beruvchi tashkilotning xodimlarning kasbiy o‘shidan, ularning kasbiy malakasini oshirishdan manfaatdorligi;

– ustoz-shogirdlik tizimiga kiruvchi subyektlarning aniq maqsadlari, vazifalari, faoliyat dasturlari;

– yosh o‘qituvchining kasbiy moslashuv jarayoni;

– o‘zaro ta‘sir jarayonida ustoz va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo muloqot.

Ustoz-shogirdlik hodisasi tadqiqotchilari uning shakllarini aniqladilar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri (o‘quvchi bilan bevosita aloqa qilish, u bilan nafaqat ish vaqtida, balki norasmiy sharoitda ham muloqot qilish) va bilvosita (u faqat rasmiy ravishda o‘zini namoyan qilganda, maslahat, tavsiyalar va shaxsiy aloqalar orqali minimallashtiriladi, shuningdek uning atrof-muhitiga ta‘siri sifatida); individual (barcha harakatlar bitta o‘quvchini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lsa) va jamoaviy (ustoz-shogirdlik butun o‘quvchilar jamoasiga taalluqli bo‘lsa); ochiq (ustoz va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama o‘zaro ta‘sir) va yashirin (ustoz o‘quvchiga ikkinchisiga sezilmasdan ta‘sir qilganda).

S.Ya Batishev (16, 197-202-betlar) korxonalarda ustoz-shogirdlikning quyidagi shakllarining mazmunini tavsiflaydi:

– guruhli ustoz-shogirdlik;

– o‘quvchilar jamoalari;

– malakali ishchilar jamoasi;

– mehnat sulolalari – ishlab chiqarish, shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni birlashtirgan jamoalar sifatida;

– individual ustoz-shogirdlik;

– jamoaviy ustoz-shogirdlik;

– individual jamoa elementlarini va ustoz-shogirdlikning jamoaviy shakllarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli ustoz-shogirdlik.

I.S.Gichan «ustoz – yosh o‘qituvchi» munosabatlarining turlarini nazarda tutadi:

– ustoz o‘quvchining kasbiy va ijtimoiy-psixologik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan (faqat yuqori sifatli va o‘z vaqtida kasbiy tayyorgarlikka yoki ustoz-shogirdlik uchun motivatsiyaning yetishmasligiga e‘tibor qaratishdan farqli o‘laroq, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘qitish yoki mexanik uzatishga olib keladi);

– kasbiy faoliyatda motivlarning rivojlanishiga va shaxsiy ma‘noning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan faoliyatni yosh o‘qituvchining «qabul qilishi» mavjudligi;



– o‘zaro munosabatlarning shaxslararo tabiati, uning doirasida yosh o‘qituvchining shaxsiy tuzilmalarini o‘zgartirish mumkin.

Ustoz-shogirdlik faoliyati – bu kasbiy faoliyatdagi munosabatlarning vaqtinchalik davri. S.G.Vershlovskiyning fikricha, u bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– adaptiv (subyektlarning moslashuvi, munosabatlar turini shakllantirish);
– asosiy (me‘yorlar, qadriyatlar, an‘analar bilan tanishish dasturini amalga oshirish);

– yakuniy (shaxslararo rollardan chekinish, to‘siqni olib tashlash).

Ustoz-shogirdlik masalalari bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish uning asosiy tamoyillarini aniqlashga imkon berdi:

– ustoz va yosh o‘qituvchi o‘rtasidagi konstruktiv kasbiy o‘zaro ta‘sir (pedagogik taktikaga rioya qilish, uning o‘ziga xosligi shundaki, u: o‘qituvchining kasbiy xulq-atvori, uning harakatlari, harakatlarining o‘lchovi; ustoz va yosh o‘qituvchi o‘rtasida oqilona aloqa o‘rnatishning muhim sharti; ustoz tomonidan muayyan usullar, shakllar, o‘zaro ta‘sir vositalarini tanlash va ishlatishda o‘lchov);

– ustoz-shogirdlikka o‘zaro qiziqish;

– ixtiyoriy, chunki ustozning faoliyati muhim jamoat topshirig‘i, ustoz va yosh o‘qituvchining o‘zaro roziligi zarur, ya‘ni ustoz va o‘quvchi erkin tanlanadi, ularning o‘zaro manfaatlari hisobga olinadi.

Amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu tamoyilning buzilishi ustoz-shogirdlik va uni rasmiy tashkil etishga qiziqishning yo‘qolishiga olib keladi.

Har bir asos yosh o‘qituvchini moslashtirish va uning kasbiy mahoratini oshirish jarayonida ustozning ma‘lum rolini nazarda tutadi.

Tashkiliy asos moslashish davrida yangi o‘qituvchi boshdan kechirgan qiyinchiliklarni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bu yosh o‘qituvchiga individual pedagogik ish uslubini, harakatlar tizimini shakllantirishda yordam berish uchun kerak, keyinchalik ular kasbiy rivojlanish jarayonida to‘ldiriladi. O‘qituvchi-ustoz individual pedagogik qobiliyatlarini ochish va tizimli ravishda tarbiyalashga, yangi boshlanuvchi o‘qituvchining ma‘naviy kuchlarini rivojlantirishga yordam beradigan aniq harakatlar rejasini ishlab chiqishi kerak.

Shaxslararo munosabatlarning asosi uslubiy, pedagogik va psixologik pozitsiyalarni muvofiqlashtirishga imkon beradi, hamkasblar o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni mustahkamlaydi, o‘qituvchining tajribasini tahlil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va tarbiyalashda davom etishi uchun qulay muhit yaratadi. Boshqacha aytganda, o‘qituvchi o‘qituvchidan tug‘iladi. O‘qituvchining kelajakdagi taqdiri ko‘p jihatdan yosh o‘qituvchining o‘z jamoasidan qanchalik e‘tiborga olinishiga bog‘liq bo‘ladi – u o‘qituvchilik mahoratini egallashga intiladimi yoki birinchi



muvaffaqiyatsizliklarda taslim bo'ladimi. Ustoz va yosh o'qituvchi o'rtasida konstruktiv shaxslararo o'zaro munosabatlarni o'rnatish kafolati – bu muloqot qobiliyatlari, ishonch va qulaylikdir.

Vaziyat asosi moslashish davrida yosh o'qituvchi uchun yuzaga kelgan muammolarni birgalikda tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ustoz muayyan vaziyatni aniqlashga yordam beradi. U tajribasiz o'qituvchilarni o'z namunasi bilan individual didaktik tizimlar modellari bilan tanishtirishi, ularga o'z aktyorlik usullarini tashkil qilishda va moslashtirishda yordam berishi mumkin.

Ustozning boshlang'ich mutaxassis bilan o'zaro ta'sirini o'rganishda shaxslararo va vaziyatga ta'sir qilish jihati batafsilroq ko'rib chiqila boshlandi. Tadqiqot vaqti va bir qator ustoz-shogirdlik xususiyatlarini tushunishdagi o'zgarishlardan qat'i nazar, quyidagi ustoz-shogirdlik vazifalari doimo ta'kidlanadi: o'qitish, namuna va moslashishga yordam berish, yosh o'qituvchining malakasini oshirish va uning kasbiy mahoratini oshirish. Ustoz-shogirdlik vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti ustoz va yosh o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxslararo xususiyatidir.

Ustozni tanlash o'qituvchilarning muvofiqligi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi, bu ma'muriyatni ikkala hamkorlik qiluvchi tomonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga majbur qiladi, shuning uchun ixtiyoriylik prinsipi hurmat qilinadi.

Bundan tashqari, ustoz va yosh o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarda empatiya zarur bo'lib, bu empatiyani, hamdardlikni, dunyoni o'quvchi (yosh o'qituvchi) pozitsiyasidan ko'rishni belgilaydi. Pedagogik taktning empatiya komponenti tarkibiga quyidagilar kiradi:

– ijobiy munosabat – yosh o'qituvchi bilan o'z tajribasini baham ko'rish istagi, yosh o'qituvchi sezishi mumkin bo'lgan hamma narsa.

– hurmat – yosh o'qituvchi haqida ijobiy fikr bildirish, uning yutuqlarini qo'llab-quvvatlash va oldinga intilishini rag'batlantirish.

– yosh o'qituvchiga ustozning g'amxo'rligini ko'rsatadigan, asosan, og'zaki bo'lmagan vositalar, yuz ifodalari va boshqalardan faol foydalanishni nazarda tutadigan iliqlik.

– samimiylik, yosh o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish istagining namoyon bo'lishi, uning ehtiyojlariga sezgirlik va boshqalar.

– ustoz va yosh o'qituvchining madaniy uslublari o'rtasidagi farqlarni tushunishdan iborat empatik madaniyat va boshqalar.

Shunday qilib, empatiya ustoz va yosh o'qituvchi o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga hissa qo'shishi aniq. Gap insonning ishtiroki, o'zaro tushunish, nafaqat yosh o'qituvchiga uning kasbiy rivojlanishi davomida ta'sir



qiladigan vaziyatlarni tushunish va hisobga olish, balki unga hamdard bo'lish, quvonch va qayg'ularini baham ko'rish, muammolari bilan qiziqish qobiliyati haqida bormoqda.

Biz ustoz-shogirdlikka xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

– tashkilotdagi moslashuvchanlik, belgilangan qoidalar yoki talablar to'plamisiz, uni turli vaziyatlarda turli usullar yordamida amalga oshirish mumkin; o'qitish uslubi mehnat shartnomalari bilan tartibga solinmaydi va ustozning faoliyati muhim jamoat topshirig'i hisoblanadi;

– uning shaxsiyatini o'zgartirishga emas, balki yosh o'qituvchining moslashuv davridagi kasbiy mahoratini oshirishga qaratilganligi;

– «teskari aloqa» tizimini o'z ichiga olgan va «ustoz-yosh o'qituvchi» munosabatlarining tarkibiy qismi bo'lgan samaradorlik. Bu bog'liqlik o'quv jarayoniga qiziqish va e'tiborni uyg'otadi, shuningdek, uning samaradorligini oshiradi;

– har qanday boshqa o'qitish uslubiga parallel yoki qo'shimcha ravishda ishlaydigan muvofiqlashtiruvchi, rag'batlantiruvchi va boshqaruv jarayoni sifatida harakat qiluvchi universallik.

Ushbu belgilar ustoz-shogirdlik yosh o'qituvchining ijtimoiy va kasbiy moslashuvi, uning kasbiy darajasini oshirish, o'quv jarayonida va martaba rivojlanishida yordam berish usuli sifatida muhimligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//«Xalq so'zi», 2020 yil 1 oktyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori// «Xalq so'zi», 2020-yil 2-yanvar.

3. Hikmatlar shodasi / to'plovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: «O'zbekiston», 2016.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.*

*«Uzluksiz ta'lim» jurnali O'zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy jurnallar
ro'yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to'liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2025 y. Qog'oz bichimi 60x84^{1/16}
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.**

